

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

A.A. XALIKOV, D.B. MUXAMEDOVA

**AVTOMATIKA ASOSLARI  
VA IMPULS TEXNIKASI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlarining 3522204 – «Gidrometeorologiyada telekommunikatsiya va aloqa texnigi»,  
3440601 – «Meteorolog» mutaxassisligi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**«Faylasuflar» nashriyoti  
Toshkent – 2014**

**UO'K: 681.5(075)**

**KBK: 26.23**

**X 72**

**Xalikov A.A.**

**X 72 Avtomatika asoslari va impuls texnikasi:** o‘quv qo‘llanma: kasb-hunar kollejlari uchun / A.A. Xalikov, D.B. Muxamedova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. – 176 b.

**UO'K: 681.5(075)**

**KBK: 26.23**

Ushbu o‘quv qo‘llanma gidrometeorologiya kollejlari o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda avtomatika asoslari va impuls texnikasi ha-qida asosiy ma’lumotlar kiritilgan. O‘quv materiallarida avtomatika elementlari va impuls texnikasining tuzilishi, ishslash prinsiplari va raqamli qurilmalarining asosiyлari batafsil bayon qilingan.

**Taqrizchilar:**

**S.F.Amirov** – TTYMI «Elektr ta’minoti va mikroprotsessor qurilmalari» kafedrasи mudiri, t.f.d., professor,

**Z.N.Nazirov** – Fizika, matematika fanlari nomzodi, Gidrometeorologiya ilmiy-tekshirish instituti laboratoriya mudiri.

## KIRISH

Gidrometeorologiya stansiyalar tarmog‘ida qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun soha bo‘yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar avtomatikaning boshqaruv tizimlari, operativ xizmat tarmog‘i haqida maxsus bilimga ega bo‘lishlari zarur.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent Gidrometeorologiya kasb-hunar kollejining Meteorologiya va Gidrometeorologiyada tele-kommunikatsiya va aloqa yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim oladigan o‘quvchilar uchun tuzilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanmada avtomatika asoslari fani doirasida avtomatik nazorat, avtomatika elementlari va ularning asosiy ko‘rsatkichlari, meteorologik axborotni yig‘ish, qayta ishlash va saqlashning zamonaviy tizimlari, meteorologik axborotning turlari va manbalari, meteorologik axborotni yig‘ish va uzatishning zamonaviy tizimlari, Gidrometeorologiya markazining avtomatlashtirilgan sistemalari masalalari ko‘rib chiqiladi. Kursni o‘rganish davomida o‘quvchilarlar impuls texnikasi asoslari, to‘g‘ri burchakli impuls shakllantirgichlari, multivibratorlar, potensial mantiqiy element va potensial mantiqiy element-larga asoslangan relaksatsion generatorlar, chiziqli o‘zgaruvchan kuchlanish generatori, bloking generatorlar, mikroprotsessor tizimlari va raqamli qurilmalar haqidagi bilimlarga ega bo‘ladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Gidrometeorologiya kollejining o‘quvchilaridan tashqari avtomatika fani va impuls texnikasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

## I. AVTOMATIKA ASOSLARI

### 1.1. Avtomatika, avtomatlashtirish tarixidan qisqacha ma'lumotlar

Avtomatika – fan va texnikaning alohida sohasi bo'lib, bu soha avtomatik boshqarish nazariyasi, avtomatik tizimlar yaratish prinsiplari va bu tizimda qo'llaniladigan texnik vositalar bilan shug'ullanadi.

Avtomatika so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'zi harakatlanuvchan moslamani anglatadi. Avtomatika fan sifatida 18-asrning ikkinchi yarmida, ya'ni ip-yigiruv, tikuv stanoklari va bug' mashinalari kabi birinchi murakkab mashina – qurilmalarning paydo bo'lish davrida ishlatila boshlandi. Texnika tarixida birinchi ma'lum bo'lgan avtomatik qurilma Polzunov bug' mashinası (1765-y.) hisoblanadi. Bu mashina oddiy shamol va gidravlik dvigatellarning o'rniiga ishlatilgan va odam ishtirotkisiz suvning sathini rostlagan. Avtomatik rostlashning asosiy prinsiplari ingliz olimi F. Makvvel tomonidan 1868-yilda ishlab chiqilgan.

Texnikaning rivojlanishi va odamlarning og'ir qo'l mehnatidan bo'shashiga qaramasdan ish jarayonlari va mehnat qurollarini boshqarish kengayib va murakkablashib bordi. Ayrim hollarda esa maxsus qo'shimcha elementlarsiz mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishni boshqarish imkoniyatlari murakkablashdi. Bu esa o'z navbatida avtomatikaning muhimligi va uni rivojlantirish kerakligini isbotladi.

Bugungi kunda avtomatika alohida fan sifatida o'z yo'nallishlariga ega. Bu fan avtomatik boshqarish tizimlarining nazariyasi va uning tuzilish tamoyillari bilan shug'ullanadi.

Hozirgi davrda fan-texnika taraqqiyoti shunday ilgari surildiki, mavjud texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishda yangi, har taraflama zamон talabiga javob beradigan texnik vositalar bilan ta'minlash zaruriyati tug'ildi. Xorijiy mamlakatlardan keltirilayotgan yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish esa yuqori bilim va malaka talab etadi.

Avtomatikaning texnik vositalariga nazorat axborotlarini qabul qiluvchi, uzatuvchi, o'zgartiruvchi, saqlaguvchi, program-

malashtirilgan axborot bilan solishtiruvchi, buyruq axborotini shakllantiruvchi hamda texnologik jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi uskunalar va texnik qurilmalar kiradi: datchiklar, relelar, kuchaytirgichlar, logik (mantiqiy) elementlar, rostlagichlar, stabilizatorlar, ijro mexanizmlari va boshqalar. Bunday texnik vositalar avtomatikada o'lhash o'zgartgichlari deb ham yuritiladi.

Meteorologik axborotni qayta ishlashning barcha bosqichlarida avtomatlashtirishni keng joriy qilish hozirgi vaqtida iqtisodiyot tarmoqlariga meteorologik xizmat ko'rsatish va kuzatish ma'lumotlari hajmining ortib borishi bilan bog'liq bo'lgan zaruriyat hisoblanadi. Avtomatlashtirishni joriy etmay turib meteorologik ma'lumotlar oqimidan samarali foydalanib bo'lmaydi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish zaruriyatni ilk bor sonli proqnoz uchun boshlang'ich axborotni tayyorlash jaronida yuzaga kelgan.

Ko'p o'tmay ma'lum bo'ldiki, meteorologik axborotni qayta ishlashning kuzatishlardan boshlab proqnozlarni iste'molchilarga chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlarida avtomatlashtirish joriy etilgandagina yangi usullarni operativ qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

## **1.2. Avtomatik nazorat haqida tushuncha**

Bajariladigan vazifalariga qarab avtomatlashtirishni quyidagilarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik himoya, avtomatik boshqarish, avtomatik rostlash.

Avtomatik nazorat o'z navbatida avtomatik signalizatsiya, avtomatik o'lhash va avtomatik axborotni yig'ishga ajratiladi.

Avtomatik signalizatsiya xizmatchilarni, texnologik jarayon ko'rsatkichlari chegaraviy ko'rsatkichlarga yaqinlashganlik haqidagi axborot beradi. Avtomatik o'lhash meteorologik jarayonining asosiy ko'rsatkichlarini maxsus asboblarga uzatib berishga xizmat qiladi. Avtomatik himoya nonormal va halokat hollarida qo'llaniladi. Bu holda himoya vositalari jarayonni to'xtatib yoki avtomatik ravishda ushbu holatlarni chetlatishga xizmat qiladi.

### **1.3. Avtomatika elementlari va ularning asosiy ko‘rsatkichlari**

Avtomatika elementi deb o‘lchanayotgan fizik kattalikni birlamchi o‘zgartiruvchi moslamaga aytiladi. Avtomatika elementi to‘rt xil strukturaviy belgilanish sxemalaridan iborat bo‘ladi:

- 1) oddiy bir martali (birlamchi ) to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zgartirish;
- 2) ketma-ketli to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zgartirish;
- 3) differensial sxemali;
- 4) kompensatsion sxemali.

Oddiy o‘lhash o‘zgartgichlari (a) bir dona elementdan tashkil topgan bo‘ladi. Ketma-ketli o‘zgartgichlarda esa (b) oldindagi o‘zgartgichning kirish ko‘rsatkichi keyingidagi o‘zgartgichning chiqishi hisoblanadi. Odatda birlamchi o‘zgartgich sezgirlik elementi (SE) oxirgi (keyingi ) o‘zgartgich esa chiqish elementi deb yuritiladi. O‘zgartgichlarning ketma-ketligi ulanish usuli bir martali o‘zgartirishda chiqish signalidan foydalanish qulay bo‘lgan sharoitda qo‘llaniladi.

Differensial sxemali o‘lhash o‘zgartgichlari nazorat qilinayotgan kattalikni uning etalon qiymatlari bilan solishtirish zarurati bo‘lganda qo‘llaniladi.

Kompensatsion sxemali o‘zgartgichlar usuli esa yuqori aniqlik bilan ishlashi, universalligi hamda o‘zgartirish koeffitsientining tashqi ta’sirlarga deyarli bog‘liq emasligi bilan ajralib turadi.

Avtomatika elementlari tizimning eng asosiy qismi bo‘lib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- nazorat qilinayotgan yoki rostlanayotgan kattalikni qulay ko‘rinishdagi signalga o‘zgartirish (birlamchi o‘zgartgich – dat-chiklar);
- bir energiya ko‘rinishidagi signalni boshqa energiya ko‘rinishidagi signalga o‘zgartirish (elektromexanik, termoelektrik, pnevsoelektrik, fotoelektrik va hokazo o‘zgartgichlari);
- signal tabiatini o‘zgartirmsandan uning kattaliklarini o‘zgartirish (kuchaytirgichlar);
- signal ko‘rinishini o‘zgartirish (analog raqamlı, raqam analog o‘zgartgichlari);
- signal formasini o‘zgartirish (taqqoslash vositalari);
- mantiqiy operatsiyalarni bajarish (mantiqiy elementlar);

- signallarni taqsimlash (taqsimlagich va kommutatorlar);
- signallarni saqlash (xotira va saqlash elementlari);
- programmali signallarni hosil qilish (programmali elementlar);
- bevosita jarayonga ta’sir qiluvchi vositalar (ijrochi elementlar).

Avtomatika elementlarining funksiyalari har xil bo‘lishiga qaramay, ularning parametrлари umumiylis hisoblanadi va ularga quyidagilar kiradi:

- statik va dinamik rejimlardagi tavsifnomalari;
- uzatish koeffitsienti (sezgirlik, kuchaytirish va stabilizatsiya koeffitsientlari);
- xatolik (nostabilistik);
- sezgirlik chegarasi.

Ko‘rinish bo‘yicha avtomatika elementlarining statik tavsifnomalari uch guruhga ajratiladi:

- a) chiziqli,
- b) uzlaksiz nochiziqli,
- c) nochiziq uzlukli.

Avtomatika elementining ishlash sharoitlari turg‘unlashmagan, ya’ni X va Y qiymatlari vaqt davomida o‘zgarilayotgan payti dinamik rejim deyiladi. Chiqish qiymatining vaqt davomida o‘zgarishi esa dinamik tavsifnomasi deyiladi.

Avtomatika elementlari ma’lum inersionlikka ega, ya’ni chiqish signali kirish signaliga nisbatan kechikishi bilan o‘zgaradi. Elementlarning bu xususiyati avtomatik tizimning dinamik rejimdagi ishini aniqlaydi.

Har bir elementning umumiylis va asosiy xarakteristikasi uning o‘zgarish koeffitsienti, ya’ni element chiqish kattaligining kirish kattaligiga bo‘lgan nisbatiga teng. Avtomatik tizimlarning elementlari miqdor va sifat o‘zgartirishlarni bajaradi. Miqdor o‘zgarishlar kuchaytirish, stabillash va boshqa koeffitsientlarni nazarda tutadi. Sifat o‘zgartirishda bir fizikaviy kattalik ikkinchisiga o‘tadi. Bu holda o‘zgartirish koeffitsienti element sezgirligi deyiladi.

Avtomatika elementining yana bir muhim tavsifnomasi – element (kirish kattaligi o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan) chiqish kat-

taligining o‘zgarishidan hosil bo‘lgan o‘zgartirish xatosidir. Bu xatoga sabab atrof-muhit haroratining, ta’minlash kuchlanishining o‘zgarishi kabilar bo‘lishi mumkin. Element xarakteristikasining o‘zgarishi natijasida paydo bo‘ladigan xato nostabillik deb ataladi.

Ba’zi elementlarning chiqish va kirish kattaliklari o‘rtasida ko‘p qiymatli bog‘lanish mavjud. Bunga quruq ishqalanish, gis-terzis va boshqalar sabab bo‘lishi mumkin. Bunda kattalikning har bir kirish qiymatiga uning bir necha chiqish qiymatlari mos keladi. Sezgirlik chegarasining mavjudligi shu hodisa bilan bog‘liq.

Kirish kattaligining element chiqishidagi signalni sezilarli darajada o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘lgan qiymati sezgirlik chegarasi deyiladi.

Avtomatika elementlari mustahkamlik bilan ham xarakterlanadi. Elementlarning sanoat ekspluatatsiyasida o‘z parametrlarini yo‘l qo‘yiladigan chegarada saqlash qobiliyatiga mustahkamlik deb ataladi. Mustahkamlik elementni loyihalash vaqtida hisoblanadi va uni ishlab chiqarilgandan so‘ng ekspluatatsiya jarayonida sinaladi.

## **II. METEOROLOGIK AXBOROTNI YIG'ISH, QAYTA ISHLASH VA SAQLASHNING ZAMONAVIY TIZIMLARI**

### **2.1. Meteorologik axborotning turlari va manbalari**

Meteorologik axborot atmosfera va yer sirtida sodir bo'luvchi fizik jarayonlarni kuzatish natijalarini o'z ichiga oladi. Meteorologik axborot turli ko'rinishlarga ega bo'lib, turli manbalardan (yer sirti yaqinidagi kuzatishlar, aerologik zondlash, yo'ldosh axboroti, Meteorologik Radiolokatsion stansiyalari (MRL) ma'lumotlari va boshqalar) olinadi. Yer sirti yaqinidagi kuzatishlar meteorologik stansiya va postlarda amalga oshiriladi. Stansiyalardagi kuzatishlar sinxron tarzda har uch soatda o'tkaziladi. Bu stansiyalar nafaqat kuzatishlarni, balki ularning birlamchi qayta ishlovi va nazorati, informatsion telegrammalarini tuzish va ularni belgilangan muddatlarda tegishli muassasalarga uzatishni ham amalga oshiradi. Bundan tashqari meteorologik kuzatishlar uchun Yerning sun'iy yo'ldoshlari va radiolokatorlar kabi vositalardan ham foydalaniladi. Yo'ldoshlar yordamida ulkan hududlar bo'yicha turli axborotni olish mumkin. Bu axborot bulutililik, to'shalgan sirt harorati, yog'inlar va boshqa elementlar to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beruvchi xabarlarni o'z ichiga oлади. Radiolokatorlar yordamida bulutlar va atmosfera yog'inlarini kuzatish bajariladi.

Atmosferadagi fizikaviy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi xabarlar aerologik axborotni tashkil etadi. Atmosferadagi havo holatining parametrlarini o'lchash uchun eng keng qo'llaniladigan asbob o'lchash natijalarini radio orqali uzatuvchi radiozond hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda atmosferani meteorologik raketaclar va Yer yo'ldoshlari yordamida zondlash usullaridan ham foydalaniladi. Aerologik kuzatishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular yuqori darajada avtomatlashgan bo'lib, olinayotgan axborotning katta qismini keyingi bosqich, ya'ni EHM yordamida qayta ishlashga yaroqli ko'rinishda olishni ta'minlaydi.

Meteorologik axborot ikki asosiy vazifaga ega: ob-havo progozlari va xavfli meteorologik hodisalar haqida ogohlantirishlar-

ni tuzishda; ko‘p yillik kesimda iqlim o‘zgarishlarini belgilovchi meteorologik rejim va uning qonuniyatlarini o‘rganishda foydalanadi. Bu vazifalarga muvofiq meteorologik axborot operativ va rejim axborotlarga bo‘linadi.

Operativ axborot kuzatish punktlaridan eng qisqa muddatlarda muayyan kodlar asosida tuzilgan telegrammalar ko‘rinishida proqnoz markazlariga keladi va darhol proqnozlarni tuzishda qo‘llaniladi.

Rejim axboroti ko‘p yillar davomida arxivlarda yig‘iladi va turli ko‘rinishdagi ko‘p yillik xarakteristikalarini hisoblash, shuningdek, proqnoz sxemalarini ishlab chiqish va tekshirishda foydalaniлади.

## **2.2. Meteorologik axborotni yig‘ish va uzatishning zamonaviy tizimlari**

Ob-havo proqnozlarini ishlab chiqish muayyan muddatlarda turli geografik punktlarda amalga oshiriladigan meteorologik kuzatish natijalariga asoslanadi.

Meteorologik kuzatishlar bajarilganidan so‘ng meteorolog meteorologik axborotni kodlaydi va uni telegrammalar ko‘rinishida aloqa kanallari orqali uzatishga tayyorlaydi. Atmosfera holati yoki uning ayrim meteorologik kattaliklari holati to‘g‘risidagi xabarlar to‘plami meteorologik axborot deb atalishini eslatib o‘tamiz.

Hududiy gidrometmarkazlarda (HGMM) joylashgan xabarlarni kommutatsiyalash markazlari (XKM) bir nechta telegrammalarini to‘plamlarga birlashtirishni amalga oshiradi va ularni eng yaqin regional meteorologik markazdagi (RMM) MKM ga uzatadi. Va nihoyat, RMM lar bu axborotni Jahon meteorologik markazlariga (JMM) uzatadi. Meteorologik telegrammlar axborotni qayta ishslash markazlariga xatosiz yetib borishini ta‘minlash uchun maxsus axborot uzatish tizimi tashkil etilgan. Bu tizim Butunjahon meteorologiya tashkiloti (BJMT) doirasida faoliyat ko‘rsatib, Butunjahon ob-havo xizmati (BJOHX) tarkibiga kiradi. BJOHX uch asosiy elementdan tashkil topgan:

1) global kuzatish tizimi (GKT), sinoptik va aerologik stansiyalar tarmog‘i va kuzatishlar o‘tkazishning boshqa vositalarini o‘z ichiga oladi;

2) ma'lumotlarni qayta ishlashning global tizimi (MQIGT), ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni saqlashni o'z ichiga oluvchi meteorologik markazlardan iborat;

3) global telealoqa tizimi (GTT), kuzatish ma'lumotlari va qayta ishlangan axborotni tezkor almashish uchun xizmat qiladi.

Global kuzatish tizimi rejaga asosan yer sirti yaqinidagi kuzatishlarni amalga oshiruvchi sinoptik stansiyalar tarmog'idan iborat. Aerologik kuzatishlar sutkasiga ikki marta, o'rtacha grinvich vaqt (O'GV) bo'yicha soat 00 va 12 da o'tkazilishi majburiy. Harakatdagi kema stansiyalari ham katta miqdordagi axborotni beradi. Kuzatish tizimida meteorologik yo'ldoshlar ham sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashning global tizimi uch turdag'i meteorologik markazlardan iborat:

- 1) Jahon meteorologik markazlari (JMM);
- 2) Regional meteorologik markazlar (RMM);
- 3) Milliy meteorologik markazlar (MMM).

JMM lar Moskva, Melburn va Vashingtonda joylashgan. Ular global mashtabda odatiy va yo'ldosh axborotlarni qabul qiladi, ularni radio orqali yoki boshqa vositalar yordamida boshqa JMM, RMM va MMMLarga uzatadi, imkonli boricha Yer sharning katta qismi uchun meteorologik tahlillar va prognozlarni tayyorlaydi va tezkor tarqatadi, ob-havo tahlili va prognozining yirik mashtabli muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Bundan tashqari JMMlari kartalar va boshqa global meteoaxborot, maxsus ma'lumotlar arxivlarini saqlash va ularni ilmiy tadqiqotlar uchun havola vazifalarini ham bajaradi.

RMMlar ham JMMlar bajaruvchi vazifani ular xizmat ko'rsatuvchi hudud chegarasida bajaradi. Hammasi bo'lib 24 ta RMMlar tashkil etilgan bo'lib, ulardan to'rttasi MDH hududida joylashgan (Moskva, Toshkent, Novosibirsk va Xabarovsk). Har bir markaz o'zi xizmat ko'rsatuvchi hudud chegarasida meteorologik axborot, tahlil kartalari va ob-havo prognozlarini tarqatish bo'yicha muayyan majburiyatlarni bajaradi. Toshkent markazi misolida RMMlar bajaruvchi ish ko'lagini ko'rib chiqamiz. Bu markazning faoliyat doirasiga barcha O'rta Osiyo mamlakatlari, Qozog'iston, Kavkazorti, Shimoliy Kavkaz, Rossiya Yevropa qis-

mining katta hududi, Sibirning bir qismi, Turkiya, Yaqin Sharq mamlakatlari, Pokiston, Afg'oniston va Hindistonning shimoliy qismi qamrab olingan. Toshkent markazida bu mamlakatlardan barcha kuzatish ma'lumotlari yig'iladi, so'ngra o'z navbatida bu ma'lumotlarni boshqa markazlarga uzatadi, o'z hududi bo'yicha tahlil va prognoz kartalarini tuzadi va xizmat ko'rsatish hududidagi meteorologiya bo'linmalariga yetkazib beradi.

MMMLar ham RMMlar bajaruvchi vazifani o'z mamlakatlari chegarasida bajaradi va o'z hududi RMM yoki JMM bilan axborot, tahlil va prognozlar almashinadi.

Global telealoqa tizimi meteomarkazlar tomonidan qayta ishlanmagan kuzatish ma'lumotlarini yig'ish va tarqatish, shuningdek, qayta ishlangan axborotni tarqatish va uni turli markazlar bilan almashinish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. GTT uch bosqichli asosda tashkil etilgan:

a) bosh magistral zanjir, JMM va tegishli RMM hamda MMMLarning telealoqa tarmoqlarini o'zaro bog'laydi;


b) regional telealoqa tarmog'i;

d) milliy telealoqa tarmog'i.

Barcha asosiy aloqa tarmoqlari aloqa liniyalari bilan birlashtirilib, axborotni qabul qilish va uzatish qurilmalari bilan jihozlangan. Aloqa tizimining MDH regional markazlariga axborot uzatishni ta'minlovchi qismi 2.1-rasmda keltirilgan.

GTT nafaqat meteorologik kuzatishlar to'g'risidagi axborotni yig'ishga, balki meteomarkzlarga maxsus GRID yoki GRIV kodida MMM, RMM yoki JMMlardan kuzatish ma'lumotlari kabi sirkulyar tarzda uzatiluvchi zaruriy prognostik va diagnostik axborotni olishga ham xizmat qiladi. Axborot almashinish qat'iy belgilangan tarqatish rejasiga asosida amalga oshiriladi. GTT yordamida nafaqat quruqlikdagi meteostansiyalar tarmog'idan meteorologik ma'lumotlar, balki dengiz kemalari va samolyotlardan xabarlar, shuningdek, yo'ldosh orqali kuzatish ma'lumotlari to'plamlari ham olinadi. GTT tizimidan meteorologik kuzatish ma'lumotlari RMM yoki MMMLarga kelganidan so'ng ular birlamchi qayta ishlovdan o'tadi. Aloqa kanallari orqali MKMlidan olinuvchi axborot EHM nazoratida bo'ladi. Ma'lumotlarni koddan chiqarish, saqlash, ularning turli ko'rinishdagi qay-

ta ishlashni amalga oshiruvchi dasturlarga tushunarli bo‘lishini ta’minlashni tashkil etish bu mashinalarning vazifasi hisoblanadi. Telegrammalardagi birlamchi meteorologik axborot EHMda bajariluvchi IMQI liniyasiga uzatiladi. Bu liniya axborotni nazorat qiluvchi bir qator o‘zgartirishlarni bajaradi va ularni birlamchi ma’lumotlar bazasida yig‘adi. Ma’lumotlar fondi birlamchi ma’lumotlar bazasi va siklik arxivdan iborat. Ma’lumotlar bazasida ma’lumotlar so‘nggi kalendar sutkasi (Grinvich bo‘yicha) uchun saqlanadi. Saqlash muddatining oxirida ma’lumotlar bazadan siklik arxivning magnit tasmalariga yoziladi. Nazoratdan o’tkazilgan ma’lumotlar siklik arxivda bir oy saqlanadi, so‘ngra doimiy arxivga yozib qo‘yiladi.



**2.1-rasm.** GTT bosh magistralining MDH regional gidrometeorologik markazlariga axborot uzatishni ta’minlovchi ikkilamchi liniyalı qismining sxemasi

Birlamchi ma’lumotlar bazasi meteorologik kuzatishlar natisida mahalliy aloqa tarmog‘i yoki GTT orqali olingan meteorologik axborotning yakuniy yig‘ilish punkti hisoblanadi. Boshqa tomonidan u barcha proqnoz dasturlari uchun kiruvchi axborot manbayidir.

## **2.3. Gidrometeorologiya markazining avtomatlashtirilgan sistemalari haqida ma'lumot**

### **«Meteoinfossistem»ning regional telekommunikatsion xizmati.**

Regional telekommunikatsion xizmati ATV «Meteoinfossistem» ning tezkor ishlab chiqarish tarmog'i bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi va unga biriktirilgan hudud – Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha hamma turdag'i (harf-raqamli, faksmil, sun'iy yo'ldoshdan) meteorologik ma'lumotni avtomatik ravishda yig'ish va tarqatish ishini beto'xtov sutka davomida ta'minlab beradi.

Regional telekommunikatsion xizmati Inteikom-Delta Ltd., Moskov Russia tomonidan ishlab chiqarilgan Universal Meteorologik Abonent sistemasi (Uni MAS) bilan ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha meteostansiya va postlaridan kuzatuv ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash aloqa kanallari bo'yicha RTXga va qayta uzatish uchun ma'lumotlarni paketli uzatish tizimi (СППИ – система пакетной передачи информации) yo'lga qo'yilgan.

Bu tizim (SPPI) 7 ta KITS (кустовой информационный центр) tarmoqli axborot markazidan – bo'limdan: Qoraqalpog'iston, Nukus, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Toshkent; 5 ta axborot yig'ish tugunlari (узел сбора информации УЗИ)дан iborat: Andijon, Namangan, Sirdaryo, Xorazm, Buxoro va meteorologik stansiyalar, agrometeorologik va gidrologik postlardan iborat.

KITS-APK, ya'ni apparat – dasturlash majmuasining (аппаратно-программный комплекс APK-KITS) tarkibiga quyidagilar kiradi: kompyuter, radiostansiya, UPS va markaziy aloqa bloki rejimida ishlovchi paketli kontroler VIP-M (выносной интеллектуальный передатчик).

KITSga ulangan meteostansiyalar va agremeteorologik va hidrologik postlar APK-Meteo majmuasi bilan ta'minlangan bo'lib, bu majmuaga quyidagilar kiradi: radiostansiya, VIP-M (пакетный контроллер) klaviatura, printer.

APK-KITS meteostansiyalardan ma'lumotlarni paketlab qabul qilish va uzatishni ta'minlaydi.

VIP-M bilan ishlaydigan radiostatsiyalar bu – FT-600, SC-2000 va h.k.

RTS va KITS o'rtasida ma'lumot almashish Isttelekomning 64 Kb/sek o'tkazish tezligiga va TSR/IP almashish protokoliga ega korporativ tarmog'iga abonentlar tochkasi ulash orqali amalga oshiriladi

RTSga O'zbekiston Respublikasining hamma aeroportlari (AMSG) ulangan.

AMSG va RTS o'rtasida ma'lumot almashish ham Isttelekomning 64–128 Kb/sek o'tkazish tezligiga va NTTR almashish protokoliga ega korporativ tarmog'iga abonentlar tochkasi ulash orqali amalga oshiriladi.

RTS O'zbekiston Respublikasi bo'yicha quyidagi tezkor ma'lumotlarni yig'ishni ta'minlaydi: sinoptik, klimatik, aerologik, gidrologik, agrometeorologik, shtorm-dovul, ionosfera ma'lumoti va aviatsiya ma'lumoti.

Toshkent RTSiga regional telealoqa bo'limi vazifalari yuklatilgan va u Markaziy Osiyo bo'yicha meteorologik ma'lumot yig'ish va bu ma'lumotlarni MMTS Moskva orqali telealoqa global tarmog'iga uzatish uchun javobgar bo'lib, bu regionga 6 ta mamlakat kiradi: O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Afg'oniston.

Hozirgi vaqtida Afg'oniston bilan aloqa kanali yo'q, shuning uchun Afg'onistondan ma'lumotlar olinmaydi.

RTS va Markaziy Osiyo mamlakatlari milliy meteorologik markazlari o'rtasida ma'lumot almashish Internet orqali amalga oshiriladi.

RTS va MMTS Moskva o'rtasida ma'lumot almashish 64 Kb/sek o'tkazish tezligiga va almashish protokoli TSR/IP ega raqamli kanal orqali amalga oshiriladi. Kanal bo'lmagan hollar da avtomatik ravishda Internet orqali ishlashga o'tiladi.

O'z navbatida RUT Toshkent MMS Moskva orqali quyidagi meteorologik ma'lumotlarni qabul qiladi: SYNOP, TEMR – A, B, C va D bo'limlari Shimoliy yarim sharlik bo'yicha, GRIB va GRID ma'lumotlari, METAR aviatsion ma'lumotlari, SPECI, TAF va fakmil kartalari.

RTSga kelgan barcha ma'lumotlar lokal tarmoq bo'yicha Gidrometning sinoptiklariga, gidrologlariga va agrometeorologlariga yo'naltiriladi. Avtomatik ish joylari tashkil etilgan: ya'ni ARM-(автоматическое рабочее место): sinoptik ARM, gidrologik ARM, agrometeorologik ARM. Olingan ma'lumotlar O'zgidrometning mutaxassislari tomonidan qayta ishlanib RTS ning lokal tarmog'i bo'yicha ob-havoning matn ko'rinishidagi ma'lumoti va har xil prognostik faksmil xaritalar uzatiladi. RTS O'zgidrometning mahsulotini Respublika tarmoqlari bo'ylab va o'z regioni bo'yicha milliy meteorologik markazlarga ikki tomonlama shartnomaga asosida tarqatadi.


ATV «Meteoinfositem» ning sun'iy yo'ldosh xizmati geostatsionar va meteorologik sun'iy yo'ldoshlardan ma'lumotlarni olish va qayta ishlashni amalga oshiradi. Bu ma'lumotlar RTS-ga uzatiladi, bu yerda sun'iy yo'ldoshdan olingan rasmlar qayta ishslash va qayta ishlanmagan rasmlarni fayllar shaklida BMMI KITSlarga, Respublikaning AMSGlariga va Regionning milliy meteomarkazlariga jo'natish imkoniyatlari bor.

### III. IMPULS TEXNIKASI ASOSLARI

Impuls texnikasi radioelektronikaning bir bo'limi bo'lib, u elektr impulslarni generatsiyalash, o'zgartirish va kuchaytirish, ularni o'lhash va qayd qilishni o'r ganish va foydalanishni, avtomatika, telemexanika va hisoblash texnikasi, elektr aloqa hamda radiolokatsiya, televidenie va o'lhash texnikasida qo'llaniladigan impulsli sistemalarining elementlarini loyihalash va hisoblash ishlarini o'z ichiga oladi.

#### 3.1. Impulslar, tasnifi, turlari va parametrlari

Elektr zanjirida impuls deb, kuchlanish yoki tokni qisqa vaqtida o'zgarishi tushuniladi. 3.1-rasmda real impuls ko'rinishi keltirilgan.



3.1-rasm.


Impulsning asosiy tasniflari va parametrlari quyidagilardan iborat:

1. Impuls amplitudasi  $U_M - A$ .
2. Impulsning aktiv kengligi ( $0,1A$  darajada o'lchanadi)  $t_u$ .
3. Front tikligi  $S_f = \frac{dU}{dt} \approx \frac{U_t}{t_f}$ .

4. Qiyalik tikligi  $S_{sp} = \frac{dU}{dt} \approx \frac{U_t}{t_{sp}}$ .
5. Impuls tomi buzilishi  $\frac{\Delta U}{U_t} \cdot 100\%$ .
6. Teskari tashlanish amplitudasi  $U_{t \text{ obr}}$ .
7. Teskari tashlanish kengligi  $t_{u \text{ ob}}$ .
8. Impuls quvvati  $P = \frac{W}{t_u}$ , bu yerda:  $W$  – impuls energiyasi.

Impuls ketma-ketlikni (3.2-rasm) davriy takrorlanuvchi impulslar tashkil etadi. U quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi.


9. Impuls ketma-ketligi chastotasi  $f = \frac{1}{T}$ , bu yerda  $T = t_u + t_n$ .



3.2-rasm.


10. To'ldirish koeffitsienti  $\gamma = \frac{t_u}{T}$  (o'zgarish oralig'i 0...1), chuqurligi  $Q = \frac{T}{t_u}$  (o'zgarish oralig'i  $\infty$  dan 0 gacha).
11. Impulsning o'rtacha qiymati (3.3-rasmga qarang).

$$U_{sr} = \frac{1}{T} \cdot \int_0^{t_i} U(t) dt = \frac{S_{imp}}{T} = \frac{U_m \cdot t_i}{T} = U_m \cdot \gamma = \frac{U_m}{Q};$$




3.3-rasm.

Impulslar turli ko‘rinishga ega: to‘g‘ri burchakli, uchburchakli, trapetsiyalar, eksponensial va boshqa (3.4-rasm), shuningdek, bir qutbli (a) va ikki qutbli (b) bo‘lishi mumkin (3.5-rasm qarang): bir qutbli impulslar musbat va manfiy bo‘lishi mumkin. Turli ko‘rinishli chastota va amplitudali impuls ketma-ketligini hosil qilish uchun maxsus generatorlardan foydalaniлади.



3.4-rasm.




3.5-rasm.


### 3.2. RC zanjirdan impuls o'tishi

**RC zanjirlarda birlik qadamdagи kuchlanish va tok**

RC zanjirning kirish qismiga (3.6-rasmga qarang) birlik qadamdagи kuchlanish uylanadi 3.7-rasm.



3.6-rasm. RC zanjirning qadamdagи prinsipial sxemasi.



3.7-rasm. Birlik kuchlanish grafigi.

Birlik qadamga zanjir reaksiyasini aniqlaymiz, ya'ni quyidagi munosabatlarni topamiz:

$$U_C(t) = ?; \quad U_R(t) = ?; \quad i(t) = ?;$$

Sakrash tenglamasi, ya'ni zanjir kirish qismidagi kuchlanish quyidagicha bo'ladi:

$$U_{kir} = \begin{cases} 0, & t < 0 \\ U, & t \geq 0 \end{cases}$$

Boshlang'ich shartlari:  $U_C(0) = 0$ ,  $i(0) = 0$ ,  $U_R(0) = 0..$

Zanjir uchun Kirxgofning 2-qonuniga ko'ra:

$$U = U_C + U_R = U_C + i \cdot R.$$

quyidagini inobatga olib  $q = U_C \cdot C$ ,  $i = \frac{dq}{dt} = C \cdot \frac{dU_c}{dt}$ , quyidagini

hosil qilamiz:  $U = U_c + R \cdot C \cdot \frac{dU_c}{dt}$ ;

RC zanjirni differensial tenglama yordamida standart ko‘rinishida quyidagicha yozamiz:

$$R \cdot C \cdot \frac{dU_c}{dt} + U_c = U;$$

boshlang‘ich sharti bilan  $U_c(0) = 0$ ,  $i(0) = 0$ ,  $U(0) = 0$ . (3.1)

Bunday differensial tenglamaning yechimini erkin va majburiy tashkil etuvchilari orqali aniqlanadi:

$$U_c = U_{erk.} + U_{maj.}$$

Erkin tashkil etuvchisi quyidagicha yoziladi:  $U_{erk} = A \cdot e^{pt}$  va zanjirga e’tirozli ta’sir etuvchi bo‘lmagan holda o‘zining o‘tkinchi jarayonini ifodalaydi (tenglamaning o‘ng tomoni nol holatda), demak,

$$R \cdot C \cdot \frac{dU_A}{dt} + U_A = 0;$$

$\frac{d}{dt} \Rightarrow p$  ni belgilab, ushbu tenglamani operator ko‘rinishida

quyidagicha yozamiz:

$$U_A \cdot (R \cdot C \cdot p + 1) = 0.$$

$U_c = o‘tkinchi$  jarayonda vaqt birligida eksponensial qonuniyat bilan o‘zgarganligi uchun, ya’ni  $U_c \neq 0$ , bunda

$R \cdot C \cdot p + 1 = 0$ , bundan xarakteristik tenglamaning ildizini aniqlaymiz:

$$p = -\frac{1}{R \cdot C}$$

Uni qiymatini tenglamaning erkin tashkil etuvchisiga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:

$U_{C \text{ erk.}} = A \cdot e^{-\frac{t}{R \cdot C}}$ , bu yerda  $R \cdot C = \tau$ ,  $RC$  – zanjirning vaqt doimiyisi, bunda

$$U_{C \text{ erk.}} = A \cdot e^{-\frac{t}{\tau}}$$

$t \rightarrow \infty$  bo‘lganda,  $U_{c \text{ erk.}} \rightarrow 0$ ;

O‘tkinchi jarayon tugaganidan so‘ng, majburiy tashkil etuvchisi, tenglamaning o‘ng tomonidan (nazariy  $t \rightarrow \infty$ , bo‘lganda amalda esa  $t > (3 \div 5)\tau$ ) bo‘lganda quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{c \text{ chiq.}} = U_{kir} = U.$$

Differensial tenglamaning to‘liq yechimini quyidagicha yoza-miz:

$$U_c = U_{c \text{ erk.}} + U_{c \text{ maj.}} = U + A \cdot e^{-\frac{t}{\tau}}.$$

Ushbu ifodada noma’lum qiymat – A. Uni boshlang‘ich shartdan topamiz:


$$t=0, \quad U_c(0)=0;$$

$$0 = U + A \cdot 1 \Rightarrow A = -U$$

Differensial tenglamaning natijaviy yechimi quyidagicha bo‘ladi:

$$U_A = U \cdot (1 - e^{-\frac{t}{\tau}}) \quad (3.2)$$

3.8-rasmida RC zanjirning turli vaqt doimiyisidagi  $U_C(t)$  ga bog‘liqligi keltirilgan.




3.8-rasm.

RC zanjir chiqish qismida quyidagicha bo‘ladi:

$$U_c = U_{c \text{ erk.}} + U_{c \text{ maj.}} = U + A \cdot e^{-\frac{t}{\tau}}$$

3.9-rasmda  $\tau$  ning turli qiymatlarida  $U_R(t)$  ga bog‘liqligi keltirilgan.

$$\tau_1 > \tau_2$$




**3.9-rasm.**

$$U_R = i \cdot R,$$

$$\text{bo‘lganligidan, demak } i = \frac{U_R}{R} = \frac{U}{R} \cdot e^{-\frac{t}{\tau}}. \quad (3.4)$$

3.10-rasmda  $I(t)$  bog‘liqligi keltirilgan.




**3.10-rasm.**

## IV. TO‘G‘RI BURCHAKLI IMPULS SHAKLLANTIRGICHLARI


### 4.1. Ketma-ket va parallel tipdagi diod chegaralovchilari

To‘g‘ri burchakli impulslarni sinusoidal tebranish generatori – STG va chegaralovchi sxema yordamida shakllantirish mumkin (4.1-rasmga qarang).




4.1-rasm.


Chegaralagichlar ustki, ostki tomonidan va ikki tomonlamaligi bilan farqlanadi. 4.2, 4.3 va 4.4-rasmlarda chegaralagichlarning amplitudalii tasnifi va ularni ishslash jarayonini xarakterlovchi os-sillogrammalari tasvirlangan.



4.2-rasm. Ustki tomondan chegaralash



**4.3-rasm.** Ostki tomonidan chegaralash




**4.4-rasm.** Ikki tomonlama chegaralash


### Ketma-ket diodli chegaralovchilar

4.5-rasmda nol darajali ostki tomonidan ketma-ket chegaralash prinsipial sxemasi, hamda uni ishslash prinsipini xarakterlovchi ossillogrammasi tasvirlangan. Yuklama qarshiligi chegaralagich qarshiligidan bir necha barobar  $R(R_{yuk} \gg R)$  bo‘lishi kerak, sinusoidal signal manbaining ichki qarshiligi  $R_{ichki} \ll R$  bo‘lishi kerak. Tokni 0 dan  $\pi$  interval oralig‘ida oqishini  $U_{kir} \gg U_{o'tk}$ , bu yerda  $U_{o'tk}$  – diodni o‘tkazuvchan yo‘nalishda ulanganidagi kuchlanshi, uning qiymati 0,5 V.

Nolinchi darajali yuqoridan chegaralovchi sxemasi va uning ishlash prinsipini xarakterlovchi ossillogrammasi 2.6-rasmda tasvirlangan. Sxemaning normal ishlashini ta'minlash uchun quyidagi uchta shartlar bajarilishi kerak:  $R_{yuk} \gg R$ ,  $R_{ichki} \ll R$ ,  $U_{kir} \gg U_{otk}$ .



**4.5-rasm.** Diodli ketma-ket chegaralovchi



**4.6-rasm.** Nolinchi darajali yuqoridan chegaralovchi

Chegaralagich sxemalari universal bo'lishi uchun, ular ixtiyoriy darajada chegaralashni ta'minlashlari lozim.

4.7-rasmda ixtiyoriy darajada chegaralovchi chegaralagich sxemasi tasvirlangan.


EYKning qutbi va tayanch kuchlanish  $U_{op}$  shunday tanlanadi, VD diod  $E=0$  bo'lganda ochiq bo'lsin.  $R_{ichki}$  va  $R_{VDto'g'}$ ,  $R$  – qarshilik qiymatidan biroz kichik bo'lganligi uchun  $R_{ichki} \rightarrow 0$ ;  $R_{VDto'g'} \rightarrow 0$  deyish mumkin.

$U_{tayanch}$  quyidagi oraliqda  $U_{tayanch}=0 \dots E_{kirmax}$  o'zgaradi. Quyidagi shartda  $E_{kir} \leq U_{tayanch}$  diod VD ochiq va  $U_{chiq}=E_{kir}$  deyish mumkin.


Agarda  $E_{kir} > U_{tayanch}$  bo'lsa, VD – yopiq kontirdagi tok va qarshilikdagi nolga teng. Demak,  $U_{tayanch}=U_{tayanch}$  (vaqt

oralig‘ida  $\omega t_2 \div \omega t_3$ ). 0 dan  $\omega t_1$ , oralig‘ida  $E_{\text{kir}}=0$  va  $U_{\text{chiq}}=0$ . 4.8-rasmida ixtiyoriy darajadagi ostidan chegaralovchi sxema tasvirlangan.

Sxemaning ishlash prinsipi, ossillogrammalari yuqorida ko‘rib o’tilgan edi.




**4.7-rasm.** Ixtiyoriy darajadagi chegaralagich



**4.8-rasm.** Ixtiyoriy darajadagi ostdan chegaralagich

Ixtiyoriy darajada ustki va ostki tomonlaridan chegaralovchi sxema, ko‘rib o’tilgan ikki sxemaning ketma-ket ulaganidan tarkib topadi (4.9-rasmga qarang).

Shartlari, ishlash prinsipi va ossillogrammalari avvalgidek bo‘ladi.



**4.9-rasm.** Ixtiyoriy darajada ustki va ostki tomonlaridan chegaralash

Ketma-ket diodli chegaralagichlarning kamchiliklari quyidagi chadir:

chegaralagich kirish signali EYK ideal bo‘lishini talab etadi

$$(R_{\text{chiq}} \rightarrow 0);$$

sxema passiv bo‘lib, uzatish koeffitsienti  $K < 1$  bo‘ladi;

EYK  $E_{\text{kir}}$  katta bo‘lishi kerak (o‘nlab volt), ya’ni quyidagi shart  $E_{\text{chiq}} \gg U_{\text{toq}}$  bajarilishi lozim.

### Parallel diodli chegaralagichlar

Ketma-ket diodli chegaralagichlarning asosiy kamchiliklari ga EYKning ichki qarshiligi kichik bo‘lishi talab etiladi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida parallel diodli chegaralagichlar yaratilgan. Bunday chegaralagichlar EYK manbayi chiqish qarshiligini juda ham kichik bo‘lishini talab etmaydi.

$$R_{\text{yuk}} \gg R_{\text{chiq}}; \quad R_{\text{yuk}} \gg R.$$

Ustki tomonlar chegaralovchi diodli sxema, taxminan nolinchi darajadagi va uning ishlash prinsipini tasvirlovchi ossilogrammalar 4.10-rasmda tasvirlangan.

Avvalgidek shartni  $R_{\text{yuk}} \gg R$  va  $E_{\text{kir}} \gg U_{\text{toq}}$  inobatga olib sxemani quyidagi tenglamalar sistemasi bilan yozamiz (1;2):

$$\left\{ \begin{array}{l} E_{\text{kir}} = 1 \cdot R + U_{\text{VD}}; \\ U_{\text{VD}} = \varphi(I). \end{array} \right. \quad (1)$$



$$(2)$$

(1) tenglama yuklama to'g'ri chizig'i, (2) esa diodni volt-amperli xarakteristikasi. Salti ishslash qisqa tutashuv tasniflari orqali yuklama to'g'ri chizig'ini chizib ( $I=0$ ,  $U_d=E_{kir}$ ;  $U_d=0$ ,  $I_{km} = \frac{E_{kir}}{R}$ ) ossillogrammani tuzamiz  $U_d(\varpi t) = U_{chiq}$ .



$U_{to'g'} \approx 0,3 \div 0,6 B$ . — darajada ustki darajada chegaralashni hosil qilamiz.

4.11-rasmida nolinchi daraja ostidan chegaralovchi parallel diodli chegaralagich va ossillogrammalari keltirilgan.



4.12 va 4.13-rasmlarga mos ravishda ixtiyoriy darajalarda ustki va ostki tomonlardan chegaralash sxemalari va ossillogrammalari tasvirlangan.





4.10-rasm. Parallel diodi chegaralagich



4.11-rasm. Nolinchi darajali ostidan chegaralovchi parallel diodli chegaralagich





**4.12-rasm.** Ixtiyoriy darajadagi ustki tomondan parallel diodli chegaralash



**4.13-rasm.** Ixtiyoriy darajadagi ostki tomondan parallel diodli chegaralash

4.14-rasmda ixtiyoriy darajali ikki tomonlama chegaralagichning sxemasi va ossillogrammassi tasvirlangan.



**4.14-rasm.** Ixtiyoriy darajali ikki tomonlama chegaralagich

*Xulosalar:*

Parallel diodli chegaralagichlar kirish signalini manbayining ichki qarshiligi  $R_{kir}$  ga sezgir emas, lekin ketma-ket diod chega-

ralagichlaridagi kamchiliklarga – kichik uzatish koeffitsientiga, katta kirish signali ( $10\div30$  Volt) ga ega bo‘lishligi va bufer kaska-dini yuklama qarshiligi  $R_{yuk}$  bilan moslashtirilishi lozim.

Diodli chegaralagichlarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun tranzistorli kuchaytirgich–cheгаралагичлар ишлаб чиқи-лан бо‘lib, ularning kirish signallari nisbatan kichik ( $100$  mV atrofida), kirish qarshiligi nisbatan katta va chiqish qarshiligi esa kichik va chiqish signaling ko‘rinishi (formasi  $\xi$  – to‘g‘ri bur-chaklik koeffitsienti) nisbatan yaxshi.

#### **4.2. Katta signal rejimida tranzistorning chiziqli modeli**

Impuls rejimda tranzistor raqamli qurilmaga xarakterli bo‘lib, katta signal rejimida ishlaydi. Kichik signal rejimidan farqli, o‘zgarmas tok bo‘yicha parametri o‘zgarishi  $20\div30\%$  bo‘lsa, tranzistor katta signal rejimida qirqish rejimidan aktiv sohasidan to‘yingan rejimiga va aksincha o‘tadi. Odatta impuls texnikasida tranzistor ikkita qarama-qarshi holatlarda: qirqish holatida (tranzistor yopiq) va to‘yingan holatda (tranzistor ochiq va to‘yingan). Tranzistorni ushbu rejimda uzatish koeffitsienti birdan kichik, ya’ni kuchaytirish xususiyatiga ega bo‘lmaydi.

Bundan tashqari tranzistorni og‘ir rejim holidan ikkinchisi-ga va aksincha o‘tkazishda u aktiv holatda bo‘ladi va ulab-uzish (o‘tish holati) bir necha mikrosekundni tashkil etadi. O‘tkinchi (aktiv) holatda tranzistorni uzatish koeffitsienti birdan bir necha barobar katta bo‘ladi. Katta signal rejimida tranzistorning tas-niflari nochiziqli bo‘lib, qo‘sish prinsipi o‘rinli bo‘lmaydi.

Katta signal rejimida ishlovchi tranzistorlar sxemasini analizi uchun nochiziqli uslublar qo‘llanadi.

Bunday uslublarga quyidagilar kiradi:

1. Tranzistorni nochiziqli volt-amper tasnifini aproksimatsiya-yalash. Ushbu uslub aniq, lekin murakkab va mashaqqatli.
2. Fure qatorlari va integrallariga asoslangan uslub (garmonik tashkil etuvchilarga ajratish). Murakkab va mashaqqatli.
3. Nochiziqli volt-amper tasniflarni bo‘lakli-chiziqli funksiyalarga approksimatsiya-yalash uslubi. Ushbu uslub nisbatan sodda, lekin approksimatsiya aniqligi  $10\div15\%$ .

Muhandislik amaliyotida u keng miqyosda qo'llanadi. Nochiziqli volt-amper tasnifini bo'lak-chiziqli funksiya orqali approksimatsiyalanishini ko'raylik.

Uslub mazmuni: bo'lak-bo'lak sohalar uchun (kesma, to'yinish, o'tish sohasi) nochiziqli volt-amper tasnifini bo'lak-chiziqli funksiya orqali approksimatsiyalanadi. Har bir sohada volt-amperli tasnif asosidagi approksimatsiyalanuvchi funksiya Teylor qatori bilan tasvirlanadi. Aytib o'tilgan chiziqli approksimatsiyalangan hamma hosilalaridan, ikkinchisidan boshlab hisobga olmaslik mumkin (qator ikki yig'indi bilan chegaralanadi  $a + b \cdot x$ ), o'zgarmas tashkil etuvchisi inobatga olinadi.

Tranzistorni elektr modelini hosil qilingan tenglama asosida, har bir soha uchun o'zgarmas doimiysini inobatga olib, sintezlanadi. Bunda modellar chiziqli bo'lib, hamma uch soha uchun turlichadir. Tranzistorlarning h parametrli tizimidagi modeli keng qo'llaniladi.


Bipolyar tranzistorning kirish va chiqish tasniflari approksimatsiyasini (umumiylashtirishli sxema uchun) va maydon tranzistori (indutsirlangan kanalli) uchun ham ko'ramiz.

4.15-rasmida bipolyar tranzistorning chiqish tasnifi tasvirlangan. Qirqish sohasi (1)  $I_b = 0$  va  $I_b = I_{k0}$  tasnif oralig'ida  $I_k$  bosh va  $I_{k0}$  kollektor toklari qiymatlariga mos keladi. To'yinish sohasi (3)  $U_{ke}$  kuchlanishning minimal qiymatiga mos keladi. To'yinish rejimida  $R_{KE\ nas}$  tranzistorning qarshiligi og'ish chizig'i 3-ning tangensi  $tg\beta$  ga mos keladi.


Ular oralig'ida aktiv rejim 2 joylashgan. Tranzistorning kirish tasnifida (4.16-rasmga qarang). Ushbu uchta sohalar ko'rsatilgan.

Indutsiyalangan kanalli maydon tranzistori tasnifi ko'rib chiqilgan uch soha uchun va ularning approksimatsiyasi ham o'xhash.

Qirqish sohasiga mos keluvchi, tranzistorning kollektor toki qiymatini belgilaymiz. Umumiylashtirishli sxema uchun  $I_E = 0$  bo'lganligi uchun baza-kollektor oralig'ida teskari (qorong'ulik (tenevoy) toki  $I_{k0}$  oqadi (4.19 a-rasmga qarang). Umumiylashtirishli sxema uchun  $I_b = 0$  ni ta'minlash uchun, emitter-baza o'tishda  $I_{k0}$  o'tishi kerak.




**4.15-rasm.** Bipolyar tranzistorning chiqish tasnifi




**4.16-rasm.** Bipolyar tranzistorning kirish tasnifi

4.17-rasmida bipolyar tranzistorning kirish tasnifi, chiziqli approksimatsiyasi, sohalar tasnifi tasvirlanganan.




**4.17-rasm.** Bipolyar tranzistorning kirish va chiqish tasnifining approksimatsiyasi



**4.18-rasm.** Indutsirlangan kanalli maydon tranzistorining kirish va chiqish tasniflari

(4.19 b-rasmga qarang). Bunda kollektor toki quyidagicha bo'lib, ( $I_{k\ nas} = I_{k0} \cdot h_{21e}$ )  $h_{21e}$  marta umumiy bazali sxemadagidan katta bo'ladi.

$I_{k\ nas}$  tokni  $I_{k0}$  gacha kamaytirish uchun, tranzistor bazasini musbat potensial bilan yopib amalga oshirish mumkin ( $I_e = 0$ , a  $I_{k\ nas} = I_{k0}$ ) (4.19 d-rasmga qarang).



**4.19-rasm.** Qirqish sohasidagi kollektor toklari

Ko'rib o'tilgan uch soha uchun, h-parametr tizimida, tranzistorning tasniflarini keltiramiz:

$$U_1 = \psi(I_1, U_2); \quad (1) \text{ yoki}$$

$$\begin{cases} \begin{pmatrix} U_1 \\ I_2 \end{pmatrix} = (h) \cdot \begin{pmatrix} I_1 \\ U_2 \end{pmatrix} \\ I_2 = \varphi(I_1, U_2); \end{cases} \quad (2)$$


Ushbu tenglamalar doimiy tashkil etuvchilarini hisobga olishi kerak.

O'zgartirishlardan so'ng quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\left\{ \begin{array}{l} U_1 = h_{11e} \cdot I_1 + h_{12e} \cdot U_2 + e_0; \\ I_2 = h_{21e} \cdot I_1 + h_{22e} \cdot U_2 + I_{k, \text{bosh}}. \end{array} \right. \quad (1)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} I_2 = h_{21e} \cdot I_1 + h_{22e} \cdot U_2 + I_{k, \text{bosh}}. \end{array} \right. \quad (2)$$

Tranzistorning elektr modelini Kirxgofning ikkinchi (1) va birinchi (2) qonunlarini hisobga olgan holda sintezlaymiz (4.20-rasmga qarang).




**4.20-rasm.** 2-soha uchun tranzistorning elektr modeli


Ushbu model 2-soha aktiv rejimi uchun o‘rinli. Tranzistorni qirqilish sohasi ( $I_e = 0$ ), uchun elektr modeli 4.21-rasmda tasvirlangan.

Bunda, baza emitterga (umumiyl shinaga) nisbatan musbat potensial berish bilan amalga oshiriladi.

To‘yinish sohasi uchun (3), tranzistorning modeli (4.22-rasmga qarang) ko‘rinishiga ega. Bu yerdagi  $e_0$  ni kirish tasnifini  $U_{be\ nas} \approx 0,2 \div 0,5B$  (4.17-rasmga qarang),  $h_{1le} = tga$  (4.17-rasm),  $R_{k\ nas} = tg\beta$  (4.15-rasm) approksimatsiyalab aniqlanadi.



**4.21-rasm.** 1-qirqish sohasi uchun tranzistorning elektr modeli



4.22-rasm.

Demak, tranzistorni aktiv sohasidagi 3-soha uchun tranzistorning elektr modeli chiziqli modeliga mos kelib, doimiy tashkil etuvchilar  $e_0$  va  $I_{kto'y}$  bilan to'ldiriladi. Tranzistorning qirqish sohasidagi modeli baza – kollektor oralig'idagi emitterni uzilgan holini, ya'ni  $I_{k0}$  tok oqishini tasvirlaydi.


Tranzistorning to'yinish rejimidagi modeli amalda baza, kollektor va emitter elektrodlari qisqa tutashuvni anglatadi, chunki  $R_{kto'y} \approx (1 \div 10) \text{Om}$ ;  $e_0 \approx (0,2 \div 0,5)B$ ;  $h_{11e} \approx (10 \div 100) \text{Om}$ . Tranzistor to'yinishini ta'minlash uchun to'yinish baza tokidan kattaroq qiymatdagi tokni bazaga berish kerak.

### 4.3. Tranzistorli chegaralovchi kuchaytirgich


4.29-rasmda chegaralovchi-kuchaytirgichning prinsipial sxemasi keltirilgan. Chegaralovchi-kuchaytirgich tranzistorli kalit bo'lib, aktiv rejimdan qirqish va to'yinish rejimiga o'tadi. Bunda signalni ostki va ustki qismlarini chegaralaydi (S – nuqta-da o'zgarmas tokli rejimdagi ikki tomonloma chegaralagich (4.30-rasm (a)). Ustki qismidan chegaralash uchun ishchi nuqta-si to'yinish rejimida («A» – nuqta), ostki qismidan esa – qirqish rejimi («B» – nuqta) (4.30 b,d-rasmga qarang).


Tranzistorli chegaralagich kuchaytirgichning afzalliklari:

- 1) uzatish koefitsienti bo'lgani uchun nisbatan kichik signalni talab etadi (yuzlarga millivolt);
- 2) chiqish qarshiligi kichik bo'lganligi uchun yuklama bilan chegaralagichni moslashtirishni ta'minlaydi;
- 3) chiqish signalining to'g'ri burchakli koefitsienti katta;



**4.29-rasm.** Tranzistorli chegaralovchi kuchaytirgich





**4.30-rasm.** Ikki tomonlama chegaralash (a), ustdan (b), ostidan (d)

#### 4.4. Tranzistorli kalitlarning dinamik tasniflari

Tranzistorli kalitlarda axborot buzilmasdan – sifatli uzatilishi uchun, hamda to‘g‘ri burchakli impulslar spektrining hamma garmonik tashkil etuvchilari yoki impulslar ketma-ketlik bir xildagi kuchaytirish koefitsienti va garmonik tashkil etuvchilarining orasidagi faza siljishi o‘zgarmasligi lozim.

Ushbu shartni amplituda chastotali xarakteristika (ACHX) – ni ishchi chastota diapazonida bir xilligi bilan va faza – chastotali xarakteristika (FCHX)ni chiziqli ortishi bilan ta’milnadi.

Chastotali xarakteristikaniing buzilishi (o‘zgarishi) sxemadagi reaktiv elementlar mavjudligidan bo‘ladi. (ostdan  $C_p$ , ustdan  $-C_{n\Sigma}$ ) bundan tashqari yuksak chastota sohasida tranzistorning inersionlik xususiyati ham ta’sir etadi. Ushbu xususiyatlari vaqt doimiysi  $\tau$  bilan baholanadi. Vaqt doimiysi tranzistorning chegara  $f_{gr}$  kuchaytirish chastotasini aniqlaydi. Chegara kuchaytirish chastotasi tranzistorning ulanish sxemasiga bog‘liq:

$$f_{gr\ OE} \ll f_{gr\ OB} (h_{2I} \text{ marta})$$

Tranzistorning umumiy emitterli – UE va umumiy bazaali – UB ulanish sxemalari uchun vaqt doimiysi quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau_\beta = \frac{1}{2 \cdot \pi \cdot f_{gr \text{ } OE}}; \quad \tau_\alpha = \frac{1}{2 \cdot \pi \cdot f_{gr \text{ } OB}}.$$


Tranzistorning vaqt doimiysi munosabati:

$\tau_\alpha \ll \tau_\beta$  v ( $\beta = h_{2IE}$  marta), demak umumiy baza – UB sxemada chastota xususiyatlari yaxshi bo‘ladi.

Agarda tranzistorli kalitning kirish qismiga to‘g‘ri burchakli ideal impulslar berilsa, uning chiqish qismidagi impulslar  $C_{HE}$  bo‘lmasa ham buziladi, bu tranzistorning inersionlik xususiyatidan bo‘ladi.

4.31-rasmda keltirilgan sxemadan tranzistorli kalitda buzilishni ko‘raylik. Kirish impulsni ideal to‘g‘ri burchakli shakllanishni ta’minlaydi.

4.32-rasmda tranzistorli kalitning ishlash prinsipini tasvirlovchi ossillogrammalar tasvirlangan. 4.32 (a)-rasmda esa,  $E(t)$  kirish impuls ketma-ketligi keltirilgan.  $0 \div t_1$  oraliqda impuls amplitudasi musbat (+E), uning qiymati  $(0,3 \div 0,5)B$  dan katta bo‘lib tranzistorning qirqish (yopish) rejimini ta’minlaydi.





4.31-rasm. Tranzistorli kalit

Bunda baza toki  $I_b m = -I_{k0}$  (4.32 b-rasm), kollektor toki  $I_k = -I_{k0}$  (4.32 d-rasm) va kollektor – emitter  $U_{vx} \approx -E_K$  – kuchlanishi  $t_1$  vaqtida  $U_{vx}$  kuchlanishi  $-E$  ga o‘tadi. Manfiy kuchlanish tranzistorni ochadi va emitter – baza o‘tishdan  $I_b = \frac{E}{R_b}$  toki or-

qadi, ushbu tok tranzistorni to‘yinish rejimiga o‘tkazadi  $I'_b = \frac{-E_i}{R_b}$ .

Emitter – baza o‘tishning shuntliligi ta’sirida va  $C_{be}$  kichik qarshiligi E.Y.K. E kirishda o‘zgaradi (4.32 b-rasmga qarang). Tranzistorning inersionliligidan umumiy emitterli UE – sxemada vaqt doimiysi  $\tau_\beta$  kollektor toki eksionensial qonuniyat bilan, boshlang‘ich  $t_1$  dan  $t_{kaj1} = I_b \cdot h_{21e}$  o‘zgaradi. Agarda tranzistor har doim aktiv sohada ishlaganida edi keltirilgan ifoda o‘rinli bo‘lar edi, lekin vaqt oz o‘tishi bilan u to‘yinish rejimiga o‘tadi va kollektor toki  $I_{k\ nas}$  qiymatiga erishadi (4.32-rasmga qarang). Kalit chiqish qismida kuchlanish  $t_1$  vaqtidan  $-E_k + I_{k0} \cdot R_k \approx -E_k$ ;  $U_{ke}$  – gacha  $I_k$  tok qonuniyatini takrorlab o‘zgaradi, chunki  $U_{ke} = -E_k + I_k \cdot R_k$ . Bunda tranzistor o‘chishi, qirqish rejimidan to‘yinshga o‘tishi, lekin  $I_k$  tok uchun va  $U_{ke}$  kuchlanish uchun (4.32 e-rasmga qarang). O‘chirilish vaqtini oshirish uchun to‘yinish koefitsientining  $S$  oshiriladi, ya’ni  $I_b$  ni o‘z navbatida esa  $I_{kaj1}$ . Lekin S qiymat oshirilishiga chegara mavjud.





**4.32-rasm.** Tranzistorli kalitning ishlash ossillogrammalari

$$Bu yerda \quad I'_b = \frac{-E_i}{R_b}.$$

$t_{rass}$  vaqtini  $t_{bkl}$  – kabi aniqlash mumkin.

$t_{rass}$  vaqtida  $I_k I_{kaj1}$  dan  $I_k nas$  gacha o‘zgaradi, bundan

$$t_{rass} = \tau_{nas} \cdot \ln \frac{I_{kaj1} + |I_{kaj2}|}{I_{k\ nas} + |I_{kaj2}|},$$

$$t_{rass} = \tau_{nas} \cdot \ln \frac{I_b + I'_b}{I_{b\ nas} + I'_b};$$

Bundan ma'lum bo'ladiki,  $S$  ortishi bilan  $t_{vkl}$  kamayadi, lekin  $t_{ass}$  ortadi ( $S \uparrow t_{vkl} \downarrow \Rightarrow t_{rass} \uparrow$ ), shuning uchun  $S=1,5 \div 2$  olinishi taklif etiladi.

$t_{vik}$  vaqtini aniqlaymiz. Ushbu vaqtda kollektor toki  $I_{k\ nas}$  dan  $I_{k0}$ , gacha kamayadi.

$$I_{vik} = \tau_\beta \cdot \ln \frac{I_{b\ nas} + I'_b}{I'_b}$$

bunda kollektor toki bo'yicha o'chirilish

summa vaqt vaqtini quyidagicha bo'ladi:


$$I_{vik \Sigma Ik} = t_{pass} + t_{vik Ik}.$$

O'chirilish vaqtini  $t_{vik}$  kuchlanish  $U_{ke}$  bo'yicha belgilaymiz. U bir qancha  $I_{vik\Sigma Ik}$  dan  $I_{vik\Sigma U_k}$  gacha farqlanib, unga  $C_{H\Sigma}$  ta'sir etadi.

$C_{H\Sigma} = C_H + C_{vix} + C_M$ , bu yerda  $-C_{vix}$  – tranzistorning chiqish sig'imi;  $C_{KE}$ ,  $C_M$  – montaj sig'imi;  $C_H$  – yuklama sig'imi (4.33-rasmga qarang).

Odatda  $C_{H\Sigma} 10 \div 100 \text{pf}$  qiymat oraliq'ida bo'ladi.

Kondensatorni  $C_{H\Sigma}$  zaryadlash doimisi  $\tau_{zar} = R_k \cdot C_{H\Sigma}$  bo'lib,  $U_{ke}$  orqa frontini kechikishi o'chirilish vaqtini  $t_{vik} = (3 \div 5) \cdot \tau_{zar}$  aniqlaydi.  $\tau_{zar} \gg \tau_\beta$  bo'lganligi uchun kuchlanish  $U_{ke}$  bo'yicha uch o'chirilish vaqtini  $t_{vik U_k} \gg t_{vkl}$ ,  $t_{vik U_k} = t_{vkl} Ik$ . Teskor sxemalarni loyihalashda ulab-uzish funksiyasi uchun  $I_k$  ni qo'llash lozim.



4.33-rasm. Tranzistorli sxema

## V. MULTIVIBRATORLAR

### 5.1. Multivibratorlar haqida umumiy ma'lumotlar

Chiqish kuchlanishi formasi sinusoidaldan farqli bo'lgan qurilmalar keng qo'llaniladi. Bunday tebranishlar relaksitsion deb atalib, generatorning boshqa turidir. Multivibrator (lotinchadagi so'z multim — ko'p va vibro — tebrataman) — relaksatsion impuls generatori deyarli to'g'ri burchakli ko'rinishda bo'lib, musbat teskari aloqali kuchaytirgich ko'rinishidagi qurilmadir.

Multivibratorlar ikki turga bo'linadilar: avtotebranishli (turg'un holatga ega bo'lmaydi) va kutuvchi (bir turg'un holatli shuning uchun bir vibrator deb ataladi).

Multivibratorni ishlashi kondensatorda «C» energiya yig'ilib R qarshilikda razryadlanishiga asoslangan. Ushbu ulab-uzish tranzistorli kalitda amalga oshiriladi.

Multivibratorlarni bipolyar tranzistorlarda, operatsion kuchaytirgichlarda amalga oshiriladi.

### 5.2. Tranzistorli multivibrator. Ishlash prinsipi ossilogrammalari

Multivibrator ikki kaskadli musbat teskari aloqali kuchaytirgichdan iborat. RC kuchaytirgichdan iborat. Buning uchun ikki kaskadli UE li ulangan sxema (5.1-rasm) yoki ikkita invertirlovchi o'zgarmas tokli operatsion kuchaytirgich ishlatalidi.

Multivibrorni uyg'otish uchun ikki shart bajarilishi kerak — fazasi va amplitudasi balansda bo'lishi.

Faza balansi,

$$\varphi_{OC} + \varphi_y = 0^\circ,$$

Amplituda balansi


$$k\beta \geq I.$$

Teskari aloqa omili,  $\beta = 1$  i ,  $\varphi_{OC} = 0^\circ$  bo'lganligi uchun.

Kuchaytirgichni faza siljishi  $\varphi_y = 0^\circ$  bo'lib, UE sxemali ikki kaskad bilan amalga oshiriladi.

Bipolyar tranzistorli multivibratorlar odatda kollektor-baza aloqali simmetrik sxemadan tuziladi (5.2-rasmga qarang), sxe-

ma simmetrikligi joylashgan elementlarining bir xilligini bildiradi:  $R_{k1}=R_{k2}$ ,  $R_{b1}=R_{b2}$ ,  $C_1=C_2$  rezistorlar va kondensatorlar; tranzistorlar parametrlari bir xil.



**5.1-rasm.** Tranzistorli multivibratorning prinsipial sxemasi


Multivibrator umumiyl emitterli ikkita kuchaytirgich kaskadidan iborat bo‘lib, chiqish kuchlanishlari bazalariga uzatiladi. Keltirilgan multivibrator sxemasida *p-n-p* tipli tranzistor qo‘llanilgan. Sxemani  $E_k$  tok manbaiga ulaganda har ikkala tranzistor ochiq va kollektor toklari mavjud. Ularning ishchi nuqtalari aktiv sohada bo‘ladi, chunki,  $R_{k1}$ ,  $R_{k2}$  qarshiliklardan manfiy siljish kuchlanishi beriladi. Lekin sxemaning bunday holati noturg‘un. Sxemada musbat teskari aloqa bo‘lgani uchun  $\beta \cdot k_U \geq 1$  va ikki kaskadli kuchaytirgich o‘zi uyg‘onadi. Regeneratsiya jarayoni boshlanadi – bir tranzistorning toki tezkor ortib, ikkinchisini esa kamayadi.

$VT_1$  – tranzistorning  $I_{k1}$  – toki tranzistorning bazalari yoki kollektorlarida ixtiyoriy o‘zgarishi natijasida kamaysin desak. Bunda  $VT_1$  tranzistor kollektori manfiy  $\Delta U_{kel\pm}$  kuchlanishiga ega bo‘lmaydi.  $C_1$  – kondensatordagi kuchlanish bir onda o‘zgara olmaganligi uchun ushbu kuchlanish  $VT_2$  tranzistor bazasiga beriladi va uni ochadi.

$VT_2$  tranzistor bazasidagi potensial manfiy  $I_{k2}$  tok ortadi,  $R_{k2}$  qarshilikdagi kuchlanish pasayishi ortadi.  $\Delta U_{kel\pm}$  ortishiga ega bo‘ladi va  $\Delta U_{bel}$  ga beriladi ( $\Delta U_{kel} = \Delta U_{bel}$ ), ya’ni tok kamayadi,  $I_{k2}$  tok esa ortadi, ushbu jarayon tez kechadi va natijada  $VT_2$  tranzistor to‘yinish rejimiga,  $VT_1$  tranzistor esa qirqish rejimiga kiradi.

Sxema o‘zining vaqtinchalik biror turg‘un holatiga o‘tadi (kva-zi turg‘un holati), kvazi turg‘un holatida bo‘lishi sig‘imni qayta zaryadlash jarayoniga bog‘liq bo‘ladi.

$VT_1$  tranzistor yopiq,  $VT_2$  tranzistor ochiq deb faraz qilsak, bu holat birinchi vaqtinchalik turg‘un holat. Zaryad zanjiri  $EB_2$ ,  $C_1$ ,  $R_{k1}$ , chunki  $VT_1$  yopiq, bunda  $U_{ke1} = E_k$  avvalgi holatda  $VT_1$  ochiq va kuchlanish unda  $U_{ke1\ nas}$  edi.



**5.2-rasm.** Tranzistorli multivibratorning simmetrik sxemasi

Sig‘im  $C_1$  ni zaryadlashda  $I_{zar}$  kamayadi,  $R_{k1}$  dagi sarf kamaya-di va  $U_{ke1} = E_k$  bo‘ladi.


Vaqt  $t < 0$  momenti (avvalgi siklda) tranzistor  $VT_1$  to‘yingan  $VT_2$  – esa qirqish rejimida. Sig‘im  $C_2 E_k = U_{c2}$  gacha zaryadlan-gan.  $t = 0$  vaqtidan boshlab, sig‘im zaryadlana boshlaydi. Razryad-lanish zanjiri  $R_{b1}$ ,  $\pm E_k$ ,  $VT2_{ek}$  va  $C_2$  kondensatorda.

Kuchlanish  $U_{c2}$   $VT_2$  tranzistor oshganligidan  $VT_1$  tranzistor-ni va emitterga beriladi.

Kondensator zaryadlanganidan so‘ng sxemani uloq holda qoldirganligida edi.  $U_{c2}$  kuchlanish  $t_1$  da o‘zgaradi. Kuchlanish,  $U_{be1} = U_{c2} = 0$  tranzistor  $VT_1$  ochiladi. Tranzistor  $VT_2$  yopiladi va tranzistorni birinchi holatdan ikkinchisiga o‘tishi boshlanadi. Ushbu jarayon natijasida tranzistor  $VT_1$  ochiladi, tranzistor  $VT_2$  yopiladi. Ikkinci vaqtinchalik turg‘un holati boshlanadi.

Kondensator  $C_2$  zaryadlana boshlaydi «+», BE  $VT_1$ ,  $C_2$ ,  $R_{k2}$  zanjir bo‘yicha va «-»  $C_2$  kuchlanish  $U_{keVT_1}$  nolga erishadi. Ya’ni  $U_{ke\ nas}$  dan katta.  $t_2$  dan so‘ng jarayon takrorlanadi.

Shunday qilib, davriy ravishda bir turg'un holatdan ikkinchisi-ga o'tib, multivibrator chiqish kuchlanishini shakllantiradi. Ixtiyoriy tranzistorning kollektordan olinadigan kuchlanish deyarli to'g'ri burchakli kuchlanishga ega bo'ladi.



**5.3-rasm.** Avtotebranuvchi multivibratorordagi kuchlanishning vaqtiy diagrammalarli

### 5.3. Multivibratorning tebranish davarini hisoblash



$U_{ke}$  kuchlanishi ideal to'g'riburchakli va 0 dan  $E_k$  gacha o'zgarsin.  $t_1$  ni koordinata boshiga o'tkazamiz.  $t_1$  momentigacha  $VT1$  tranzistori yopiq,  $VT2$  esa ochiq edi,  $C_1$  sig'imi bo'lsa  $\approx E_k$  kuchlanishigacha zaryadlangandi.

$t_1$  dan keyin (yangi tizim koordinatasida 0 dan keyin)  $VT1$  tranzistori ochiladi,  $VT2$  esa yopiladi.

Multivibratorning elektr modeli bo'yicha  $t_1$  dan keyin (koordinataning eski tizimi)  $VT1$  tranzistori ochiq,  $VT2$  esa yopiq (5.4-rasmga qarang).

Bu yerda:  $R_i$  – VT1 ning qayta siljigan emitter-bazali o‘tishining qarshiligi,  $I_0$  – shu o‘tishning toki (5.4-rasm, b)

Kam quvvatli tranzistorlar uchun  $R_i$  o‘nbirlikdagi  $MOM$ ,  $I_0 \approx 0,1 \div 1mA$  ni tashkil etadi.



**5.4-rasm.** Multivibratorning elektr modeli va uning parametrlari

Modelni analiz qilib quyidagi shartlarni qabul qilish mumkin:

$$1) R_{k\text{ to'y}} \ll R_{ki};$$

$$2) I_0 \ll I_d;$$

$$3) R_i \ll R_b.$$

Unda multivibratorning sodda modeli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (5.5-rasmga qarang).

U yangi koordinata tizimida  $t=0$  ga mos keladi.

Kondensator  $C$  dagi va ixtiyoriy tranzistor bazasidagi kuchlanish eksponensial qonuniyat bilan o‘zgarib, sxemani bir turg‘un holatidan boshqa turg‘un holatiga ulab-uzish momentini aniqlaydi.  $U_{c(t)}$  ni bilgan holda sxemaning vaqtincha – turg‘un holatini hisoblash mumkin.  $U_{c(t)}$  ni aniqlash uchun birinchi darajali differensial tenglamani majburiy va erkin tashkil etuvchilarini yig‘indisi sifatida yechimi qaraladi.


$$U_c = U_{c\text{ vin}} + U_{c\text{ svob}} \cdot e^{-t/\tau},$$

$t \rightarrow \infty$  bo‘lganida kondensator  $C$  dagi kuchlanish:

$$U_c = U_{c\text{ vin}} = -E_k,$$

bundan quyidagini hosil qilamiz:

$$U_c = -E_k + U_{c\text{ svob}} \cdot e^{-\frac{t}{\tau}};$$



**5.5-rasm.** Multivibratorning soddalashtirilgan elektr modeli

$U_c$  svob kuchlanishni aniqlash uchun boshlang'ich shartdan foydalanamiz.  $t = 0$  bo'lganida kondensatordagi kuchlanish,  $U_c = +E_k$ .

$$E_k = -E_k + U_c \text{ svob}, \text{ bundan } U_c \text{ svob} = 2 \cdot E_k.$$

Bundan kelib chiqadiki, kondensatordagi kuchlanish quyida-gicha bo'ladi:

$$U_c = -E_k + 2 \cdot E_k \cdot e^{-\frac{t}{\tau}},$$

Bu yerda:  $\tau = R_b \cdot C_b$ .

$t = t_2$  bo'lganida kondensator «C» dagi kuchlanish  $U_c = -E_k$  dan 0 gacha o'zgaradi. Bunda  $t_2$  vaqtida:

$$0 = -E_k + 2 E_k \cdot e^{-t_2/\tau}.$$

$$t_2 - ni aniqlaymiz: \frac{1}{2} = e^{-t_2/\tau}; \quad t_2 = \tau \cdot \ln 2;$$

$$t_2 = 0,7 R_{b2}; \quad C_1 = 0,7 \tau_1.,$$

Shuningdek, t ni ham aniqlaymiz:  $t_1 = 0,7 R_{b1}$ ,  $C_2 = 0,7 \tau_2$ .

Simmetrik multivibratorning to'liq tebranish davrini quyida-gicha aniqlaymiz:

$$T = 2 \cdot t_u \approx 1,4 \cdot R_b \cdot C.$$

Demak, generatsiyalanuvchi  $f = \frac{1}{T} C_1 \text{va } C_2$  vaqtini belgilovchi

kondensatorlarning qayta zaryadlanishi bilan aniqlanadi. Impulsning amplitudasi  $U_m$  to‘yingan tranzistor kollektorida:

$$U_m = E_k - I_{KB0} \cdot R_k \approx E_k.$$

Impulsning old kengligi:

$$t_f = \tau_{h_{21M}} + C_k \cdot R_k,$$

*bu yerda:  $\tau_{h_{21e}}$  — umumiy emitterli sxema uchun baza bo‘yicha qo’shish o‘rtacha vaqtiga asosan tranzistorning chastota xususiyatlariga bog‘liq;*

$C_k$  — tranzistorning kollektor sig‘imi.

Orqa front kengligi kondensatorning C zaryadlanish vaqtiga bog‘liq bo‘lib quyidagicha aniqlanadi:

$$t_c \approx 3 \cdot C \cdot R_k.$$

Vaqtni belgilovchi kondensator kattaligidan  $t_c >> t_f$

Front egrilagini oshirish uchun kollektor impulsini kollektordagi kuchlanish o‘sishi tezlanishini oshirish lozim. Uning uchun  $R_k$  qiymatni kamaytirish kerak. Lekin bunday multivibratorning toki va sarflanuvchi quvvati ortadi.

$R_b$  qarshilikni tanlash:

$R_b$  qarshilik VT tranzistorning puxta to‘yinishini tayinlash kerak;

$$\begin{aligned} 3 \cdot \tau_{zar} &< t_1; & 3 \cdot C \cdot R_k &< t_1; \\ 3 \cdot C \cdot R_k &< 0,7 \cdot R_b \cdot !; & 4 \cdot R_k &< R_b; \end{aligned}$$

Bundan  $R_k < \frac{R_b}{4}$  hosil qilamiz.

#### 5.4. Multivibratorning chastotasini sozlash, termostabillash chiqish kuchlanishi shaklini yaxshilash


Simmetrik multivibrator chastotasi  $f = \frac{1}{1,4 \cdot R_b \cdot C}$ , bo‘lganligi

uchun uni kondensator doimiysi C ( $\tau_{raz}$ ) ni o‘zgartirib sozlash mumkin.

**$R_b$  qarshilikni aniqlash.** Tranzistorning to‘yinishidan hisoblanib  $R_b$  qarshilik qiymatini o‘zgartirish mumkin. Agar kondensator C o‘zgartirilsa, chastota o‘zgarishi mumkin. Agar chastotani diskret o‘zgartirish lozim bo‘lsa har bir chastota uchun ulab, uzish orqali kondensator ulanadi. Chastotani silliq o‘zgartirish uchun qo‘sishimchalar  $E_{sm}$  kuchlanish ulanib  $R_l$  o‘zgaruvchan qarshilik orqali boshqariladi (5.6-rasmga qarang). Kondensator kuchlanishigina  $E_{sm}$  qiymati bilan emas  $E_k$  qiymati bilan aniqlanadi.


Ushbu multivibratorning kondensatorning razryadlanishi avvalgi qurilgan differential tenglama bilan aniqlanadi.

Ushbu sxemada boshlang‘ich sharti  $t=0$ ,  $U_c=-E_k$  ga.



**5.6-rasm.** Chastotasi tekis boshqariluvchi multivibratorning prinsipial sxemasi

Klassik sxemada kondensatorning qayta zaryadlanishidagi o‘tkinchi e (1)  $-E_k$  kuchlanish bilan aniqlanadi, ushbu sxemada esa (2)  $-E_{sm}$  kuchlanish aniqlanadi (5.7-rasmga qarang).



**5.7-rasm.** Kondensatorning qayta zaryadlanish o‘tkinchi jarayoni

O‘tkinchi jarayonidan kelib chiqadiki  $t'_1 > t_1$ , bundan tebranish davri  $T'_1 > T_1$  va  $f'_1 > f_1$ . Demak,  $E_{sm}$  kuchlanish qanchalik kichik

bo'lsa, tebranish davri  $T$  shunchalik katta va chastota  $f$  multivibrator torda shunchalik kichik  $U_{sm}$  kuchlanishni  $-E_k$  dan  $-0,5 \cdot E_k$  ga cha bo'lishi tavsiya etiladi, bunda chastota 1,5 marotaba o'zgaradi.


### Multivibrator chastotasini termostabillash

Multivibratorning chastotasi  $E_k$  kuchlanishga ega emas, multivibratorning  $f$  chastotasi nostabilligiga sabab sxema elementlarning haroratga nostabilligidadir. Germaniyli tranzistor uchun harorat nostabilligi  $I_{k0}(t^\circ C)$  kremniyli tranzistor uchun  $I_{k0}$  shuningdek, chastota nostabilligi ham 1–2 barobar kichik, shuning uchun chastota nostabilligi asosan elementlarning harorat nostabilligi bilan  $C(t^\circ C)$ ,  $R(t^\circ C)$  aniqlanadi.


Kondensator razryadi  $C$  sxemasi  $Si$  – tranzistori uchun quyidagi (3.8-rasm) ko'rinishda bo'ladi. Agarda  $I_{k0}$  hisobga olinmasa germaniyli tranzistorlar uchun  $I_{k0}$  ni inobatga olmasa bo'lmaydi. Va sxema 3.9-rasmdagidek bo'ladi.

Bunda kondensatordan  $I_c = I_p + I_{k0}(t)$ .

$I_k$  tok haroratga bog'liqligidan (eksponensial qonun)  
 $I_A = \psi(t^\circ) \Rightarrow U_A = \varphi(t^\circ)$ .




**5.8-rasm.** Kremniyli tranzistorlar uchun kondensatorning razryadlash sxemasi



**5.9-rasm.** Germaniyli tranzistorlar uchun kondensatorning razryadlash sxemasi


$U_c(t^\circ)$  bo'lganidan multivibrator tebranish davri va chastotasi haroratga bog'liq  $T_{koleb} = \xi(t^\circ) f_{koleb} = F(t^\circ)$ . Demak, chastota nosta-

billigining asosiy sababi germaniyli tranzistorda B-K yopiq tranzistorda. Ushbu kamchilikni oldini olish uchun baza kollektor ni kondensator razryadlanishi vaqtida uzib  $R_b$ , qarshilikdan uning uchun sxemaga uzuvchi diod kiritiladi. Uning  $I_{k0}$  toki ikki barobar kichik bo'lishi lozim, tranzistornikiga nisbatan ushbu maqsadda maxsus yuksak chastota (YCh) diodlari (impulslari) qo'llaniladi va uning prinsipial sxemasini quyidagi ko'rinishda bo'ladi (5.10-rasm).



**5.10-rasm.** Chegaralovchi diodli termal stabillovchi avtotebranuvchi multivibratorning prinsipial sxemasini

$VD1$  va  $VD2$  diodlar  $VT1$  va  $VT2$  tranzistorlarni razryad zanjiridan uzish uchun  $R1$  va  $R2$  qarshiliklar esa tranzistor bazasida nol potensial hosil qilish uchun xizmat qiladi ( $R1 \approx R2 \approx (3 \div 5) R_{VT}$ ). Ushbu sxema modeli 5.11-rasmida keltirilgan.



**5.11-rasm.** Chegaralovchi diodli avtotebratgichli multivibrator prinsipial sxemasining modeli

$I_{k0VD} \ll I_{k0VT}$  shuning uchun yuksak chastota diodli qo'l-lanilgan ushbu sxemada chastota nostabilligi  $\frac{\Delta f}{f}$  undan bir foiz chamasida bo'ladi.

Ge tranzistorlar uchun chegaralovchi diodlarsiz 10%,  $\frac{\Delta f}{f}$  Si tranzistorlar uchun esa 1–3% tashkil etadi.

Chiqish impulsi oldi frontini yaxshilash uchun  $C1$  va  $C2$  da-gi zaryadni qo'shishga qo'shimcha qarshiliklar  $R1$  va  $R2$  orqali hamda  $VD1$ ,  $VD2$  yordamida amalga oshiriladi (5.12-rasm).

C kondensatorni zaryadlash  $+E_k \rightarrow R1 \rightarrow C1 \rightarrow BE_{nasVT}$


Zanjirlar orqali bunda qarshilikdan tok oqmaydi.

Kondensator razryad zanjiriga diodi ta'sir qilmaydi, chun-ki u o'tkazuvchi yo'naliishiga ulangan va kondensator razryadini  $+U_{c1} \rightarrow VD1 \rightarrow VT1 \rightarrow -E_k \rightarrow +E_k \rightarrow R_{b2}$  zanjir orqali ta'minlaydi.

Multivibratorning universal sxemasi quyidagi elementlarga ega bo'lish lozim:

- termostabillash;
- impuls old frontini yaxshilash;
- chastotani tekis boshqarish.

Bunday multivibratorlar integral sxema seriyalari 119GF2 va 218GF2 bajariladi, 119-seriya yarim o'tkazgichli (monolit) IS, 218 seriya gibriddi. Integral sxemadagi multivibratorlar qo'shimcha kondensatorlar va qarshiliklarni chastotani boshqarish uchun ularshga chiqish nuqtalari mavjud.



**5.12-rasm.** Tranzistorli multivibratorning chiqish kuchlanishi formasi yaxshilangan sxemasi

## 5.5. Tranzistorli bir vibrator, ishlash prinsipi, ossilogammalar

Kutish rejimidagi multivibratorni bir vibrator deyiladi. Funktsional belgisiga qarab, bir vibratorga boshqacha nom ham beriladi: tushuncha tizim, tormozlangan multivibrator, bir taktli relaksator kipp-rele va boshqalar. Lekin nomidan qat'i nazar bir vibrator musbat teskari aloqali to'g'riburchakli impuls shakllantiruvchi bitta turg'un va bitta vaqtli turg'un holatga ega impuls.


Uyg'otuvchi impuls kelishi bilan, bir vibratorda to'g'ri burchakli impuls shakllanadi, qaysiki bir vibratordi turg'un holatida vaqtinchalik turg'un holatiga o'tkazadi. Vaqtinchalik turg'un holatini vaqtini, vaqt belgilovchi zanjir aniqlaydi. Vaqt doimiysi zanjirining o'zgartirib, impuls kengligini keng oraliqda o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ham, berilgan kenglikka va amplitudaga ega bo'lган va impulsni berilgan vaqt birligiga kechiktirish uchun keng qo'llaniladi.

Avtotebranishning multivibratorordan bir vibratordi hosil qilish mumkin, agarda uni vaqtinchalik turg'un holatida yopiq ushlab, uni turg'un holiga aylantirilsa, emitterli, aloqali (5.13-rasmga qarang). Bir vibrator quyidagicha qo'llaniladi. Sxema ikki kaskadli, tranzistorli kuchaytirgichdan iborat bo'lib, kaskadlararo aloqa  $C$ , kondensator yordamida, boshqasi emitter qarshiligi  $R_e$  umumiy qarshilik bilan amalga oshiriladi.

Turg'un holatida  $VT1$  tranzistor yopiq,  $VT2$  esa ochiq va u to'yingan rejimda bo'ladi, shuning uchun  $R_b$  qarshilik quyidagi-cha tanlanadi:  $R_b \leq h_{21}$ ,  $\cdot R_{k2}$  va bunda  $VT2$  baza toki tranzistorni to'yintirishga yetarli bo'ladi.  $VT2$  tranzistorining emitter toki hisobiga  $R_e$  umumiy qarshilikda kuchlanish  $U_e = I_{e2} \cdot R_e$  pasayishi, 5.13-rasmida belgilanganidek hosil bo'ladi,  $VT1$  yopiq va  $I_{k1} = 0$ . kuchlanish bo'lувchining pastki yelkasida  $R1 - R2$  kuchlanish pasayishi  $U_{R2}$  bo'ladi. Quyidagida  $|U_e| > |U_{R2}|$   $VT1$  tranzistor bazasiga emitterga nisbatan musbat kuchlanish  $U_{be1}$ , beriladi, qaysiki uni yopadi. Bunda  $C$  kondensator kuchlanishgacha  $U_c \approx E_k - U_e$  zaryadlanadi (agarda  $U_{be2}$ ) hisobga olinmasa  $C$  kondensator zaryadlanishi quyidagi zanjirlarda amalga oshiriladi.

Tok manbai  $+E_k$  orqali  $R_e$  qarshiligi  $VT_2$  va tranzistorning emitter baza oralig'i,  $C1 R_{k1}$  qarshiligi orqali va tok manbai  $-E_k$  ga.

5.14-rasmda bir vibrаторning vaqt diagrammalari keltirilgan. Bir vibratorni kirish qismiga  $t_1$  vaqt birligida manfiy qutbli uyg'otuvchi impulsni, tranzistorni yopadigan kuchlanishdan ortiqroq amplitudada  $|U_{vx}| > |U_{be1}|$  berilsa,  $VT_1$  tranzistor ochila boshlaydi va uning kollektorida qandaydir musbat ortishni hosil qiladi.



5.13-rasm. Bir vibrаторning prinsipial sxemasi


Kondensator  $C$  da kuchlanish birdaniga o'zgarmasligi uchun, bu musbat kuchlanish  $VT_2$  tranzistorining bazasiga beriladi va uni yopadi. Bunda  $I_{e2}$  tok va  $R_e$  qarshiligidagi kuchlanish pasayishi kamayadi,  $I_e$  toki kamayishi hisobiga va buning natijasida  $VT_1$  tranzistorining ochilishiga olib keladi. Ushbu regenerativ jarayon tojsimon ortib,  $VT_2$  tranzistorini to'liq yopish bilan tugallanadi. Kollektor kuchlanishi manba kuchlanishi  $E_k$  gacha kamayadi va  $VT_1$  to'ynish holiga keladi.  $VT_2$  tranzistorining yopiq holati  $C$  kondensator kuchlanishi bilan ta'minlanadi, chunki chap plastinasi endi IVT<sub>1</sub> to'yingan tranzistor orqali  $VT_2$  tranzistori emitteriga ulanadi va  $U_{be2} \approx U_c > 0$ .

Bir vibrаторning bunday holati vaqtiy turg'un bo'lib, endi kondensator  $C$  quyidagi zanjir orqali qayta zaryadlanadi: tok manbai  $+E_k$  orqali  $R_e$  qarshilik va  $VT_1$  tranzistorning emitter-kollektor orqali, kondensator  $C$ ,  $R_{b2}$  qarshilik orqali va manbai  $-E_k$  va

undagi kuchlanish, natijada  $VT2$  tranzistor bazasida kuchlanish pasayadi.  $t_2$  vaqt birligida bu kuchlanish nol holga erishsa,  $VT2$  tranzistor ochiladi va sxemada o'tkazish regenerativ jarayoni vujudga keladi. Natijada bir vibrator avvalgi boshlang'ich turg'un holatiga qaytadi.

$VT2$  tranzistorning kollektororida impuls kengligi shakllanishi, uyg'otuvchi impuls berilishidan, to vaqtinchalik turg'un holati tu-gashigacha, multivibrator avtotebranish holidagidek bo'ladi.

$$t_u = 0,7 \cdot R_b \cdot C.$$



**5.14-rasm.** Bir vibrаторning kuchlanish vaqt diagrammasi

Bir vibratori qayta tiklanish vaqtı:

$$t_b \approx 3 \cdot \tau_{zar} \approx 3 \cdot C \cdot (R_{kI} + R_e).$$

Bir vibratori normal ishlashi uchun uyg'otuvchi impuls takrorlanish davri quyidagicha bo'lishi lozim:

$$T \geq t_u + t_v.$$

Bir vibrаторning chiqish qismidagi impuls amplitudasining qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$U = \frac{E_k \cdot R_{k2}}{R_{k2} + R_e}.$$

Bir vibrаторning bipolar tranzistorlardagi boshqa turlari tranzistorni yopish va ishslash mexanizmi qurib chiqilganidek. Bir-vibratorning kirish va chiqish qismlari musbat teskari aloqaga bog'liq emasligi uchun, uyg'otish va yuklama ulanish o'tkinchi jarayonning katta-kichikligiga ta'sir etmaydi.

## VI. POTENSIAL MANTIQIY ELEMENT


### 6.1. Potensial mantiqiy elementlar (PME) turlari, tasniflari va parametrlari

Hozirgi vaqtida integral sxemalarni (IS) ishlab chiqishdagi mantiqiy elementlar ko‘p tarqalgan:


- tranzistor-tranzistorli mantiq (TTM);
- emitterli-bog‘langan mantiq (EBM);
- integral-injektorli mantiq (I2L);
- diod-tranzistorli mantiq (DTM);
- bir turli maydon tranzistorli mantiq (n-MOP va p-MOP);
- komplimentar maydon tranzistorli mantiq.

Hozirgi kunda IS keng tarqalgani TTM va uning turlari ushbu turdagи integral sxemalar o‘rtacha tezlikka ega ( $F_{max} = 20 \dots 50 MGs$ ) va o‘rtacha quvvat sarfiga ega.


6.1–6.7-rasmlarda potensial mantiq elementlarining belgilanshi va bajarish funksiyalari keltirilgan.




**6.1-rasm.** Invertor  $y = \bar{x}$




**6.2-rasm.** Takrorlagich  $y = x$




**6.3-rasm.**  $y = x_1 + x_2 = (x_1 \vee x_2)$  **6.4-rasm.**  $y = \overline{\overline{x_1 + x_2}} = \overline{(x_1 \vee x_2)}$





**6.5-rasm.**  $y = x_1 \cdot x_2 = (x_1 \wedge x_2)$  **6.6-rasm.**  $y = \overline{x_1 \cdot x_2} = \overline{(x_1 \wedge x_2)}$




**4.7-rasm.** mod2 bo'yicha summator  $y = x_1 \cdot x_2 \vee x_3 \cdot x_4$

### TTM tipli mantiqiy element

Mantiqiy elementlarni musbat (n-p-n tipli tranzistor) va manfiy (p-n-p tipli tranzistor) turlari bo'ladi. Musbat «1» mantiq nisbatan katta, mantiqiy «0» kuchlanish yoki tokni kichik qiymati. Manfiy mantiqda esa aksincha elektr signalining mantiqiy «0» katta qiymati, kichigi esa mantiqiy «1» ga tegishli bo'ladi. Ushbu tarif ixtiyoriy qutbdagi kuchlanish yoki tok yo'naliishiga o'rinli bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, agarda mantiqiy qurilma musbat mantiqli bo'lib «И» operatsiyasini bajarsa, manfiy mantiqda bu «ИЛИ» operatsiyasini bajaradi va aksincha.


6.8-rasmida musbat mantiqda mantiq «0» va «1» larning potensial uslubda berilishi tasvirlangan.

6.8-rasmida manfiy mantiqda mantiq «0» va «1» larning potensial uslubda berilishi tasvirlangan.



**6.8-rasm.** Musbat mantiqiy ko‘rinishi:

$E'$  – mantiqiy «0» daraja;  $E''$  – mantiqiy «1» daraja;  $|E''| > |E'|$ .




**6.9-rasm.** Manfiy mantiqning darajasi:

$E'$  – mantiq «1» darajasi;  $E''$  – mantiq «0»; ko‘rinishi  $|E''| < |E'|$ .

Potensial mantiqiy element (PME)ning dinamik tasnifi  
6.10-rasmida tasvirlangan.

PME vaqt utilishi impulsning  $t_{z1}$  old utilishi  $t_{z2}$  orqa utilishi frontlariga bog‘liq bo‘lib  $t_z = \frac{t_{z1} + t_{z2}}{2}$  tenglamadan aniqlanadi va u  $10 \div 100 \text{ ns}$  ga teng.

ME ni yukka chidamliligi uning bir nechta manbadan informatsiya olib, bir vaqtning o‘zida boshqa elementlarga informatsiya manbai bo‘lib xizmat qilishidir. Yukka chidamliligini son ko‘rsatkichlarini xarakterlash uchun ME da ikkita koeffitsient qo‘llaniladi: m—shoxobchalanish va n—birlashish koeffitsientlari.



**6.10-rasm.** PME dinamik tasnifi

1) m-shoxobchalanish koeffitsienti berilgan seriya elementlari uchun kirish sonlari, qaysiki elementni chiqishiga ulashga ruxsat etilgan  $m=(5\div 10)$ . Elementning yukka chidamliligi, uning chiqish qarshiligi ( $R_{vix}$ ) ga bog‘liq;

2) n-birlashish koeffitsienti ushbu mantiqiy elementning kirish soni bilan xarakterlanadi (ikki va undan ortiq).

PME ni statik tasnifi bo‘lib unda:

- 1)  $I_{vx} = \psi(U_{vx})$  – elementning kirish tasnifi, mantiqiy element, qarshiligi bilan xarakterlanadi.  $R_{vx}$  - qarshiligi, past va yuqori signal darajasida turlicha bo'ladi, odatda katta signal darajasida  $R_{vx}$  katta bo'ladi. Yuklama chiqish tasnifi (6.11-rasmga qarang);
- 2)  $U_{vix} = \zeta(I_{vix})$  – uning og'ish burchagi ME ni chiqish qarshiligi bilan aniqlanadi;



**6.11-rasm.** ME yuklama tasnifi

- 3)  $U_{vix} = \varphi(U_{vx})$  – MEning o'tkinchi yoki amplitudali uzatish tasnifi. 6.12-rasmida musbat mantiqli TTL tipdag'i invertirlovchi PME amplitudali uzatish tasnifi, 4.13-rasmida esa noinvertirlovchi PME uchun keltirilgan.


Mantiqiy «1»  $E''_{\min}$  dan  $E''$  gacha darajaga mos keladi.

Mantiqiy «0»  $E''$  dan  $E''_{\max}$  gacha darajaga mos keladi.

AB – qismi kalitni qirqish zonasiga mos keladi, CD –qismi esa to'yinish, BC – esa o'tish sohasiga (aktiv rejimi,  $k_u \gg I$ ). BC qismi qanchalik tik bo'lsa, mantiqiy element sifati shuncha yuqori bo'ladi.

$U_{n0}$  kirishda nol bo'sag'a darajasi signalning maksimal mumkin bo'lgan ( $U_{kir} > U_{n0}$ ), qiymati bilan xarakterlanadi. Bo'sag'a darajasi «1» esa –  $U_{n1}$  minimal kirish signali ( $U_{kir} > U_{n1}$ ) qiymati bilan xarakterlanadi.


ME xalaqitga qarshiligi «0» uzatilishida uning kirish qismida  $\Delta U_{n0}$  eng yomon holatni e'tiborga olib quyidagicha aniqlanadi:  $\Delta U_{n0} = U_{n0} - E'_{\max}$ , bu yerda:  $E'_{\max}$  ushbu seriya elementi uchun maksimal «0» daraja.



**6.12-rasm.** PME TTL tipdagiga musbat mantiqli amplitudalni uzatish tasnifi

ME xalaqitga qarshiligi «1» uzatilishida quyidagicha aniqlanadi:  $\Delta U_{n1} = -E''_{\min} - U_{n1}$  (6.14-rasmga qarang).


ME xalaqitga qarshiligi ME ning kirish qismida mumkin bo'lgan maksimal additiv xalaqitni aniqlaydi, qaysiki elementni boshqa holatga o'tkazmaydi. Xalaqitga qarshi chidamlilik  $\Delta U_{n0}$  va  $\Delta U_{n1}$  turlichcha bo'lib, TTL ME lar uchun 1V gacha qiymatda bo'ladi.



**6.13-rasm.** TTL tipdagiga musbat mantiqli noinvertirlovchi amplitudalni uzatish tasnifi

Xalaqitga qarshilik zaxirasini oshirish uchun tranzistorning parametri oshiriladi,  $h_{21}$  tranzistorning  $\beta(h_{21})$  parametri katta bo'lgani sari uning tasnifi tikligi ortadi. D – chaproqqa, C – o'ngroqqa joylashadi. Bundan esa xalaqitga qarshi zaxirasi «0», uzatilishda va shuningdek «1» uzatilishda ortadi.

ME lar tezkorligi IS TTL seriyalarida asosan bipolyar tranzistorning xususiyati va yuklamasiga bog'liq bo'ladi. Yuklama parametriga bog'liq bo'lgan tezkorligi ME ning konkret sxemasiga va konstruktiv tuzilishiga ham bog'liqdir. ME ning chastota xususiyatiga bog'liq bo'lgan tezkorligi elementning ish rejimini va sxema texnikasini o'zgartirib amalga oshirishi mumkin. Tranzistorli kalitlarning tezkorligi bipolyar tranzistorli, kollektor sig'imi va vaqt surilishi qayta zaryadlanishdandir.



**6.14 rasm.** ME larning xalaqitga qarshiligi

Ushbu parametrlari tranzistorning tayyorlanish texnologiyalari va uning kalit rejimida ishlashga bog'liq. Xususan ulab uzishni vaqtini qisqartirish uchun kollektordagi yuklamani kamaytirish hisobiga erishish mumkin.

PME larda XDM larda ishlab chiqarilganlardan qo'l-laniladiganlari

K155, K154 – bazali element sifatida;

K156 – maydon tranzistorlari.

Misol uchun: K155LB1

K155 – ME seriyasi;

M – mantiqiy element turlari;

B – ushbu xili guruh xarakteri;

I – moslashish sxema seriyasi («И»);

N – inkor elementi;

S – &; 1, sxema seriyasi («И»);

R – &; &-ne, yo'q sxema seriyasi «И», И-НЕ;

P – boshqa elementlar;

1 – ushbu sinf ishlab chiqarilgan nomeri.

Mantiqiy elementlar uch turga bo'linadi:

1) potensial (galvanik) aloqali elementlarda sig'imsiz;

2) impulsli aloqali kondensator  $C$  yoki impulsli transformatorli;

3) potensial-impulsli birinchi va ikkinchi turdagи aloqa bo'lishi mumkin.

## 6.2. Diodli mantiq. Mantiq «И»


6.15-rasmda oddiy «И» mantiqiy elementning prinsipial sxemasini va haqiqiylik jadvali tasvirlangan, agarda aqallli kirish qismida musbat past darajali kuchlanish bo'lsa shartli nol deb olingan bunda diod katodi ushbu kirish bilan bog'liq darajaning anoni-dagi kuchlanish ochiq. Natijada qurilmaning chiqish qismida nol. Agarda sxemaning hamma kirishida yuqori darajali (birlik) kuchlanish bo'lsa, bunda chiqish signali birga teng.

6.16-rasmda elektr kuchlanishi ko'rinishdagi  $x_1$  va  $x_2$  mantiqiy o'zgaruvchanli dizyunksiya operatsiyasi 6.15-rasm «И» turda-

gi DM haqqoniylik jadvali bilan bajarilishi tasvirlangan. Birlik darjası deganda musbat yuqori potensial tushuniladi. Agar biror-bir kirish qismida birlik daraja bo'lsa, VD1 (VD2) ochiq diod orqali ushbu kuchlanish chiqish qismiga bir birlik kuchlanishni hosil qiladi.

EYK ( $R_{vn}$ ) manbaining ichki qarshiligiga sezgir bo'lganligidan mantiqiy «0» va «1» darajalar nostabil bo'ladi.

Ushlanish vaqtasi  $t_{zad} \approx 10\text{ns}$ ;




6.15-rasm. «ИЛИ» (YOKI) mantiq

6.1-jadval

#### Haqqoniylik jadvali

$\text{kir}_1$	$\text{kir}_2$	chiq
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	0



**6.16-rasm.** «ИЛИ» (YOKI) turdagи diodli mantiq

*6.2-jadval*

#### Haqqoniylik jadvali

kir <sub>1</sub>	kir <sub>2</sub>	chiq
1	1	1
1	0	1
1	1	1
0	0	0

Aytib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun DTM (diodli-tranzistorli mantiq) sxemasi ishlab chiqilgan.

### 6.3. Diodli-tranzistorli mantiq DTM (DTL)


Bunday qurilmaning sxemasi 6.17-rasmda keltirilgan. Ushbu qurilmada diodlar VD<sub>1</sub> va VD<sub>2</sub> ( $R_1$  – qarshilik bilan) mantiqiy «И» operatsiyasini bajaradi, tranzistor VT<sub>1</sub> invertor sxemasida ishlaydi va «HE» yo‘q operatsiyasini bajaradi, VD<sub>sm1</sub> va VD<sub>smn</sub> diodlar kalitini ochish bo‘sag‘asini oshiradi, u VT<sub>1</sub> tranzistorida yig‘ilgan sxemaning afzalliklari:

Sxema mantiqiy «0» va «1»larda yuqori stabillikni xarakterlaydi.

Sxema ichki  $R_{ich}$  qarshilikka ham bog'liq.

Ushbu «И-НЕ» va yo'q chiqish qarshiligi mantiqiy «0» da VT tranzistorning  $r_{kto'y}$  kichik mantiqiy «1» chiqish qarshiligi  $R_k$ .

Ko'rib chiqilgan «И-НЕ» elementlari integral yo'li bilan ham bajarilishi mumkin.



**6.17-rasm.** DTM elementining prinsipial sxemasi


$$U_{man} = 5B; P_{pot} = 20 \div 50 \text{mVt}; t_{zad} = 10 \text{hc}; \Gamma_m = 1 \div 165B.$$

#### 6.4. Tranzistor-tranzistorli mantiq (TTM)

6.18-rasmda TTL elementining bir qator yarim o'tkazgichli raqamli qurilmalar uchun integral mitti sxemaning asosi bo'lishi sxemasi keltirilgan. Ushbu sxemada  $VT_1$  ko'p imitterli tranzistor quo'llanilgan. Agarda hech bo'limganda emitter-baza o'tishidan birontasi to'g'ri ulangan holda bo'lsa,  $VT_1$  ko'p imitterli tranzistorning kollektor o'tishi teskari yo'nalishga siljiydi. Kirish o'tkazuvchanligi bo'limganligida baza-kollektor o'tkazuvchanligi to'g'ri yo'nalishda ulanadi. 6.18-rasmda  $vx_1$ ,  $vx_2$  va  $vx_3$  kirishlarida «1» darajali mantiq (3.5 voltga qarshi signali) mavjud deylik.

Ushbu kirish darajasida baza-kollektor o'tkazuvchanligi  $R_I$  qarshilik orqali to'g'ri yo'llangan va  $VT_1$  tranzistorining kollektori o'tkazuvchanligida tok quyidagi zanjirlar orqali oqadi. Tok manbai  $qE$  qarshilik  $R_I$ , orqali baza-kollektor o'tkazuvchanligi tran-

zistor  $VT_1$ ,  $VT_2$  baza-emitter o'tkazuvchanligi va  $VT_4$  baza-emitter o'tkazuvchanligi. Ushbu zanjirga tegishli to'g'ri yo'nalishda ulangan.  $VT_1$  tranzistorning emitter-baza o'tkazuvchanligi teskarri yo'nalishda siljigan.  $VT_1$  tranzistori rejimi invers rejimida  $VT_2$  va  $VT_4$  to'yingan rejimida.  $VT_2$  potensiali bo'lganidan  $VT_3$  yopilishini ta'minlaydi. Demak,  $VT_3$  yopiq (qirqish rejimi),  $VT_4$  ochig'i to'yingan, demak sxema chiqishida past potensial ta'minlanadi («0» daraja).



6.18-rasm.

Kirish signallarining boshqacha qiymatlarida, masalan, biron-tasi past darajali kuchlanish bo'lsa mantiq «0» daraja (taxminan  $0,3 \text{ V}$ ), bunda emitter-baza o'tkazuvchanligi kirishiga mos holda to'g'ri yo'nalishda siljiydi, ushbu o'tkazuvchanligidagi tok, tok manbai  $qE$ , qarshilik  $R_j$ , emitter-baza o'tkazuvchanligi kirish signali manbai orqali oqadi. O'tkazuvchanlikda kuchlanish to'g'ri yo'nalishda siljib  $0,6 \text{ V}$  ga yaqin bo'ladi.  $VT_1$  tranzistor bazasidagi kuchlanish korpusga nisbatan  $0,9 \text{ V}$  ( $U'_b = U_{\text{kir}} + U_{\text{be}} = 0,3 + 0,6 = 0,9 \text{ V}$ ).

Ko'p emitterli tranzistorning kollektoridagi kuchlanish  $U'_b$  dan kichik, ya'ni kollektor o'tkazuvchanligi  $U_{kb}$ , kuchlanishi taxminan  $0,4 \text{ V}$  ga va u  $0,5 \text{ V}$  bo'ladi. Ushbu qirqish kuchlanishi  $e_{ob2}$  va  $e_{ob4}$  kuchlanishlar summasidan kichik. O'chirilgan  $VT_2$ , tranzistorning kirish qarshiligi  $VT_1$ , ko'p emitterli tranzistorning kollektor yuklamasi juda katta.  $VT_2$  yopiq tranzistorning kichik toki

$I_{ko2}$  kichik tok bo'ladi. Ushbu tok  $VT_1$  tranzistorning kollektor toki bo'ladi. Demak,  $VT_1$  tranzistori sezilarli baza tokiga ega bo'lib baza-emitter ochiq o'tkazuvchanlikdan oqib,  $I_{ko2}$ , kichik kollektor toki baza va kollektor toklari bunday  $VT_1$  tranzistorlar tokida to'yingan bo'ladi. Uning kollektor o'tishi teskari yo'nalishga siljigan. Ochiq kirish o'tishidan oqayotgan emitter-bazali tok baza toki  $I'_b = (E - U'_b) / R_1$  va kollektor  $I_{ko2}$  toklaridan tashkil topadi. Emitter tok qiymati kirish qismida mantiqiy «0» kuchlanish darajasi bo'lganiga mos keladi,  $VT_1$  tranzistorining qolgan emitterlari invers rejimida ishlaydi va toki kichik bo'ladi.

Shunday qilib, mantiqi «0» darajali kuchlanishga mos keladigan hech bo'limganda  $VT_2$  kirish qismi yopiq.  $VT_2$  kollektor potensiali  $qE$  ga yaqin bo'lib  $VT_3$  ni ochadi va to'yintiradi. Bunda  $VT_4$  yopiq, chunki baza potensiali nolga yaqin. Sxema chiqish kuchlanishidagi kuchlanish  $3,5V$  atrofida (mantiqiy «1» daraja), chunki  $qE$   $VT_3$  to'yingan tranzistor orqali va  $VD_1$  diodi to'g'ri ulangan. Diodlar  $VD_2 - VD_4$  mikrosxemada balki kirish impulslardan himoyalash funksiyasini bajaradi. Signalni o'zgartirish «I-NE», mantiqiy operatsiyaga mos kelib,  $VT_1$  ko'p emitterli tranzistor kaskadida bajarilgan «I» operatsiya esa invertor bo'lib,  $VT_2$ ,  $VT_3$  va  $VT_4$  («NE» operatsiyasi) tranzistorlarda yig'ilgan.

«I-NE» sxemalar parametrlari K155 seriya uchun:  $U^0 \approx 0,2 \div 0,3B$ ;  $U^1 \approx 3,5 \div 4B$ ;  $I_{vx}^0 = 0,3mA$ ;  $I_{vx}^1 = mA$ ;  $P_{pot} = 70mVt$ ;

$$t_{vkl} = 20 \text{ ns.}$$

## 6.5. MOP va KMOP strukturali mantiqiy elementlar

Himoyalangan va zatvorli maydon tranzistorlari paydo bo'lishi va keng qo'llanilishi natijasida kelgusi porloq mantiqiy elementlar oilasiga asos solindi.

MDP mantiq asosida, MOP mantiq (MOPTL), MOP tranzistorlarda sxemalar yaratildi. Ularda mantiq nol ochiq tranzistor kuchlanishi  $0,05 - 0,15$  V bipolyar to'yingan tranzistorlar kabi maydon tranzistorlarda kichik mantiqiy bir birlik kuchlanish

sifatida stok-istok yopiq tranzistorning sxema tok manbaiga yaqin kuchlanishi qabul qilinadi. Shunday qilib, mantiqiy kuchlanish farqi tok manbai kuchlanishiga yaqin.

Nol va bir zanjirlar orasidagi farq bipolyar mantiq elementida xalaqitga qarshi bardoshligi sezilarli ortiq bo'lib, DTL, TTL va ayniqsa ESTL, NSTL va I2L lar uchun MOP mantiqiy, yana bir afzalligi uning kirish (zatvorli) zanjiri amalda tok sarflamaydi. Kirish zanjirning keyingi zanjirga (yuklama) elementiga ulanishi, ushbu yacheyskaning kirish sig'imi ortishiga olib keladi. Lekin aynan ushbu afzalligi – kirish zanjirining katta qarshilikka egaligi parazit sig'implarni zaryad va razryadlashni uzoqroq bo'lishi MOP-mantiqining ESTL, TTL ga nisbatan tezkorligi kamligining sababidir.


6.19-a, b rasmlarda ИЛИ-НЕ va И-НЕ, yacheyskalarni MOP-tranzistorlarda indutsirlangan n-kanali tasvirlangan. Bu yerda T3 tranzistorli dinamik yuklama vazifasini bajaradi. 6.19-rasmida T1 va T2 tranzistorlar parallel ulangan, shuning uchun ularning har biridan mantiqiy birini yoyish mantiqiy nolga kirishni kamaytiradi, ya'ni sxema ИЛИ-НЕ operatsiyasini bajaradi.

6.19-b rasmdagi mantiqiy sxemada zanjirdagi tok va chiqish kuchlanishi kichik darajasi tranzistorni faqatgina tranzistorlarni (ushbu holda har ikkalasini) hammasini yopib bo'lganidagina bo'ladi. Ushbu holat mantiqiy bir birlikka mos keluvchi yuqori darajadagi kuchlanishni bir vaqtning o'zida hamma kirishlarga beriladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ushbu sxema И-НЕ funksiyasini bajaradi.

Sezilarli energiya sarfi bo'lganidan dinamik yuklamaning MOP-mantiq ko'p qo'llaniladi, kapimentar tranzistorli (KM-OPTL) MOP-tranzistorli mantiqning asosiy afzalligi uning chiqish kuchlanishi o'zgarishi tok o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi va nolga yaqin bo'ladi. 6.19-d, e rasmda o'n ikki xil tipik mantiqiy element sxemasi tasvirlangan bo'lib ulardan KMOPTL strukturasida bir turli tranzistorlar parallel ulanganligi boshqa tipdagisi bilan ketma-ket ulangan: Mantiqiy funksiyani boshqaruvchi T1 va T2 «ostki qavat» tranzistorlarining ulanishi bilan aniqlanadi. Ko'rileyotgan sxemada n-kanalli tranzistorlardan iborat. Agarda tok manbai qutbini o'zgartirsak «ostki qavatda» tranzistorlar p-kanalli bo'ladi.

6.19 d-rasmda har ikkala mantiqiy kirishga  $x_1 q x_2 q O'z-iq_0$  kuchlanish berilgan bo'lsin. Bunda n-kanalli T1 va T2 tranzistorlarda ular yopiq holatda bo'lganligidan kanal hosil bo'lmaydi. p-kanalli T3 va T4, tranzistorlarda esa aksiga  $O'z-i \approx E_0$  bo'sag'a kuchlanishidan (ortiq moduli) bo'yicha bo'lib kanal hosil bo'ladi. Kanallar orqali T1 va T2 tranzistorlardan kichik toklar oqqanidan kanaldagi kuchlanish pasayishi ham juda kichik bo'ladi. Shuning uchun chiqish kuchlanishi tok manbai kuchlanishiga teng bo'ladi, bu esa ( $o'q_1$ ) bir birlikni tashkil etadi.

$x_1$  va  $x_2$  kirish qismlariga  $U_{z-i} q E_0$ , potensial berilsa T1 (T2) tranzistorda kanal hosil bo'ladi, T3(T4) tranzistorida esa kanal yo'qolib, tranzistor yopiq bo'ladi. T3 (T4) tranzistordagi kichik qoldiq tok T1 (T2) kanal orqali oqadi va unda nol ( $u_{q0}$ ) darajali kuchlanish pasayishi hosil bo'ladi.



6.19-rasm.

KMOPTL ning MOPTL ga nisbatan yuqori iqtisodiyotligiga nisbatan afzalligi kichikligi kuchlanishiga egaligi va nisbatan tezkorligi bilan farqlanadi. 6.19 e-rasmdagi sxema yuqorida aytilgan xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

## VII. POTENSIAL MANTIQNI ELEMENTLARGA ASOSLANGAN RELAKSATSION GENERATORLAR

### 7.1. Potensial mantiqiy elementlar asosidagi multivibratorlar

Tranzistorda tuzilgan multivibratorlarda chastota va tebranishlar davrini aniqlovchi o'tkinchi jarayonlar, operatsion kuchaytirgichlarda, mantiqiy elementlarda o'xshashdir. Ular struktura jihatdan ham quyidagi sxema bo'yicha: ikki tranzistor umumiy emitterli sxemada yoki 2LE man etish И-НЕ, ИЛИ-НЕ lar ketma-ket ulanadi. Multivibrator ikki turg'un holatga ega: birinchi ME (mikrosxema) yopiq, boshqasi ochiq va aksincha. Multivibrator chastotasini RC vaqt belgilovchi zanjir parametrlari aniqlaydi.

Multivibratorlar quyidagi rejimlarda ishlashi mumkin:

- avtogeneratedatorli;
- kutuvchi;
- sinxronizatsiya rejimi multivibrator ishlashida sinxronizatsiyalash tashqi generator orqali.

Potensial mantiqiy elementlardan ИЛИ-НЕ, И-НЕ lar multivibratorlarni qurishda qo'llanilishi mumkin, quyi kirishli elementlardagi ishlatilmaydigan kirish qismlari birlashtiriladi, lekin bunda kirish sig'imi ortadi va kirish qarshiligi kamayadi. Yoki ularni И-НЕ elementi uchun ulanadi. qEp ИЛИ-НЕ elementi uchun esa Ep (umumiy shinaga) ulanadi.

7.1-rasmda И-НЕ elementlaridan tuzilgan multivibratorning prinsipal sxemasi keltirilgan. Impulsnii vaqtiy shakllanishi va pauzasini vaqt doimiysi bilan kondensator orqali aniqlanadi  
 $\tau_{zar1} = C1 \cdot RI$  ( $\tau_{zar2} = C2 \cdot R2$ ), tezlatgich diodi orqali razryadlanadi  
 $\tau_{zar1} = C1 \cdot r_{VD1}$  ( $\tau_{zar2} = C2 \cdot r_{VD2}$ ).


C1:C1 kondensatorining zaryad zanjirini ko'raylik DD2 element mantiqiy bir holatda bo'lganida C1 zaryadlanadi, bunda «1», DD1—element mantiqiy «0» holatida. Elementning umumiy shinasi va DD2 ning chiqish qismi orasida EYK ko'rinishidagi elektr modeli sifatida namoyish etishi mumkin (7.2-rasmga qarang).

Bu yerda  $R''_{\text{chiq}}$  — elementning mantiqiy «1» qarshiligi  $E''$  manbani —  $EYK K155$  seriyasi uchun  $E'' \approx 3,5 V$ ,  $R''_{\text{chiq}} \approx 100 \div 600 \Omega$ .

Kondensator  $C1$  zanjirining zaryadi:  $qE''_p$  dan  $EYK$  elementning chiqish qarshiligi orqali  $DD2 R''_{\text{chiq}}$ , kondensator  $C1$  va rezistor  $R1$  orqali  $EYK E''$  ga.

$DD2$  elementining ulab uzilish momentida «1», uning chiqish kuchlanishi  $U_{\text{chiq}DD2} \approx 3,5V$  ( $K155$  seriyasi uchun)  $DD1$  ning kirish qismiga beriladi, chunki kommutatsiya davri  $U_{C1-q0}$ , bunda  $DD2$  elementining chiqish kuchlanishi  $U_{\text{chiq}DD1} \approx 0V$  ga kamayadi.


Multivibratororda birinchi vaqtinchalik turg'un holat ( $DD2$  mantiqiy «1», holat  $DD1$ -da «0»).  $S1$ -kondensator zaryadlanishi bilan  $DD1$  kirish qismidagi kuchlanish kamayadi va ma'lum bir vaqtda bo'sag'a darajasiga erishadi.  $U_{\text{to'y}}$  ( $U_{\text{to'y}} \approx 1,5V$  seriya  $K155$  uchun) bunda  $DD1$  mantiqiy «1» holatiga o'tadi va  $DD2$  elementini mantiqiy «0» holatiga o'tkazadi. Natijada sxemaning ikkinchi vaqtinchalik turg'un holatiga o'tadi. Kondensator  $C1$  bu holatda razryadlanadi,  $C2$  — kondensator zaryadlanadi.  $C1$  zanjiri razryadlanishi  $DD2$ -elementi mantiqiy nol holatida.




**7.1-rasm.** PME «И-НЕ» asosidagi multivibratorning prinsipial sxemasi

$DD2$  ning chiqish qismi va umumiy shina oralig'ini quyidagi elektr modeli orqali ifodalash mumkin (7.3-rasmga qarang).

Kondensator razryadi tezda o‘tadi, chunki C1 razryad vaqtı kichik ( $r_{VD1}$ ), shuning uchun keyingi ulab-uzilish uchun  $U_{kirD-D_2} \ll U_{bo's}$ . Sxema yana birinchi vaqtli turg‘un holatiga o‘tadi. 7.4-rasmida multivibratorning ishlash ossillogrammalari keltirilgan.



**5.2-rasm.** DD2 elementining mantiqiy «1» dagi modeli



**7.3-rasm.** DD2 elementining mantiqiy «0» holatidagi modeli

## 7.2. Potensial mantiqiy elementlar asosidagi bir vibratorlar

Bir vibrator—yakka impulsli generator, tormozlangan multivibrator.


Kirish qismiga yakka impulslar seriyasi berilsa, bir vibrator chiqish qismida impulsini beradi.

Mantiqiy И-HE elementida boshqarilgan bir vibrator sxemasi ni (7.5-rasmga qarang) avtotebratgichli multivibrator sxemasidan

ham olish mumkin (7.1-rasm), faqat bunda R2, C2 va VD2 lar olib tashlanadi, xolos. Bir vibratorlarda impulslarni generatsiyasi jarayoni avtotebratgichli multivibrator jarayoniga o‘xshash bo‘ladi.

7.6-rasmda bir vibratorning ishlash prinsipini xarakterlovchi ossillogrammalar keltirilgan.

Bir vibrator bitta turg‘un va bitta vaqtinchalik turg‘un holatga ega. Ishga tushiruvchi impuls kelgunicha, DD1 mantiqiy element yopiq va  $U_{\text{chiq1}}$  mantiqiy «1» ga teng (7.6-rasmga qarang). DD1 elementning bunday holatini uning kirish qismiga R1 qarshilikni ulab (unchalik katta bo‘lmagan qarshilik) ta’minlanadi. Mantiqiy element DD2 ochiq katta kirish kuchlanishi hisobiga, qaysiki biror kirish qismiga berilgan. Bunda C1 – kondensator razryadlanadi.



**7.5-rasm.** PME «I-NE» asosidagi bir vibratorning prinsipial sxemasi


$t_1$  vaqt birligida sxemaning kirish qismiga manfiy impuls berilsa DD2 elementi yopiq holatga o‘tadi va uning chiqish qismidagi kuchlanish mantiqiy «1» birlikka erishadi. Ushbu ijobiy sakrash  $U_{\text{chiq2}}$  kuchlanishi S1 kondensator orqali DD1 elementining kirish qismiga berilib uni yopadi.  $U_{\text{chiq1}}$  kuchlanishi mantiqiy «0» darajagacha kamayadi. Bunda S1 kondensator zaryadlanadi, uning plastinalaridagi kuchlanish ortadi, R1 qarshilikdagi  $U_{\text{chiq1}}$  kuchlanish kamayadi.  $U_{\text{chiq1}} \neq U_{\text{por}}$  (bo‘lganida  $t_{q2}$ ) bir vibrator-

larda o'tish bo'lib, avtotebranish multivibrator kabi bo'ladi. Shuning bilan impuls shakllanishi tugaydi va bir vibrator boshlang'ich turg'un holiga o'tadi.

Sxemani vaqtinchalik turg'un holatiga o'tish vaqtini kondensatorning zaryadlanish vaqtini orqali aniqlanadi.  $\tau_{zar} = C \cdot R$  impuls kengligini sozlashni kondensator zaryadlanish vaqtini  $\tau_{zar}$  orqali amalga oshiriladi.

$t_1$  q yuzdan birdan birlargacha, sekund.

Ishga tushuvchi impuls — umumiy shinaga qisqa tutashuv yoki past daraja  $t_{zap\ min} > t_{imp}$  ( $t_{zap\ min} > 2 \cdot \tau_{zad\ ME}$ ) ushbu seriyasida — DD1 va DD2 ulab-uzilishi lozim.



**7.6-rasm.** PME li bir vibratorining ishlash prinsipi uchun ossillogammalar

## VIII. CHIZIQLI-O'ZGARUVCHAN KUCHLANISH GENERATORI (CHO'KG-GLIN)

### 8.1. CHO'KG – GLIN tuzilishi, prinsiplari va umumiylashtirilishi

Chiziqli o'zgaruvchan kuchlanishli deb, qandaydir vaqt oraliq'ida kuchlanish chiziqli qonuniyat bilan o'zgarib, so'ng tezlik bilan boshlang'ich darajaga qaytishiga aytildi. Kichik darajadan, kuchlanish katta darajaga o'zgarsa, chiziqli ortuvchi, katta darajadan kichikka o'zgarsa chiziqli kamayuvchi deyiladi. Bunday kuchlanishlar arrasimon kuchlanishlar ham deyiladi. 8.1-rasmida chiziqli o'zgaruvchan kuchlanish grafigi keltirilgan bo'lib, bu yerda:

$t_{pr}$  — to'g'ri yoki ishchi yo'li kengligi;

$t_{obr}$  — teskari yo'li kengligi;

$t_p$  — sokinlik kengligi;

$T$  — tebranishlar davri;

$U_m$  — kuchlanish amplitudasi.

Arrasimon kuchlanish ham chastota bilan xarakterlanadi:


$$f = \frac{1}{T};$$

bu yerda:  $T = t_{tug} + t_{tes} + t_p$


Chiziqli o'zgaruvchan (CHO'K-LIN) kuchlanishni yaratishning ikkita prinsipi mavjud:

1. RC zanjiridan foydalanib (8.2-rasmga qarang), prinsipning g'oyasi  $U_C(t)$  boshlang'ich chiziqli qismini, kondensator C EYK E manbadan qarshilik R orqali zaryadlanishiga asoslangan. Kondensator C ni tezda razryadlanishi uchun S — kalit qo'llaniladi.

Kalit S ning uziq holatida CHO'K-LIN to'g'ri yo'li shakllanadi, uloq holida esa teskari yo'li. Boshlang'ich uchastkasining nochiziqli darajasiga qarab, eksponenta amplitudasi  $U_m 0,3 \div 0,6$  E ga nisbatan erishishi mumkin. Demak, sxemasing asosiy kamchiligi kuchlanish E ni ishlatilish koeffitsientining pastligidadir.




8.1-rasm. Chiziqli o'zgaruvchan kuchlanish



8.2-rasm.

2. Kondensator C ni tok stabillovchi element (TSE) orqali zaryadlanishi (8.3-rasmga qarang).



8.3-rasm.

Kondensator C dagi kuchlanish quyidagi ifoda bilan aniqliganligidan:

$$U_C = \frac{1}{C} \int_0^t i(t) dt$$

Kondensatorning zaryad tokini stabillashdagi  $i_q \text{const}$ , hosil qilamiz:

$$U_C = \frac{i}{C} \cdot t$$


Demak, C kondensatordagi kuchlanish vaqt birligida chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi. Tokni stabillash uchun TSE sifatida ko'pincha bipolyar tranzistorni umumiy bazali ulanish sxemasi qo'llaniladi.

CHO'KG-GLIN ning asosiy parametrlari quyidagilar:

1. Nochiziqli koeffitsienti

$$\varepsilon = \frac{|U'(t)|_{t=0} - |U'(t)|_{t=t_{np}}}{|U'(t)|_{t=0}}$$

bu yerda  $U'(t)$  chiqish kuchlanishining ( $U_C$ ) vaqt birligidagi mos holidagi urinmaning  $U_C(t)$  tangens burchagi bilan xarakterlanaadi. Tangens burchagi bilan farqi xatolikni aniqlaydi (8.4-rasmga qarang).



8.4-rasm.

$$\xi = \frac{U_m}{E}$$

2. Kuchlanish foydalanish koeffitsienti  $\xi$ , arrasimon kuchlanishning berilayotgan kuchlanishga nisbati bilan xarakterlanadi.

$\xi$  qanchalik katta bo'lsa, CHO'KG-GLIN xatoligi shunchalik katta, chunki RC zanjiri uchun eksponentining katta qismidan foydalaniladi. Demak,  $\xi$  ni kattalashtirib, katta nochiziqlik - $\varepsilon$  koeffitsientini olamiz.

Birinchi sxema uchun:

$$U_C = E \cdot (1 - e^{-\frac{t}{RC}})$$

$t=t_{pr}$  bo'lganida:

$$U_C = U_m = E \cdot (1 - e^{-\frac{t_{np}}{RC}})$$

Unda

$$\xi = \frac{U_m}{E} = 1 - e^{-\frac{t_{np}}{RC}}$$

Kuchlanish foydalanish koeffitsienti  $\xi$  (0,5...0,7) qiymatida nochiziqlik xatoligi  $\xi$  quyidagicha 10–20 % bo'ladi.

Kichik  $\varepsilon$  – qiymatlarini olish uchun katta nochiziqlik  $\xi$  larda TSE li sxemadan foydalanish tavsiya etiladi.

CHO'KG-GLIN quyidagi rejimlarda ishlashi mumkin:

- 1) avtotebranish;
- 2) kutish;
- 3) sinxronizatsiya rejimida.

Shuningdek, tashqi boshqaruv rejimi ham ta'kidlanadi, kutish rejimining turlaridan. Ushbu rejimda ishchi yo'li kengligi boshqaruvchi impulsning kengligi bilan aniqlanadi.

Kutish rejimida to'g'ri yo'l boshlanishini, kichik boshqaruvchi impuls aniqlaydi, to'g'ri yo'lni esa CHO'KG-GLIN ning vaqt belgilovchi kuchlanishini aniqlaydi.

Sinxronizatsiya rejimida — CHO'KG-GLIN chastotasi tashqi sinxronlovchi impulslar chastotasiga karrali bo'ladi.

Avtotebranishli sxema tashqi boshqaruvchi impulsarsiz ishlaydi.


## 8.2. Tranzistorli avtotebratgichli CHO'KG-GLIN

8.5-rasmda tranzistorli avtotebratgichli chiziqli o'zgaruvchi kuchlanish generatori sxemasi keltirilgan.

Sxema RC zanjirli shakllantirgichdan, VD2 chegaralovchi diod, VT1 tranzistorda yig'ilgan tranzistorli kalitlardan iborat.

Generatorni ishchi yo'lini shakllantirish vaqtida VD2 diod yopiq va sxema RC zanjirdan uzilgan. Kondensator - C ( $U_C$ ) da-gi kuchlanish eksponensial qonuniyat bilan o'zgaradi:

$$U_C = \frac{1}{C} \int_0^t i(t) dt.$$



**8.5-rasm.** Tranzistorli avtotebratgichli CHO'KG


Eksponentaning boshlang'ich qismida  $U_C$  - kuchlanish chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi. Nochiziqlik koefitsientini  $\xi \approx 10\%$  ta'minlash uchun kuchlanish qo'llanilishi koefitsienti quyidagiCHA tanlanadi:

$$\xi = \frac{U_m}{E_2} \approx 0,5.$$

Bunda kondensatordagi – C maksimal kuchlanish quyidagini tashkil etadi:

$$U_{C_{max}} \cong 0,5 \cdot E_k.$$

Kalit uchun o‘zgarmas tok rejimi shunday tanlanadiki, kollektordagi kuchlanish  $U_{C_{max}}$  dan diodni yopuvchi ( $U_{dtug}$ ) kuchlanish qiymatiga kichik bo‘lishi lozim. Kondensator zaryadlangani sari,  $U_C$  manfiylashgani sari  $U_k$  ga nisbatan, VD2 diod ochiladi va kondensatorni VD2 diodi va tranzistorli kalit orqali tojsimon razryadi boshlanadi. Bunda VD2 ochiq diodning kichik qarshiligiga  $R_k$  parallel qarshilik ulangan, shuning uchun yuklama chizig‘iga katta tangens burchagi ta’minlanadi (8.6-rasmga qarang).




8.6-rasm.

Yuklama chizig‘ini VD2 (I), ochilishi holati, ochilgandan so‘ng o‘zgarib II holatga erishadi. Kollektordagi kuchlanish moduli  $U_{k1}$  dan  $U_{k2}$ , gacha ortadi, natijada  $I_b$  baza tokini oshishi va tunnel diodidan oqadigan tokning ham oshishiga olib keladi. Tunnelli diodning ishchi tasnifi nuqtasi  $O_1$  holatni egallagan edi (VD2 ochilguncha)  $U_{k2}$  kuchlanishning ortishi hisobiga  $O_2$  holatga o‘tadi. Bu esa tunnel diodidagi -  $U_{d1}$  kuchlanishni 4–6 barobar ortishiga olib keladi ( $U_{d2}$  gacha), natijada VT1 tranzistorini ishonarli to‘yinishini ta’minlaydi (6.6-rasmga qarang). Kondensator C dagi razryad VT1 to‘yingan tranzistor orqali va zanjirdagi tok q  $U_C$  dan VT1 (E-K), VD2 –  $U_C$  orqali bo‘ladi.  $U_C$  kuchlanishi tezlik bilan  $U_{KE\ tuy}$  kuchlanishiga kamayadi. Natijada VD2

yopiladi va sxema RC zanjirdan uziladi. Bundan so'ng to'g'ri yo'l shakllanishi qaytadan boshlanadi. 8.7-rasmida ko'rib o'tilgan sxe-maning chiqish kuchlanishi ossillogrammalarini keltirilgan.

CHO'KG-GLIN to'g'ri va teskari yo'lining kengligini quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$t_{to'g'r} = RC \cdot \ln \frac{E_k - U_{CO}}{E_k - U_{Cm}};$$



**8.7-rasm.** Tranzistorli avtotebratgichli CHO'KG chiqish kuchlanishi ossillogrammasi


$$t_{tes} = (R_{KEtug3} + R_{tugVT1}) C \cdot \ln \frac{E_k - U_{CO}}{E_k - U_{Cm}}.$$

Bunday generator sxemalari keng chastota diapazonida ishlaydi, chunki chastotaga asosan RC zanjir parametri ta'sir ko'rsatadi.

Nisbat  $\frac{f_{\max}}{f_{\min}}$  minglarga bo'linadi.

### Kondensatorni tok stabillovchi element orqali zaryadlash principini qo'llovchi CHO'KG-GLIN sxemasi

Bunday sxemalar yuqori chiziqlik sifatini  $\varepsilon \approx 0,01$  ta'minlaydi, kuchlanish koeffitsienti  $\xi \approx 0,8$  da. Ushbu sxemada kalit rejimida ishlaydigan bir o'tuvchanli maydon tranzistori qo'llaniladi (8.8-rasmga qarang).




**8.8-rasm.** Tok stabillovchi elementda va bir o'tuvchanli maydon tranzistorida tuzilgan CHO'KG-GLIN

Kondensator zaryadini tok stabillovchi element orqali foydalansa quyidagini hosil qilamiz:

$$U_C = \frac{1}{C} \int_0^t i(t) dt, \quad i_C = I_{qconst}, \quad \text{bo'lganida } U_C = \frac{I}{C} \cdot t = k \cdot t.$$

VT2-tranzistor tok manba rejimida ishlaydi, kondensator S zaryadini o'zgarmas  $I_k$  tok bilan ta'minlaydi. Tranzistorni o'zgarmas tok rejimida ishlashini  $I_b = const$ ,  $U_{ke}$  ning keng oraliqda o'zgarmas  $I_k$  ta'minlaydi (8.9-rasmga qarang).  $I_b$  stabilizatsiyasi  $U_{be}$  kuchlanish stabilizatsiyasi hisobiga ta'minlanadi, parametrik stabilizator yordamida, VD stabilitron va R2 balans qarshilikda yig'ilgan.



**8.9-rasm.** VT2 tranzistorining o'zgarmas tok rejimida ishlashi

Sxemani tok manbaiga ulanganidan so'ng,  $E_k$  kuchlanishdan kondensator CqE<sub>k</sub> R<sub>k</sub>, EK VT2, C — E<sub>k</sub> gacha zaryadlanadi. Kondensator C zaryadlanishi  $I_k$  stabil tok orqali amalga oshiriladi. Kuchlanish  $U_C = 0,8 \cdot E_k$  bo'lganida, VT1 maydon bir o'tuvchi tranzistorining ulanish kuchlanishi bilan aniqlanadi va u ulanadi (to'yinish rejimiga o'tadi) va C kondensatorni tezda razryadlanishini o'zi orqali ta'minlaydi. C kondensatorni razryadlashda kuchlanish va tok unda kamayadi va qandaydir vaqt birligida zatvordagi kuchlanish VT1 tranzistorini yopishga yetarli bo'ladi. VT1 tranzistorni yopiq holida kondensator C ni yangi sikli shaklanishi boshlanadi.

### 8.3. Tranzistorli kutuvchi CHO'KG-GLIN

8.10-rasmida tashqi boshqaruv rejimida ishlovchi kutuvchi CHO'KG-GLIN sxemasi keltirilgan. Generator arrasimon kuchlanishining to'g'ri yo'li kengligi boshqaruvchi impuls kengligi bilan aniqlanadi.

VT1 tranzistori tranzistorli kalit bo'lib, to'yingan holatni  $I_b$  baza toki ta'minlaydi.

$$I_b = \frac{E_k - U_{bem}}{R_b} \geq I_{bn},$$

$$I_{bnas} = \frac{I_{kn}}{\beta} \approx \frac{E_k}{R_k \cdot \beta},$$


bu yerda  $\beta = h_{2le}$ , bundan  $R_b \leq R_k \cdot \beta$ .

Kirish signali  $U_{kir}$  bo'lmaganida VT1 tranzistori to'yingan va  $U_{ke} = U_{keto'y}$  odatda 1V-dan ortiq bo'lmaydi. Demak, kirish impulsi bo'lmaganida chiqish kuchlanishi nolga yaqin. ( $U_{chiq} = U_{keto'y}$ ).


8.11-rasmida sxemaning ishslash ossillogrammalari keltirilgan.

Boshqaruv impulsi  $t_1$  — vaqtida kelib, VT1 tranzistorini yopadi ( $U_{kir} \approx 0,3-0,5V$ ). Boshqaruv impulsining chegaraviy qiymati shunday bo'lishi lozimki  $U_c E_k$  dan ortmasin. Bunda kondensator C R<sub>k</sub> orqali E<sub>k</sub> kuchlanishdan zaryadlanadi va arrasimon to'g'ri

yo‘lni shakllantiradi. Talab etilgan  $U_{C_{max}}$  qanchalik kichik bo‘lsa, shunchalik kichik bo‘ladi.



**8.10-rasm.** Tashqi boshqaruqli rejimidagi kutuvchi CHO'KG-GLIN



**8.11-rasm.** Tashqi boshqaruqli rejimidagi kutuvchi CHO'KG-GLIN

$t_2$  vaqtidan so‘ng tranzistor VT1 yana to‘yinishda va kondensator C ni VT1 to‘yingan tranzistor orqali razryadlanishini ta’minlaydi. Kollektordagi kuchlanish  $U_{KE\ to'y}$  ( $t_3$  vaqtda) erishgaganida navbatdagi yopuvchi impulsni berish mumkin bo‘lsa.

Chiziqligini oshirish uchun foydalanish koeffitsienti  $\xi \approx 0,25-0,4$  bo‘lishi, shuning uchun  $E_k / U_m$  dan 3–4 barobar katta bo‘lishi lozim, bu esa yuqori kuchlanishli tranzistorlarning qo‘llanilishini talab etadi. Sxemada past kuchlanishli tranzistor-

lar qo'llanilganida VD zanjiri va  $E_{bus}$  qo'llaniladi.  $E_{bus}$  manbai quyidagi shartdan tanlanadi:

$$E_{bus} > U_m \text{ zanjiri bilan } |U_t| < |E_{por}| < |E_k|.$$

Agarda  $|U_k|$  ortsa  $|E_{bus}|$  dan diod ochiladi  $U_k E_{bus}$  dan oshmaydi. Bu esa past kuchlanishli tranzistorlarni qo'llash imkoniyatini katta kuchlanishli manbada ham ruxsat etadi. Natijada to'g'ri yo'l nochiziqlik koeffitsienti  $\varepsilon$  qiymatini nisbatan kichikrog'ini olish mumkin. 8.11-rasmida teskari aloqali kutuvchi CHO'KG-GLIN sxemasi keltirilgan. U manfiy teskari aloqa hisobiga chiziqli o'zgaruvchan qo'llanish sifatini yaxshilash imkoniyatini yaratadi (nochiziqlik koeffitsienti  $\varepsilon$  ni kamaytiradi).

Boshlang'ich holda VT1 tranzistori yopiq  $E_{sm}$ . «q» manbai dan VT1 bazasiga VD diod orqali, quyidagi shartdan  $U_{be} > 0$  (VT tranzistorini yopish uchun kuchlanish 0,25–0,3V bo'lishi lozim). Bundan,

$$U_{sm} > \frac{E_k \cdot R_{sm}}{R_b + R_{sm}} + I_{kb0} \cdot R_{sm}.$$

Bunday rejimda VD diod ochiq, VT tranzistori yopiq va C kondensator quyidagi  $qE_k$ ,  $qE_{sm}$  zanjir orqali zaryadlanadi,  $R_{sm}$ , VD, C,  $R_k$  orqali  $-E_k$  ga.


Bundan,

$$U_C = E_k + E_{sm} - I_{kb0} \cdot (R_{sm} + R_k) \approx E_k + E_{sm}.$$

VD diodiga kelib uni yopuvchi manfiy impuls, kirishdan ishga tushiruvchi impuls kelishi bilan uni yopadi,  $R_b$  esa VT1 tranzistori to'yinshini ta'minlaydi. Bunda kondensator qC zanjiridan  $R_b$  orqali manba  $E_k$   $U_C$  ga mos ulangan, to'yingan VT1<sub>to'y</sub>, tranzistorining emitter-kollektor – EK ochiq, C sig'imiga.

8.12-rasmida teskari aloqali kutuvchi CHO'KG-GLIN ishlash prinsipi ossillogrammalari keltirilgan.  $t_1$  vaqtida manfiy ishga tushiruvchi impuls keladi. U VD diodni yopadi va  $E_{sm}$  ni VT tranzistorining bazasidan uzadi. Manfiy qutbli ishga tushiruvchi

impuls amplitudasini  $U_{zap} = 1,0 - 1,5B$  ta'minlashi lozim. Bunda VT tranzistorining o'zgarmas tok bo'yicha rejimi o'zgaradi. VT tranzistor to'yinadi, natijada C kondensator razryadlanishi boshlanadi. C kondensatordagi kuchlanish razryadgacha  $U_C \approx E_k$  bo'ladi. C kondensatorni asosiy razryad zanjiri  $R_b$ , qE<sub>k</sub> orqali  $U_C$  ga mos ulangan, VT1 to'yingan tranzistorning emitter-kollektori – EK, – C qo'shimcha  $R_b$  va  $R_k$  zanjiri unchalik ahamiyatga ega emas. C kondensator razryadlanishida kirish impulsi kengligiga mos keluvchi chiziqli o'zgaruvchan kuchlanish  $t_{pr}$  kengligi bilan shakllanadi.



**8.11-rasm.** Teskari aloqi kutuvchi CHO'KG-GLIN sxemasi

Agarda razryad toki o'zgarmas bo'lsa ( $i_p = \text{const}$ ), C kondensatordagи kuchlanish chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi. Manfiy teskari aloqa hisobiga C kondensator VT1 tranzistorining baza va kollektoriga ulangan,  $U_C(t)$  ning o'zgarishi amalda chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi.

Tranzistorning baza-emitteri-BE kichik qarshilikka ega-ligidan fizik jihatdan bu tranzistor tokli mexanizmi bilan ta'minlanadi.

Bu holda:

$$I_{Rb} = I_C + I_b = \frac{E_k}{R_b} \equiv const.$$

C kondensator razryadlanishi bilan  $I_C$  tok kamaya boshlaydi, lekin umumiyligi tokda  $R_b$  ( $I_{Rb} = const$ ) orqali baza ( $I_b$ ) tokining oshishiga keladi. Ushbu baza  $I_b$  toki oshishi bilan, kollektor ( $I_k = I_b \cdot h_{21e}$ ) toki ham ortadi. Ushbu tok  $R_k$  orqali oqib, tranzistor kollektori va C kondensator orasida bo'linib  $I_C$  toki kamyishini kompensatsiyalaydi. Manfiy teskari aloqa hisobiga kondensator razryadi  $U_C$  chiziqli o'zgarishini ta'minlab  $I_C$  taxminan o'zgarmas bo'lib qoladi.

$t_2$  vaqtida ishga tushiruvchi impuls tugaydi, VD diod  $E_{sm}$  kuchlanish bilan ochiladi, tranzistor VT yopiladi, C kondensator zaryadi jarayoni yana boshlanadi. Zaryad vaqt doimisi, razryad vaqt ( $\tau_{zar} \ll \tau_{trazr}$ ) doimisiga nisbatan kichik.

Chunki:

$$(R_{sm} + r_{dtuy}) \ll R_k, \text{ то } \tau_{zar} = R_k \cdot C.$$

Sxemaning qayta tiklanish vaqtqi quyidagicha aniqlanadi:

$$t_{tikl} \approx (3 \div 5) \tau_{zar}$$

8.12-rasmida sxemaning ishlash prinsipini tasvirlovchi ossillogrammalar keltirilgan.


Sxemaning asosiy parametrlari:

$$U_t = \frac{E_k \cdot t_{pr}}{C \cdot R_b};$$

$$\xi = \frac{U_t}{E_k} \approx 0.8 - 0.9;$$

$$\varepsilon = \xi \cdot \frac{R_b}{h_{21e} R_k}.$$

Nochiziqlik  $\varepsilon$  koeffitsientini kamaytirish uchun  $R_k$  va  $h_{21e}$  larni oshirishni tavsiya etish mumkin.



**8.12-rasm.** Manfiy teskari aloqali kutuvchi CHO'KG-GLIN ning ishlash prinsipining ossillogrammasi


## **8.4. O'zgarmas tok operatsion kuchaytirgichi (O'TOK-OUPT) asosida CHO'KG-GLIN**

O'zgarmas tok operatsion kuchaytirgichida integratorlarning qo'llanilishi chiqish kuchlanishini, kirish kuchlanishi integralligi proporsionalligini ta'minlaydi. Shuning uchun integratorning kirish qismiga  $U_{\text{kir}}$  o'zgarmas kuchlanishni berib, uning chiqish qismida chiziqli o'zgaruvchi kuchlanishni hosil qilamiz. 8.13-rasmda C kondensatorli arrasimon kuchlanishli generator sxemasi manfiy teskari aloqali zanjiriga o'zgarmas tok operatsion kuchaytirgichi ulangan. 8.14-rasmda generatorning kirish va chiqish kuchlanishlari vaqt diagrammalari tasvirlangan.

Sxema musbat qutbli impulsi bilan boshqariladi, qaysiki kuchaytirgichning invertirlovchi kirish qismiga VD diod orqali beriladi, sxemani umumiy shinadan kirish impulsi kengligi vaqtida kamayadi. Kirish impulsi davrida kirish  $U^-$ -kuchlanishni integrallash jarayoni bo'lib,  $U^- > 0$  bo'ladi (8.13-rasm).

Boshqaruvchi impuls berilgunicha ( $0-t_1$  vaqt oralig'i, 8.14-rasm) VD diod ochiq va invertirlovchi kirishda  $U^-$  kuchlanish musbat va nolinchи sathni biroz oshiradi  $U^- \approx (0,3 \div 0,4)B$ . Noinvertirlovchi kirishda  $U^+$  kuchlanish R1, R2 kuchlanish bo'luvchi orgali aniqlanadi:

$$U^+ = \frac{E \cdot R_2}{R_1 + R_2} \gg 0.$$




**8.13-rasm.** Arrasimon kuchlanish generatorining sxemasi

Bo‘lish koeffitsienti  $R_1$  va  $R_2$  qarshiliklari nisbatini tanlash hisobiga shunday beriladiki,  $U^+$  sath O‘TOK-OUPT ni holatini chegaralash rejimini ta’minlab,  $U_{\text{chiq}} = E$  bo‘lishi lozim. Integrator kondensatori  $C$ , manba kuchlanishi  $E$  gacha zaryadlangan.

$t_1$  vaqtida generator kirish qismiga musbat impuls ta’sir etib VD diodni yopadi,  $U^-$  kuchlanish kuchaytirgichni aktiv rejimga o’tishini ta’minlaydi, bunda chiqish qismidagi kuchlanish sakrab katta bo‘limgan qiymatga kamayadi. So’ngra kondensator  $C$  qarshilik  $R$  va chiqish qarshiligi  $R_{\text{chiq}}$  orgali razryadlanadi. Razryad vaqtida tok kamayadi.  $C$  kondensatorni teskari aloqa zanjiriga ulanishi avvalgi sxemadan ma’lum edi. Ayniqsa O‘TOK-OUPT kuchaytirish koeffitsientlarida razryad tokini stabillashtirishni ta’minlab, chiqish kuchlanishi chiziqliliginini oshiradi. Agarda, kondensatorni razryad vaqt va ishchi yo‘li kengligi quyidagi tenglikni qoniqtirsa:

$$\tau = RC \approx 0,5 \cdot t_{to'g'}$$



**8.14-rasm.** O'TOK-OUPT da CHO'KG-GLIN kirish va chiqish kuchlanishlarining vaqt diagrammalari

Bu holda impuls kengligi vaqtida kondensator — E kuchlanish gacha to'liq qayta zaryadlanishga ulguradi.

Boshqarish impulsining  $t_2$  vaqt momentiga VD diod ochiladi, kuchlanish sakrab avvalgi holiga kamayadi, kuchaytirgich to'yinadi, uning chiqish kuchlanishi  $qE$  qiymatga erishadi, C kondensator esa tezda VD ochiq diod orqali razryadlanadi. Sxema avvalgi boshlang'ich holiga qaytadi. Generator sxemasining qayta tiklanish vaqtini:

$$t = 5 \cdot C \cdot (r_{d\ to'g'} + R_{chiq\ kuch}).$$

Arrasimon kuchlanishning nochiziqlik koeffitsienti:

$$\varepsilon = \frac{1}{K_U}.$$

## IX. BLOKING-GENERATORLAR

### 9.1. Bloking-generatorlar haqida umumiy ma'lumotlar

Bloking-generator, transformatorli musbat teskari aloqali relaksatsion generator bo'lib, katta quvvatli, qisqa impulslar ni to'g'ri burchakli ko'rinishdagi va amplitudasi  $E_{man}$  amalda bo'ladi. Chiqish kuchlanishini katta qiymatlarini olish uchun transformatorda qo'shimcha chulg'amdan foydalaniladi. Generatsiyalanuvchi impuls kengligi 1–10 mks va kichik bo'lib, impuls chuqurligi Q o'nlab-yuzlab bo'ladi.

Bloking-generator, boshqa turdag'i relaksatsion generatorlar, kabi uch xil rejimda ishlaydi:

- avtotebratgichli;
- kutuvchi;
- sinxronizatsiyalash rejimi.

Bloking-generatorlar impuls generatori quvvati qisqa impulsarni shakllantirishda va elementlarni taqqoslash qurilmalari-da qo'llaniladi.

### 9.2. Avtotebratgichli bloking-generator


9.1-rasmda avtotebratgichli bloking-generator sxemasi keltirilgan. U musbat teskari aloqali impulsli transformatorli kuchaytirgich bo'lib, birlamchi  $w_1$  chulg'am VT1 tranzistorini kollektor zanjiriga, ikkilamchi ( $w_2$ ) chulg'ami esa VT1 tranzistorining baza zanjiriga ulangan. Chiqish kuchlanishini oshirish maqsadida  $w_3$  uchinchi chulg'am qo'llanilgan.

Generatorda faza balansini ta'minlash maqsadida birlamchi va ikkilamchi chulg'amlari qarama-qarshi ulangan.

VT1 tranzistorining o'zgarmas tok bo'yicha rejimini R rezistori, baza tokini aniqlovchi aniqlaydi. Vaqt belgilovchi RC zanjiri bloking-generatorni pauza vaqtini ( $t_n$ )ni aniqlaydi. Impuls chuqurligi  $Qq10...100$  bo'lganidan impuls ( $t_u$ ) vaqtini o'nlab-yuzlab marotaba pauza vaqtidan kichik. Demak, vaqt doimiysi RC zanjirni ( $\tau_p = R \cdot C$ ) amalda tebranish davrini aniqlaydi. Pauza vaqtini quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$t_n = RC \cdot \ln(1 + \frac{U_{C_{\max}}}{E_k + I_{k0} \cdot R}),$$

bu yerda  $U_{C_{\max}} \approx E_k$ .



**9.1-rasm.** Avtotebratgichli bloking-generator sxemasi

yuqoridagi qiymatni baholashda  $I_{k0}R \approx 10 \dots 100mV$ , ikkinchi yig‘indi suratini hisobga olmasa ham bo‘ladi. Unda keltirilgan shartni inobatga olib, bloking-generator pauza vaqtini (davrini va chastotasini) quyidagi ko‘rinishda hosil qilamiz:

$$t_n \approx RC \cdot \ln 2; \quad T \approx t_n; \quad f \approx \frac{1}{RC \ln(2)}.$$

Bloking-generatorni uyg‘otish uchun ikkita shart bajarilishi lozim – faza balansi va amplituda balansi:

$$\begin{cases} \varphi_k + \varphi_{tr} = 360 \cdot k & kq \ 0, 1, 2 \dots \\ \frac{K_U}{n} \geq 1 & n = \frac{w_1}{w_2} \end{cases} \quad (\text{BF}); \quad (\text{BA}).$$

VT1 tranzistorini aktiv rejimda ishlashdan, kuchaytirish  $K_u$  koeffitsienti qiymatidan, o'tkinchi jarayon davrida, o'rin almashgan sxemadan va amplituda balansini inobatga olib, quyidagini olamiz:

$$\frac{K_U}{p} = \frac{h_{21E} \cdot R'_n}{p \cdot (R'_{vx} + R'_n)}.$$

Bundan ma'lum bo'ladiki, amplituda balansini bajarish uchun:

$$h_{21E} \geq n \cdot \left( 1 + \frac{R'_{kir}}{R'_n} \right),$$

*bu yerda*  $R'_{kir} = \frac{R_{kir}}{n^2}$  – VT1 tranzistorining kirish qarshiligining birlamchi chulg'amga keltirilganligi,

$$R'_n = \frac{R_n}{p_1^2},$$

$$\text{bu yerda } n_1 = \frac{w_1}{w_3}.$$

Bloking-generatorlar uchun tranzistorlarning tok bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti  $h_{12E} \geq (20 \dots 30)$ .

9.2-rasmda avtotebratgichli-bloking-generatorni ishlash principining ossillogrammalari keltirilgan.

Ossillogrammalarni  $t_0$  vaqtidan boshlab ko'raylik. Avvalgi siklda zaryadlangan C kondensatori, deyarli nolgacha razryadlanadi (VT1 tranzistori avvalgi siklda yopiq edi)  $t > t_0$  tranzistor VT1 ochila boshlaydi, kollektor toki  $I_k$  ortadi, kollektor chulg'amida o'z induksiya EYK hosil qiladi. Buning natijasida baza chulg'amida EYK hosil bo'ladi, «—» VT1 tranzistori-bazasiiga ulangan. «q» esa C kondensatorga ta'siri natijasida kondensator C zaryadlana boshlaydi. VT1 tranzistorining bazasida «—» potensiali baza tokini oshiradi, natijada  $I_k$  ortadi, VT1

tranzistori tojsimon ulab-uzish jarayoni ta'minlanadi, natijada  $t_1$  vaqtida to'yinish bilan tugallanadi. Tranzistorni ulab-uzish ( $t \leq t_0$  yopiqdan,  $t_{q1}$  to'yingan) bosqichida impulsning old fronti shakllanadi. C kondensatordagi kuchlanish ( $U_C$ ) kam o'zgaradi, chunki old front unchalik katta emas.  $t_0 - t_1$  oraliqda VT1 tranzistori aktiv rejimida ( $K_u \gg I$ ),  $t_1 - t_2$  oraliqda esa to'yingan rejimda, bunda  $K_u < I$  va tranzistor signalni kuchaytirmaydi.

So'ngra  $t_1$ , chunki  $K_u < I$ , amplituda balansi generatorda bajarilmaydi, shuning uchun baza toki kollektor tokini boshqara olmaydi. Ikkilamchi chulg'amda induksiyalangan EYK kamayadi, natijada baza toki  $I_b$  kamayadi va shu bosqichda impuls tomi shakllanadi. Baza toki  $I_b$  ning kamayishi, baza chulg'amida o'zinduksiya EYK hosil bo'lishiga olib keladi, natijada  $I_b$  baza tokini kamayishiga qarshilik ko'rsatadi. EYK ta'sirida VT1 to'yingan tranzistorning EB si orqali C kondensator zaryadlanaadi. REB kichik va zaryad tezda bo'ladi. Bunda bir vaqtida  $I_b$  baza toki  $U_b$  baza kuchlanishi nolgacha o'zgaradi va  $t_2$  vaqtida tranzistor to'yingan holatdan chiqadi.

Natijada u o'zining kuchaytirgichli xususiyatini qayta tiklaydi, keyingi aktiv rejimiga o'tishda  $t_2$  vaqtida, impulsni tomi shakllanishi tugallanadi, so'ng esa uning orqa fronti shakllanadi.


$t_2 - t_3$  vaqt intervalida  $I_k$  kollektor toki kamaya boshlaydi, baza chulg'amida o'zinduksiya EYK hosil bo'ladi, qutblı esa avvalgini teskarisi, ya'ni tranzistorni yopishga harakat qiladi. Bunda tranzistor VT1 yopiladi va tojsimon jarayon shakllanadi,  $t_3$  vaqtida u tugallanib, tranzistor yopiladi.

Bu intervalda VT1 tranzistori bazasidagi kuchlanish  $U_b > 0$ , teshiklarni bazada so'riliishi oxirgi vaqt bilan shartlangan bo'lib, VT1 tranzistori to'yinishi bilan  $I_b$  teskari tok hosil bo'ladi.

VT1 tranzistori yopilishi momentida  $I_k$  kollektor toki noldan farqli bo'lganligi uchun, u birdan yo'q bo'lmaydi. O'zinduksiya EYK hisobiga kollektor chulg'amida kollektorda kuchlanishi manba kuchlanishidan ortiq bo'ladi. Bunda  $U_k$  bo'lishi mum-

kin  $2 \cdot E_{man}$ . Ushbu farqni yo'qotish maqsadida sxemada  $VD_{sh} R_{sh}$  shuntlovchi zanjir qo'llanilgan.

$t_3$  dan so'ng pauza shakllanadi va C kondensator qayta zaryadlanishi R qarshilikdan  $E_k$  ga. C kondensatordagi C ( $U_C$ ) kuchlanish asta-sekin kamayadi va  $U_C$  kuchlanish nolga keladi, sxema avvalgi  $t_0$  vaqtga qaytadi va sxemaning yangi holati boshlanadi. Bloking-generatorning chiqish kuchlanishining real ko'rinishi 9.3-rasmida keltirilgan.



**9.2-rasm.** Avtotebratgichli bloking-generator ishlash ossillogrammasi


Bloking-generatorining impuls kengligini quyidagi formuladan hisoblash mumkin:

$$t_{imp} \approx L_k \cdot \left( \frac{n \cdot h_{21E}}{R_{kir}} - \frac{n_1^2}{R_n} \right).$$

Impuls frontining kengligi quyidagidan aniqlanadi:

$$t_f = 3 \cdot n \cdot \tau_{TR} \cdot \left( 1 + \frac{R'_{kir}}{R'_n} \right).$$

$R'_{kir} = R'_n$ , bo‘lganida  $t_f = 6 \cdot n \cdot \tau_{TR}$  ekanligini hosil qilamiz.



**9.3-rasm.** Avtotebratgichli bloking-generatorning chiqish ossillogrammalari

### 9.3. Kutuvchi bloking-generator

Yuqorida ko‘rib chiqilgan bloking-generator sxemasini kutilish rejimiga o‘tkazish uchun VT1 tranzistorini yopish kerak, ishga tushirish uchun esa bazaga ochuvchi kuchlanish berish kerak. 9.4 a,b-rasmlarda kutuvchi bloking-generatorlarning sxemalari keltirilgan. Har ikkala sxemada ham tranzistor musbat kuchlanish bilan yopiladi.  $U_b = 0,3 \dots 0,5B$  va bloking-generator teng holatlari holatda bo‘ladi. Vaqt belgilovchi kondensator C razryadlanadi.  $U_C = 0$  yopilishini alohida siljituvgchi manba (a sxema) va kuchlanish bo‘luvchisi (b sxema). Musbat kuchlanish, bazaga

emitterga nisbatan berilayotgan tranzistorni yopishni ta'minlash lozim. Bunda  $U_b$  kuchlanish a) sxema uchun:  $U_C = E_b - I_{k0} \cdot R$ ;

$$U_{be} = U_C = E_b - I_{k0} \cdot R > 0$$

tavsiya etiladi  $U_b \approx + (0,3 \div 0,5)B$ .

b) sxema uchun  $U_C = -I_{k0} \cdot R \approx 0$ ;

$$U_b = U_E - I_{k0} \cdot R > 0.$$

tavsiya etiladi  $U_b \approx + (0,3 \div 0,5)B$ . Bu bo'luvchi  $U_{RI} \approx + 0,5B$  kuchlanishi orqali ta'minlanadi. Bunday baza-emitter kuchlanishi-da tranzistor o'tishida to'liq yopiq bo'ladi.  $C_E$  kondensator qiyamati quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\frac{1}{\omega C_E} \cdot (10 \dots 30) = R_1.$$


VT1 tranzistorini ishonchli yopilishini ta'minlash uchun, ishga tushiruvchi impuls parametrлari manfiy bo'lib, moduli jihatidan 2-2,5 marotaba tranzistorni yopuvchi kuchlanishdan katta, kengligi esa shakllanuvchidan kichik, ya'ni:

$$- U_{yopuv} \approx -(1,5 \dots 2)B;$$


$$- t_{yopuv} < t_{formimp}.$$

Ishga tushiruvchi impuls kelishidan so'ng, generatorda rege-nerativ jarayon boshlanib, old fronti shakllanadi impuls tomi va orqa fronti avvalgi qurilgan ossillogramma kabi. Bundan so'ng, sxema kutish rejimiga o'tadi. Tormozlangan bloking-generatorni ishga tushirishning ikki xil usuli mavjud (9.5. a,b-rasmga qarang): a) ketma-ket; b) parallel.

Ishga tushirishni ketma-ket uslubida, ishga tushiruvchi impuls tranzistor bazasiga ketma-ket ulanadi. Bunda ishga tushiruvchi impuls manbai kichik ichki qarshilikka ega bo'lishi lozim. Shuning uchun sxema VT1 tranzistorli emitter qaytargich bilan to'ldirilgan hamda kichik chiqish qarshiligidagi ega va VT2 tranzistorining baza zanjiriga ulangan. Agarda ishga tushiruvchi impuls yuqori ichki qarshilikka ega bo'lsa, parallel ishga tushiruvchi sxema qo'llaniladi.




a)




b)

**9.4-rasm.** Kutuvchi bloking-generatori ishga tushirish sxemasi



a)



**9.5-rasm.** Bloking-generatoroni ketma-ket (a) va parallel (b) ishga tushirish sxemalari

Ishga tushiruvchi impuls tranzistorni ochishi va uni qirqish-dan aktiv sohaga o'tkazishi lozim, shuning uchun kollektordagi kuchlanish  $1 \div 2$  V atrofida musbat kuchlanish ortishiga ega bo'ladi. Ishga tushirish kuchlanishini  $U_{ishgatush} \approx 2B$  bo'lishi tavsya etiladi.


#### 9.4. Bloking-generatorning sinxronizatsiyasi

Bloking-generator rejimini sinxronizatsiyalashda, chiqish impulsini sinxronizatsiya chastotasi bilan generatsiyalash, tashqi yuqori stabil generatordan beriladi. Buning VT1 tranzistorining bazasiga davriy sinxroimpulslar talab etilgan amplitudada beriladi. Ushbu impulslar ketma-ketligi turli (formada) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Lekin optimal deb, uchli impulslar hisoblanadi. Tashqi generatorning sinxronizatsiya chastotasi bloking-generatorining chastotasidan katta bo'lishi lozim:


$$f_{sinx} > f_{bl.g.}$$

Bloking-generator tranzistori bazasiga sinxronizatsiya rejimida (9.6-rasmga qarang)  $U_{sinx}$  sinxronizatsiya impulsi ta'sir etayapti, uning davri  $T_{sinx} < T_{bl.g.}$ , bu yerda:  $T_{bl.g.}$  — bloking-generator-

ni xususiy tebranishlar davri (sinxronlovchi impuls yo'qligida). Sinxronlovchi avtogeneratedorni ulagan momentida sinxronlovchi impuls bilan bloking-generatorning o'zini impulsiga vaqtiy joylanishi turlicha bo'lishi mumkin (9.9-rasm). Birinchi sinxronlovchi impuls (tqt<sub>1</sub>da)  $U_b$  kuchlanishni kamaytiradi, VT<sub>1</sub> tranzistorining bazasida, C kondensatorining razryadi davrida bloking-generatorni ag'darmaydi, chunki berilgan amplitudada bazadagi kuchlanish noldan katta  $T_{sinx} < T_{bl,g}$  bo'lganidan sinxronizatsiya impulsleri VT<sub>1</sub> tranzistorini ochish momentiga nisbatan siljiydi, toki impulslardan biri (hozirgi holda uchinchisi tqt<sub>3</sub>da), VT<sub>1</sub> ni avvaldan ochilishiga yo'l qo'ymaydi, demak bloking-generatorni zo'raki uzilish jarayoni. Keyingi sinxronizatsiya impulsleri bloking-generatorni har safar avvalroq C kondensator R qarshilik orqali vaqt belgilovchi razryad bo'lishi bilan uziladi. Sxemada statsionar holat belgilanib, statsionar rejimda  $T_{chiq}$  impuls takrorlanish davri bloking-generatorni sinxronizatsiya rejimida sinxronlovchi impuls takrorlanish davriga teng.



**9.6-rasm.** Sinxronlashtirilgan bloking-generator sxemasi



**9.7-rasm.** Sinxronlashtirilgan bloking-generator ishlash ossillogrammasi

Impulslarning sinxronlashtirish chastotasi  $f_{sinx} = n \cdot f_{blk.g}$ , bo'lsa, bu yerda:  $n$  — berilgan butun son, chastota bo'linish koeffitsienti deb atalib, bloking-generator bo'lishi rejimida tashqi sinxronlashtirilgan kuchlanishni tutish rejimi. Masalan: nq3, bloking-generatorni ko'tarib-tashlashi har bir uchinchi sinxronlashtiruvchi impulsda amalga oshadi. 9.7-rasmdan ko'rindaniki, chastotaning karrali bo'linishi  $U_m$  sinxronlashtiruvchi impuls amplitudasiga bog'liq.  $T_{sinx}$ ,  $T_{blk.g}$ ,  $U_m$  larning turli qiymatlarini berib, har qanday bo'lish rejimini olish mumkin.

## X. MIKROPROTSESSOR TIZIMLARI VA EHM XOTIRASI

Har qanday EHM, jumladan mini, mitti va mitti protsessorli tizimlar albatta xotiradan iborat. Ularning ba'zilari katta bo'lgan, unchalik katta bo'lmanan dasturlar va berilgan axborotlarni joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan xotiraga ega. Boshqa tizim xotiralari shundayki, ularni adress imkoniyatlaridan to'liq foydalanadilar. Xotira platalarida tezkor xotira qurilmasi (OZU-TXq) statik va dinamik turlari, dasturlovchi xotira qurilmalari (PZU-DXq) va axborotni tezkor almashtirish uslubi, xotiraga to'g'ridan to'g'ri kirish deb ataladi (PDX-XPK)

### 10.1. Ixtiyoriy kirishli tezkor xotira qurilmalari

O'qishda (yozishda) kirish vaqtini – axborotni xotiradan adresatsiyalanganidan so'ng, berilganlar shinasiga adreslashdan so'ng chiqarish (adres sohasiga berilganlarni yozish). TXq-OZU xotirasiga kirish vaqtini integral mikrosxemalarda 200ns. Magnit tasmalar va disklar uchun xotiraga kirish vaqtini  $\approx 1 \dots 10$  c.

Sikl vaqtini – xotiraga ikki marotaba murojaat etilgan eng kichik interval, qaysiki nafaqat xotiraga kirish vaqtini MP tizimini vaqtiy tasniflari bilan ham aniqlanadi.

Xotiralar energobog'liq va energobog'liq bo'lmanan xotiralarga bo'linadi. Energobog'liq xotirada, tok manbai o'chirilsa ham axborot buzilmaydi. Shuning uchun EHM va MP tizimlari, hech bo'lmasa kichik egergobog'liq bo'lmanan xotiraga ega bo'lishi, ya'ni kichik dasturlarni xotiradan qayta yozish mumkin.


Zamonaviy EHM va MP tizimlari yarim o'tkazgichli MOP tranzistorlarda asosiy xotiraga ega. MOP strukturalardagi xotira statik va dinamik bo'lishi mumkin. Statik xotira tashkil etilishi jihatidan osonroq (soddaroq), ayniqsa Xq-ZU katta bo'lmanan holda yaqqol seziladi. Dinamik xotirali IMS bir qator qo'shimcha IMS larni talab etadi. Shuning uchun iqtisodiy jihatdan katta hajmli xotira uchun maqsadga muvofiq. Bundan tashqari dinamik xotirani davriy ravishda regeneratsiyalash lozimki, uning tashqi IMS yordamida bajariladi.

Zamonaviy MP tizimlarida ikki turli yarim o'tkazgichli xotiralar qo'llanila boshladi:

1. Zaryadli aloqa asboblaridagi xotira (PPZS-ZAAX).
2. Yarim o'tkazgichli magnitli domenlardagi xotira (PPMD-YO'MD).

Ushbu turdagি xotiralar ketma-ket kirishli xotiralar turiga kиrib, hajmi katta, lekin quvvat sarfi kichik.

MPlarda statik ZU-Xq keng tarqalgan. Xotira yacheykasi triggerdan iborat. Yacheykalari matrixli strukturaga birlashadi, ya'ni chiziqli va ustunli quriladi. 10.1-rasmda 4096 bitli hajmdagi hozirgi sxema keltirilgan.




**10.1-rasm.** 4096 bitli hajm uchun TXq-OZU

Statik va dinamik xotira uchun kristall xotira strukturasi bir xil. Har biri IMS 12 adresli A0-A11 chiziqlar bilan ta'minlangan, bunda chiziq va ustunlar deshiffratorlariga keladi: A0-A5-ustunlar 6 razryadli A0-A5 adresini signalga o'zgartiradi, 64 ustundan birini ko'rsatuvchi. Chiziq adresli A6-A11 deshiffrator ham shunday ishlaydi.

Tanlangan chiziq va ustunni kesib o'tish joyidagi yacheyka tanlanadi. Adreslashning bunday usuli 4096 ta yacheykadan birini tanlash imkoniyatini beradi, qaysiki bitta kristalda joylashgan. Tanlov «I» tipli ikki kirishli sxema orqali tanlanadi. Yacheyka tanlanganidan so'ng, belgilangan adres bo'yicha unga axborotni yozish yoki hisoblash mumkin.

## 10.2. Statik va dinamik Xq-ZU


10.2-rasmda statik MOP xotiraning soddalashtirilgan sxema yacheyskalari keltirilgan.



**10.2-rasm.** Statik MOP xotirasining soddalashtirilgan yacheyska sxemasi

Yacheykani tanlash signali deshifratorlar chizig'i va ustunlari chiqishlaridan «I» sxemasida shakllanadigan kirishiga mantiqiy «1» signali keladi.

Signalik xotira sxemasi 10.3-rasmda keltirilgan.



**10.3-rasm.** Dinamik MOP xotirasining soddalashtirilgan yacheyska sxemasi

Dinamik xotira yacheyskasi ikki barobar MOP tranzistorlari kam va kristallda ikki barobar kam maydonni egallaydi. Xotira elementi VT1  $S_{kir}$  tranzistorining kirish  $R_{kir}$  sig'imi—MOP tranzistorlarining katta kirish  $R_{kir}$  qarshiligi ( $R_{kir} \approx 10\text{M}\Omega$ ,  $S_{kir} \approx 5 \div 10\text{pF}$ ) bo'lganidan razryad doimiysi  $\tau \approx 10\text{mc}$ , shuning uchun ma'lumotlarni regeneratsiyalash (qayta yozish) vaqtiga


2÷5 mc. Ushbu maqsad uchun maxsus qo'shimcha sxema xizmat qiladi. U avtomatik tarzda navbatma-navbat ustunlarga murojaat etadi, hamma yacheikalarda regeneratsiyani ta'minlaydi. Yacheykaga murojaat etish VT2, VT3 tranzistorlardagi ochish kuchlanishining mavjudligidan yacheyka tanlanadi.

10.4-rasmda statik xotirani 4 variantda tashkil etishning strukturasi integral sxemada keltirilgan

10 adresli A0-A9 chiziqlarda  $2^{10} \times 1024$  bo'lakni adreslash imkoniyatiga ega bo'lamiz. «Kristallni tanlash» signali xotirasi ikki qatoridan birini vazifa qilib qo'llash uchun IMS lardan tuzilgan sxemalar qo'llaniladi. 1 Kbayt xotirani tashkil etish uchun bunday IMS lardan 8 tasi ( $8 \times 1024$ ) talab etiladi. «Kristall tanlash» kirishidan foydalanib, 2 xotira chizig'ini ( $2048 \times 8$  razryadli so'z) tashkil etadi.

IMS da kirish va chiqish imkoniyatlari signallari mavjud. O'qish/ yozish chizig'i – mantiqiy «1» berilganida belgilarni o'qishni ta'minlaydi, mantiqiy «0»da esa yozishni.

10.5-rasmda dinamik TXq - (OZU), 4k, 16k, 64k hajmga ega bo'lgan DIP korpusida 16 ta chiziqli keltirilgan.




**10.5-rasm.** Dinamik TXq (OZU) 4k, 16k, 64k hajmli


Tashqi chiziqlarni kamaytirish uchun, strob signali chiziq va strob ustun adresli qo'llaniladi Bunday uslub, multipleksirlash adresatsiyasi deyiladi.

10.6-rasmda multipleksirlashli adreslash uslubi sxemasi ko'rsatilgan. 4k-li xotira uchun ustun va chiziq deshifratorlari qo'llaniladiki, har biri 6 ta kirish va 64 chiqishga ega bo'ladi. Har bir deshifratorning kirish qismida 6 razryadli registr fiksatoridan iborat. Bunday Xq (ZU) da yacheikalarni adreslash uchun 2 ta vaqtli sikl sarflanadi.

6 adres kirishiga 6 ta liniyadan signal keladi: adresni kichik qismi (A0-A5) so'ngra strob signal chiziqli adresdan keladi, ushbu 6 razryadlar deshifratorlarning fiksatorli-registriga chiziq adresli yoziladi, so'ngra esa 6 ta katta razryadlar (A6-A11) adreslar deshifiratorning fiksator registriga ustun adresi yoziladi. Sikldan so'ng fiksator-registrlardan 12 razryadli adres saqlanadi, 4096 yacheykadan xotiraga bittasini tanlash imkoniyati paydo bo'ladi.



**10.4-rasm.** Statik xotirani tashkil etish strukturalari integral sxemasi



**10.6-rasm.** Multipleksirlash adresatsiyasi sxemasi

## XI. RAQAMLI QURILMALAR

### 11.1. Triggerlar

#### 11.1.1. Mantiqiy elementlardan tashkil topgan triggerlar

Trigger deb, shunday qurilmaga aytildik, ikkita turg'un holatdan birida tura olib, bir holatidan ikkinchisiga kirish signali ta'sirida o'tadi. Trigger holati kirish signali orqali aniqlanadi. Trigger ketma-ket raqamli qurilmaning baza elementi hisoblanaadi. Unda 0 yoki 1 saqlanishi mumkin.

Ketma-ket raqamli qurilmaning sxemalarida triggerlar ikkita chiqish qismiga ega:


- 1) to'g'ri  $Q$  (1) chiqish;
- 2) inversli  $\bar{Q}$  (chiqish 0).

Triggerni 1 holatiga uning chiqish qismidagi  $Q$  yuqori sathli signal (1),  $\bar{Q}$  chiqish qismida esa past sath (0) bo'ladi. Triggerni 0 holatiga  $Q$  chiqish qismida kichik sathli (0) signali,  $\bar{Q}$  chiqish qismida esa yuqori sathli (1) mos keladi.


Triggerlarning kirish qismlari informatsion (axboriy) va yordamchi (boshqaruvchi) larga bo'linadi. Informatsion (axboriy) kirish qismiga kelayotgan signallar trigger holatini boshqaradi. Yordamchi (boshqaruvchi) kirish qismiga kelayotgan signallar esa, triggerni avvaldan kerak bo'lgani holatiga o'tkazish va sinxronlashtirish uchun xizmat qiladi. Yordamchi kirish qismlari axboriy sifatida qo'llanilishi mumkin. Triggerni kirish qismlari uning strukturasiga va vazifasiga bog'liq bo'ladi. Triggerning axboriy kirish qismlari S,R,J,K,D,T boshqaruvchi kirish qismlari esa, C,V harflari bilan belgilanadi. Triggerlar uchun standart belgilanish (11.1-rasm) ma'lum. Bu yerda S va R axboriy kirish bo'lib,  $Q$  va  $\bar{Q}$  chiqishlari, T trigger belgisidir. Inversli chiqish qismi doira  $\bar{Q}$  shakli bilan belgilangan.

Trigger mantiqiy elementlarning ulanishi, ya'ni chiqishdan kirish qismiga teskari aloqa sxemasi (11.2-rasm)da tasvirlangani-dek qurilishi mumkin. Trigger 0 ( $Q_0$ ,  $\bar{Q}_1$ ) holatda bo'lsa, R va

S kirish qismida 0 signallar beriladi. Trigger holati o‘zgarmaydi. Haqiqatan ham, birlik chiqish signal  $\bar{Q}$  sxemadagi ИЛИ (YOKI) sxemasining 1-nomerli kirishiga keladi. Shu sxemaning chiqish qismida Rq0 ekanligi inobatga olinsa, birlik chiqish signali hosil bo‘ladi. Bu signal 2-nomerli HE (INKOR) sxemasining kirish qismiga keladi. Natijada ushbu sxemaning chiqish qismida, ya’ni Q chiqishida avvalgidek signal 0 bo‘ladi. Sxema 2-chiqish qismidan 0 signali 3-nomerli ИЛИ (YOKI) sxemasini biron kirish qismiga keladi. Ushbu sxemaning ikkinchi kirish S qismiga ham 0 signali beriladi. Natijada 3-sxemaning chiqish qismida nol signali bo‘ladi. Bu signal 4-nomerli HE (INKOR) sxemaning kirish qismiga keladi va chiqish qismida birlik signal, ya’ni triggerni nol holati (q1, Qq0) tasdiqlanadi. Shuningdek, agarda trigger 1 holatda bo‘lsa, v R va S kirish qismlarida nol signali bo‘lsa, bunday holat saqlangan bo‘ladi.



11.1-rasm.



11.2-rasm.

Endi, faraz qilaylik, triggerning kirish qismiga nol holatda ( $Qq0$ ,  $\bar{Q}$  q1) bo‘lganida, axboriy signallar Sq1, Rq0 keladi. S signal ta’sirida ИЛИ (YOKI) 3-nomerli sxemaning chiqish qismida birlik signal bo‘ladi. Bu holda HET (YO‘Q) 4-nomerli sxemasing chiqish qismida signal 0 bo‘ladi. Demak, trigger birlik (Qq1,  $\bar{Q}q0$ ) holatiga o’tadi. Haqiqatan ham, chiqish signali D $\bar{Q}q0$  4-nomerli HET (YO‘Q) sxemaning chiqishidan 1-nomerli ИЛИ (YOKI) sxemaning kirish qismiga keladi. Ushbu sxemaning chiqish qismidan nol signali 2-nomerli HE (YO‘Q) sxema-

sining kirish qismiga keladi. Natijada ushbu sxemaning va Q ning chiqishida, 3-nomerli ИЛИ (YOKI) sxemasining kirish qismiga keladigan birlik signali hosil bo‘ladi. Agar S ni kirish qismidagi birlik signali olib tashlansa, trigger birlik holatida qolaveradi. Triggerni nol holatiga o‘tkazish uchun R kirish qismiga birlik signali berilishi hamda S kirish qismiga esa nol signali berilishi lozim. Triggerni birlik holatidan nol holatiga o‘tkazish yuqorida bayon etilganidek amalga oshiriladi.

Triggerni teskari aloqali sxemadan tashkil etilishi, uni asosiy qurilishini tashkil etadi. Bu uslubdan foydalanib turlicha trigger sxemalarini tashkil etish mumkin.

### **11.1.2. To‘g‘ri kirishli asinxron RS trigger**

Ushbu triggerlar ikkita informatsion (axboriy) S va R kirishga ega bo‘lib, 1 va 0 larni mos ravishda belgilaydi: to‘g‘ri Q va inversli Q. RS trigger ikkita mantiqiy element ИЛИ-НЕТ (YOKI-YO‘Q) lardan tuzilgan (11.3, a-rasm).

RS triggerning grafik belgilanishi 11.3, b-rasmda keltirilgan bo‘lib, faoliyat qonuniyati 11.1-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki,  $S^{tq1}$ ,  $R^{tq0}$  signallar kombinatsiyasida trigger 1 ( $Q^{tqlq1}$ ) holatiga, avvalgi holatidan  $Q^t$  qat’i nazar o‘tadi.

$S^{tq0}$ ,  $R^{tq1}$  signallari terilganda trigger 0 ( $Q^{tqlq0}$ ) holatiga o‘tadi. Signallar  $S^{tq0}$ ,  $R^{tq0}$  kombinatsiyasida trigger holati o‘zgarmaydi, ya’ni tql holda trigger holati  $Q^{tqlq}Q^t$  bo‘ladi. Signallar  $S^{tq1}$ ,  $R^{tq1}$  yig‘indisi man etilgan bo‘ladi, chunki u trigger ish rejimini buzadi va noaniq holatga olib keladi.

*11.1-jadval*


$S^t$	$R^t$	$Q^t$	$Q^{tql}$	Holati
0	0	$Q^t$	$Q^t$	saqlash
1	0	$Q^t$	1	o‘rnatish 1
0	1	$Q^t$	0	o‘rnatish 0
1	1	$Q^t$	-	man etilgan

RS triggerlarda, to‘g‘ri boshqarish kirish bilan birlik signal sathiga ega. Elementni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazuvchi

signallar aktiv deb ataladi. RS-triggerlarni qurish uchun, aktiv signal 1 darajali bo‘ladi.

11.2-jadval

$S^t$	$R^t$	$Q^t$	$Q^{tq1}$
0	0	0	0
0	0	1	1
0	1	0	0
0	1	1	0
1	0	0	1
1	0	1	1
1	1	0	-
1	1	1	-



11.3-rasm.

Triggerning tq1 holati (jadval) Karno kartasi ko‘rinishida berilishi mumkin. Karno kartasidan foydalanib, minimal bul funksiyasini RS trigger ishlashini qurish mumkin:


$$Q'^{q1q}S' \vee \bar{R}' Q'$$

Keltirilgan ifodadan ko‘rinadiki, RS trigger 1 holatda, kirish qismiga Stq1 yoki 1, agarda Rtq0 va trigger Qtq1 holatida bo‘lsa o‘rinli bo‘ladi.


### 11.1.3. Inversli kirishga ega bo‘lgan RS asinxron trigger

Ushbu turdagি triggerlar И-НЕТ (VA-YO‘Q) mantiqiy elementlarda quriladi. Bunda 0 (nol) sath signalning aktiv kirishi, 1 sath esa passiv. Axboriy kirishlari va mos ravishda bunday triggerlarni signallarining inversli ( $\bar{S}$ ,  $\bar{R}$ ) ko‘rinishda belgilash qabul qilingan. Bunday holda inversli kirishga ega bo‘lgan trigger, to‘g‘ri kirishli triggerdagidek.

RS triggerning inversli kirishga ega bo‘lgan sxemasi 11.4-rasmda, shartli belgilanishi esa 11.5-rasmda tasvirlangan.



11.4-rasm.



11.5-rasm.

11.3-jadval

$\bar{S}^t$	$\bar{R}^t$	$Q^t$	$Q^{tq1}$
0	0	0	-
0	0	1	-
0	1	0	1
0	1	1	1
1	0	0	0
1	0	1	0
1	1	0	0
1	1	1	1

RS triggerni, И-НЕТ (VA-YO‘Q) mantiqiy elementlarda ishlashi 11.3-jadvalda keltirilgan bo‘lib, bundan ko‘rinadiki


$\bar{S} = \bar{R} = 0$  kombinatsiyasi man etilgan,  $\bar{S} = \bar{R} = 1$  yig‘indi neytraldir. Bunda, agarda ИЛИ-НЕТ (YOKI-YO‘Q) elementli triggerning har ikkala kirish qismidagi signallar nolli bo‘lib neytral kombinatsiyani tashkil etsa, И-НЕТ (VA-YO‘Q) elementli trigger uchun u man etiladi.

Asinxron RS trigger tezkorligini qurilmaning holatini kechikishi  $t_T$ , har bir elementda kechikishi  $t_E$  yig‘indisi bilan aniqlanadi.


Hozirgi holat uchun  $t_{TQ} = 2t$

#### 11.1.4. Statik boshqaruvi RS trigger

Sinxron RS trigger asinxronlidan C kirish qismi mavjudligi bilan farqlanib, unga sinxronlashtiruvchi (taktli) signallar beriladi. Sinxron trigger asinxron RS triggerdan va kombinatsion raqamli qurilmadan tuzilgan (11.6-rasm).



11.6-rasm.



11.7-rasm.

11.6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, sinxron, trigger И-НЕТ (VA-YO‘Q) elementlaridan qurilgan. 1-sxema uchta S, C, R kirish qismlariga va ikkita chiqish qismiga ega bo‘lgan kombinatsion raqamli qurilmani tashkil etadi (KSU-KRQ). 1-sxema ikkita И-НЕТ (VA-YO‘Q) elementlardan tuzilgan asinxron RS triggerni tashkil etadi. Kombinatsion raqamli qurilmaning (KSU-KRQ) kirish mantiqiy elementlari Cq0 bo‘lganda blokirovkalangan (yopiq) bo‘ladi. Ularning chiqish qismlaridagi qiymat 1 birlikka ega va kirish S va R signallariga bog‘liq bo‘lmaydi.

И-НЕТ (VA-YO‘Q) elementli asinxron RS trigger uchun birlikdan tashkil topgan signallar yig‘indisi neytral bo‘ladi. Trig-

ger o‘z holatini saqlaydi. Cq1 bo‘lganda, RS asinxron triggerning kirish qismiga axboriy R va S signallarni uzatish uchun, kombinatsion raqamli qurilmaning (KSU-KRq) kirish mantiqiy elementlari sxemalari ochiq bo‘ladi. Demak, ruxsat etilgan signal mavjudligida, sinxron trigger asinxron trigger qoidasi bilan ishlaydi.

И-НЕТ (VA-YO‘Q) elementli asinxron RS triggerning ishlash qonuniyatini 11.7-jadvaldan ko‘rish mumkin.

11.6-jadvalda sinxron RS triggerning ishlash prinsipini ko‘rsatuvchi Karko kartasi tasvirlangan. Karko kartasidan foydalananib, sinxron RS triggerning ishlash prinsipini tushunish uchun, minimal bul funksiyasini olish mumkin:

$$Q^{t1q} \bar{R}' Q^t \vee \bar{C}' Q^t \vee C^t S^t q \quad Q^t (\bar{R}' \vee \bar{C}') \vee C^t R^t.$$

Agar kirish qismlari S va R larga 1 birlik berilayotgan bo‘lib, yoki 1 birlik ushbu kirish qismlarida bo‘lmasa,  $Q^S$  bir birlik holatini sinxron RS trigger saqlaydi. 11.10-rasmida sinxron RS triggerning grafik belgilanishi И-НЕТ (VA-YO‘Q), И-ИЛИ-НЕТ (VA-YOKI-YO‘Q) mantiqiy elementlarda hamda ularning kombinatsiyalarida ham ko‘riladi.

Triggerning umumiy turg‘un holatiga o‘tish vaqtiga t uchta mantiqiy elementlarning vaqt ushlanishi  $t_e$  yig‘indisiga teng:


$$t_{TQ} 3t_E$$

*11.5-jadval*

0	0	0	0	0
0	0	0	1	
0	0	1	0	0
0	0	1	1	1
0	1	0	0	0
0	1	0	1	1
0	1	1	0	0
0	1	1	1	1
1	0	0	0	0
1	0	0	1	1
1	0	1	0	0
1	0	1	1	0
1	1	0	0	1

1	1	0	1	1
1	1	1	0	-
1	1	1	1	-

11.6-jadval



Bunda signalning vaqt kengligi ts, s kirishda:

$$t_C \geq t_{TQ} 3t_E.$$

Ikki signal orasidagi pauza vaqtiga  $t_p$ , s kirishda kirish elementini (KTSU-KRq) ulab-uzish uchun yetarli bo'lishi lozim (1-sxema, 11.6-rasm):


$$t_p \geq t_e$$

Demak, C kirishdagagi sinxronlovchi signallarning minimal takrorlanish davri 4te, eng katta chastotasi

$$Fq1/(4t_E).$$

### 11.1.5. Dinamik boshqaruqli sinxron trigger


C kirishda, 0-darajadan 1-darajaga yoki aksincha bo'lishi uchun dinamik boshqaruqli sinxron triggerda, axborotning o'zgarish holatini qabul qiladi. Dinamik boshqaruqli RS trigger 11.8-rasmdagidek qurilishi mumkin.



11.8-rasm.

Agarda  $Cq_0$  bo'lganda, kirish qismiga R va S qandaydir axboriy daraja berilsa, C kirish qismida darajani 0 dan 1 ga almashtirilsa, 1-element chiqishida 0 hosil bo'ladi, u 3-element kirish qismiga ulanadi va uning chiqish qismida 1-darajani S kirishdagi qiymatdan qat'i nazar ta'minlaydi. Mantiqiy S uziladi va hech qanday o'zgarishni R va S trigger kirishida qabul qilmaydi. Bu jarayon C kirishda 0 daraja 1 darajaga o'tgunicha bo'ladi.


Shuningdek, dinamik kirishli RS triggersi mantiqiy ИЛИ-НЕТ (YOKI-YO'Q) elementlarda ko'rish mumkin.



11.9-rasm.


Bu yerda axborot triggersi R va S kirishda  $Cq_1$  darajani  $Cq_0$  darajaga almashinuvida qabul qilinadi. Bunday tiringgerning shartli belgilanishi 11.9 (b)-rasmda tasvirlangan. 11.10 (a)-rasmda esa

dinamik kirishga ega bo'lgan D triggerning sxemasi keltirilgan, uning shartli belgilanishi esa 11.10 (b)-rasmda tasvirlangan.



11.10-rasm.

D kirishda triggerda axborot qabul qilish, C kirishdagi 0-darajani 1-darajaga almashinishida sodir bo'ladi. Dinamik kirishga ega bo'lgan JK triggerning sxemasi 11.11 (a)-rasmda, uning shartli belgilanishi esa 11.11 (b)-rasmda tasvirlangan. Triggerni  $Q^{tq1}$  holatidan  $Q^{tq1}Q^t$  holatiga o'tishi  $Kq1$  va  $Q^{tq1}$  hamda  $KQ^{tq1}$  bo'lganida sodir bo'ladi. Boshqa holda avvalgi belgilangan  $Q^{tq1}Q^t$  holat saqlanadi. RS triggerdan JK triggerni hosil qilish uchun  $\bar{S}, \bar{R}$  asinxron RS triggerni kirish qismida  $SqJQ^t$  va  $RqKQ^t$  sathni ta'minlash lozim. Kirish belgisi S ni J ga, R ni K ga almashtirib, RS trigger chiqish qismini 1 va 2 element kirishiga teskari aloqa kiritib, JK dinamik kirishli trigger sxemasini hosil qilamiz.



11.11-rasm.

## 11.2. Registrlar

n-razryadli ikkilik mantiqiy o‘zgartirishni va saqlashni qo‘llovchi ketma-ketlikdagi raqamli qurilmaga registr deb ataladi. So‘zdagi razryad soniga mos keluvchi tartibli ketma-ket trigger registrni tashkil etadi. Har bir registr bilan qandaydir kombinatsion raqamli qurilma odatda bog‘liq, uning yordamida mantiqiy operatsiya yoki n-razryadli so‘zlar bajarilishini ta’minlaydi.

Registrda quyidagi mikrooperatsiyalar bajarilishi mumkin: boshqa ketma-ket raqamli qurilmadan so‘z qabul qilish, registrdan boshqa ketma-ket raqamli qurilmaga so‘z uzatish, razryadlararo mantiqiy operatsiya, so‘zni chapga yoki o‘ngga berilgan razryad soniga surish, ketma-ket so‘z kodini parallelga va aksincha o‘zgartirish, registrni boshlang‘ich holatiga qo‘yish. Mikrooperatsiyalarni bajarish sxemasi kombinatsion raqamli qurilma (KSU-KRq) yordamida amalga oshiriladi.

Ikkilamchi n-razryadli so‘zni saqlash uchun registr sxemasi 11.12, a-rasmda keltirilgan.


Registr  $S$ , n-triggerdan iborat. Registr holati triggerni holati bilan aniqlanadi. Unda parafazali  $\bar{S}_n, S_n, \dots, \bar{S}_1, S_1$  kodlarda, chiqish signali terilmasi bilan tasvirlanadi. Registr  $S$  ga ikkilamchi n-razryadli  $X_{qx_n}, x_{n-1}, \dots, x_1$  so‘zlar parafaz kodlarda  $\bar{X}_n, X_n, \dots, \bar{X}_1, X_1$  kirish signallari majmuasi yordamida saqlash uchun berilishi mumkin.

Agar kirish qismiga  $X_1$  signallar 0 yoki 1 birlikda kelayotgan bo‘lsa,  $S$  registr triggerlaridan  $X_1$  o‘zgaruvchi qiymatlarga mos qiymatlar sodir bo‘ladi. Registrning triggerlarida  $SqX$  qiymat yangi kirish signali kelguniga qadar saqlanadi. Registrda  $S(n)$  har biri 1-razryadi bo‘ladi. Registrdagи razryadlar soni uning uzunligini aniqlaydi.

Registr uchun shartli belgilanish 6.21, b-rasmda tasvirlangan: registr turi ( $S$ ), katta ( $n$ ) va kichik ( $t$ ) razryadlari ko‘rsatilgan.

Registrni kirish zanjiri kirish shinasi  $X(n)$ , chiqish esa – chiqish shinasi  $S(n)$  deb ataladi. Registrni n-razryadli holatini n-razryadli ikkilamchi so‘z bilan belgilanadi. n-razryadli  $S$  trigger-

ni holati soni  $2^n$  bo‘ladi. Agarda registr, raqamni saqlash uchun qo‘llanilsa, registrni har bir holatiga mos keluvchi biror butun sonni  $0\dots(2^n-1)$  oralig‘ida olish mumkin.



**11.12-rasm.**

Registr holati butun raqamlarda ikkilik hisoblash tizimida keltiriladi. Registr holatini yozishni qisqartirish uchun sak-kizlik va o‘n oltilik ko‘rinishdagi ikkilik soni ko‘rinishida foy-dalanish mumkin. Registr holatini nafaqat ikkilik alfavitida, ixtiyoriy boshqa alfavitda ham ko‘rsatish mumkin. Xususan, keng qo‘llaniladigan simvollardan biri sakkizta ikkilik razryadi yig‘indisi sifatidagi bayt deb ataluvchi bo‘lishi mumkin. Bu holda registr 8 razryadli registr ostiga bo‘linadi. Ikkilik alfaviti o‘rniga, 0 va 1 ikki simvoldan iborat bo‘lgan, 256 simvolli alfavitdan foy-dalanish mumkin, unga kirill va lotin alfaviti, raqamlari, turli simvollar kirishi mumkin.

Murakkab raqamli qurilmalarni tuzishda registrlar asosiy rolni o‘ynaydi. Haqiqatan ham, har qanday raqamli qurilma-

ni, o'zaro KSU sxemasi bilan ulangan registrlar majmuasi ko'rinishida tasavvur qilish mumkin (6.22-rasm). Registr sxemalarini analizidan ma'lumki, uning xususiyati bir jinsli strukturaga egaligi.

Registr bir tipli elementlardan tashkil topgan bo'lib (triggerlar), o'zaro ketma-ketlikda takroriy joylashadi. Elementlarining registrda bir tipliligi va takroriyligi, uni tayyorlanishini, nazoratini, foydalанишни nisbatan soddalashtiradi. Registrni bir turli avtomatlar majmuasi kabi bayon etish mumkin. Bir registr elementini avtomatik tarzda bayon etish va elementlar sonini ko'rsatishning o'zi kifoya qiladi.


Registr sxemalarini takroriyligidan KSU takroriy sxemalarini ko'rish va unda mitti operatsiyalarni bir xili ko'p elementlarda bajarish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa nisbatan sodda hamda KSU sxemalarini sintez qilish imkoniyatini tug'diradi. Bunday uslub KSUni murakkab bayon etilishini bul funksiyasi n-o'zgaruvchidan oddiy KSUni bayon etishga olib keladi. Bunda KSUni bul funksiyasini n-marotaba yig'indisidan m-o'zgaruvchan oxirgi sonidan deb, bu yerda  $m < n$  bo'ladi.

Registrlarda bajariladigan mitti operatsiyalar turlariga qarab, registrlar quyidagi turlarga bo'linadi: parallel qabul qilib, axborot beruvchi, ketma-ket qabul qilib, axborot beruvchi, ketma-ket qabul qilib, parallel axborot beruvchi, parallel qabul qilib ketma-ket axborot beruvchi.

Registrlar kirish va chiqish kanallari soniga qarab, bir fazali (signallar bir kanaldan uzatiladi) va parafazaliga (signallar 2 kanaldan uzatiladi) bo'linadilar. Parafazali registrlar RS triggerlarda bajariladi, bir fazalilari esa, D triggerlarda. Registrlar razryadlar sonlari va tezligi, maksimal takt qabul qilish chastotasi, uzatish va axborot surilishi bilan xarakterlanadi.


### **11.2.1. Xotira registri**

Parallel qabul qiluvchi va axborot uzatuvchi registrga xotira registri deb ataladi. Xotira registri elementi sifatida bir fazali kirish signalli (11.14-rasm) sinxron D triggerlar yoki parafazali kirish signalli RS triggerlar qo'llaniladi.



11.14-rasm.

11.15-rasm.




11.16-rasm.

Registrni avvaldan nol holatiga keltirish uchun «0 ga o'tkazish» signalini triggerni asinxron kirish qismiga (o'tkazish qismiga) yuboriladi. Registrdagagi axborot o'zgarishi sinxronlashtirish C kirish

qismiga signal kelib, X kirish qismlarida signallar o‘zgarganida sodir bo‘ladi.

### 11.2.2. Siljish registrlari

Ketma-ket qabul qiluvchi yoki axborotni uzatuvchi registrlar siljish registrlari deb ataladi. O‘ngga siljituvcchi registrda  $X_1$  birinchi razryad son kiritish bilan, oxirgi chap tomonidagining kirish qismiga berilib,  $S_n$  registr razryadli va unga birinchi C-sinxronlashtiruvchi signal kelganida amalga oshiriladi. Keyingi signal kelishi bilan  $X_1$  sinxronizatsiya qiymati  $S_n$  chiqish razryadidan  $S_{n-1}$  razryadiga kiritiladi,  $S_n$  razryadiga esa  $X_2$  uzatiladi. Har bir traktda kelayotgan axborotni bir razryadga o‘ngga siljishi sodir bo‘ladi. Signallarning n sinxronizatsiyasida hamma registrlar X razryad soni bilan to‘ladi va birinchi razryad soni  $X_1$ ,  $\bar{S}_1$  chiqish qismida paydo bo‘ladi. Agarda n signallar sinxronizatsiyasi  $S_n$  kirish razryadiga  $X_{q_0}$  uzatilsa, unda registrda X son  $S_1$  chiqishdan chiqadi va oqibati registrning chiqish qismi X sonini saqlab turishdan ozod bo‘ladi. Siljish registrlari D triggerlarda (11.16-rasm) yoki RS triggerlarda (11.17-rasm) amalga oshiriladi. Oxirgi sxemada axborotni kiritish uchun birinchi razryadga inverter sxemasi ulanadi.




11.17-rasm.


Registrda axborotni parallel chiqarib olish uchun siljish registrining hamma chiqish razryad qismlari turli polyuslarga  $S_n$ ,  $S_{n-1}, \dots, S_1$  ulanadi. Siljish registrini hosil qilishda C kirish qis-

mi bo'yicha dinamik boshqariladigan triggerlardan foydalaniladi. Bunday triggerlar qo'llanishi siljish registrini me'yorda ishlashini ta'minlaydi. 11.18-rasmida dinamik boshqariladigan chapga siljish registri D triggerli sxemasi tasvirlangan.

Siljish sxemasi unga va chapga kombinatsiyalab va boshqarish signalidan foydalanib, siljish registrini ikkala yo'nalishda ham qurish mumkin. Bunday (11.19-rasm) registr reversiv deb ataladi. Boshqaruvchi kirish  $V_1$  qismiga beruvchi signal berilsa, siljish sxemasi o'ng tomonga ulanadi. Reversiv registr bu holda o'ngga siljish registriga aylanadi. Boshqaruvchi kirish  $V_2$  qismiga beruvchi signal berilsa, siljish sxemasi chap tomonga ulanadi. Reversiv registr bu holda chapga siljish registriga aylanadi.



**11.18-rasm.**



**11.19-rasm.**


Chapga va o'ngga siljish registrlarida ikkilik kodi razryadlari registr razryadi chegarasidan ortadi. Agarda chetki o'ng razryad registrini chekka chap razryad kirish qismi bilan ulansa, bunda (siklik) halqasimon siljish registri hosil qilinadi. Reversiv registrlardan «stekli» registrlar hosil qilish uchun foydalanish mumkin. Bu holda umumiy kirish va chiqishga ega bo'ladi. Bunday registrlar «birinchisi kirdi oxirgisi chiqdi» prinsipida ishlaydi. Stekli registrlarni magazin tipidagi registrlar ham deyiladi.

### 11.2.3. Registrlarning qo'llanilishi


Registrlar axborotlarini turlicha vaqtli o'zgartirilishlarda qo'llaniladi. Siljish registrlarida ko'paytirish va bo'lish sxemalari qo'llaniladi: sonini chapga yoki o'ngga bir razryadga siljитish uni ikkiga ko'paytirishga yoki bo'lishga mos keladi. Registrlarni axborot uzatishda «n» traktga ushlab qolish uchun ham qo'llash mumkin. Ko'p sonli registrlarda tashkil topgan murakkab PTSU larda so'zni bir registrdan boshqasiga uzatish masalasi paydo bo'ladi. Buni maxsus SZ uzatish mikrooperatsiyasi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ikkita registr bir-biri bilan KTSU yordamida ulanadi, uzatish boshqaruv sxemasini tashkil etadi. Registr S dan registr R gacha so'zini uzatish uchun uzatish mikrooperatsiyasi R:qS ko'rinishida yozish mumkin.

So'zni uzatish parafazali va bir fazali kodlarda amalga oshirilishi mumkin. Parafazali uzatish mikrooperatsiyasida R:qS bajaruvchi V signali bo'yicha beriladi. Ushbu signaldan registr R triggerlari registr S triggerlari holatiga mos keluvchi holatga o'tkaziladi. Bunda S registri holati o'zgarmaydi (11.20-rasm). Registrlararo so'zlarni uzatish bir fazali kod yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bunday holda so'zni uzatish ikki traktda amalga oshiriladi.

Birinchi traktda R registr nol holatiga o'tadi, ya'ni «0 ga o'tkazish» mikrooperatsiyasi bajariladi (R:q0) «0 ga o'tkazish» signali bilan hamma R registr triggerlari 0 holatiga o'tadi. Ikkinci traktda R:qS uzatish mikrooperatsiyasi bajariladi (6.32-rasm). Ushbu sxemada jihozlar soni tejaladi, lekin axborot uzatish vaqt ortadi.



11.20-rasm.



11.21-rasm.

Ko‘pchilik hollarda biror PTSU registrlaridan boshqachasiga teskari kodli axborot uzatish talab etiladi. Teskari kodli uzatish mikrooperatsiyasini bajarish uchun R:q  $\bar{S}$  ko‘rinishda 6.34-rasm-dagidek registr triggerining nolinchi va birlik chiqish qismlari uzatish sxemasi ulanishida o‘rin almashadi yoki Registr S triggerlarining nolinchi chiqish qismlari uzatish sxemasiga (11.21-rasm) ulanadi.

### 11.3. Hisoblagichlar. Chastota bo‘luchilar. Summatorlar

#### 11.3.1. Umumiy ma’lumotlar

Axborot so‘zini saqlashni ta’minlovchi va hisoblash mikrooperatsiyasini bajaruvchi ketma-ketlik raqamli qurilmaga hisoblagich deyiladi. Hisoblash mikrooperatsiyasida C sonini hisoblagichda q1 ga o‘zgartiriladi. Hisoblash mikrooperatsiya bajarilishida C:qC=1, – esa ayiruvchi deyiladi. Har ikkala mikrooperatsiya bajarilishi mumkin bo‘lsa, hisoblagichni reversiv deb ataladi.

Hisoblagichning asosiy parametri  $K_s$  hisoblagich moduli, hisoblagich hisoblashi mumkin bo‘lgan maksimal birlik sondir. Hisoblagich n ikkilamchi razryadga ega bo‘lib,

$0, 1, 2, \dots, 2^n - 1$  holatlarida bo‘lishi mumkin. Summalovchi hisoblagichning kirish qismiga  $2n$  birligi kelganida, u  $2^n - 1$  holatidan 0 holatiga o‘tadi. Shunday qilib,  $n$  – razryadli ikkilamchi summalovchi hisoblagich hisoblash moduli  $K_{sq} 2^n$  bo‘ladi.

Hisoblagichlar, ruxsat etilgan kirish signallari chastotasi bilan ham xarakterlanadi. Hisoblagichlar odatda T triggerlardan tuziladi. Lekin ularni tuzishda nafaqat hisoblagichli kirishga ega bo‘lgan triggerlar, D triggerlar, JK triggerlar ham qo‘llaniladi. Hisoblagichlarni bir necha xususiyatlari bo‘yicha tasniflash (sinf-larga bo‘lish) mumkin. Hisoblash yo‘nalishiga binoan summalovchi (to‘g‘ri hisobli) va ayiruvchi (teskari hisobli) bo‘ladi. O‘tkazish sxemasi bo‘yicha, hisoblagichlar ketma-ket, parallel va ketma-ket – parallel o‘tkazuvchanlarga bo‘linadi.


Sinxronizatsiyasi mavjudligi bo‘yicha sinxron va asinxron hisoblagichlarga bo‘linadi. Hisoblagichni tamg‘alab (markirovka) belgilashda IE harflari bilan tasvirlanadi. Konstruktiv jihatidan triggerlar integral sxemalar majmuasi ko‘rinishida, mos ravishda ulangan bo‘lib, yoki ko‘prazryadli hisoblagichli bitta integral sxe-madan tashkil topadi.

### 11.3.2. Summalovchi ikkilik hisoblagichlar


$n$ -triggerlardan tashkil topgan ikkilik  $n$ -razryadli summalovchi hisoblagichda, raqamlar ketma-ketligi hisobi amalga os-hiriladi. Bunday ketma-ketlik 0 dan bog‘lanadi. Bunday ketma-ketlik, navbatdagi son avvalgisiga bir birlik qo‘shilishi bilan aniqlanadi. Ketma-ketlik maksimal  $2^n - 1$  soniga erishilganida, u yana 0 dan o‘tadi va takrorlanadi.  $n$ -triggerli hisoblagichda mumkin bo‘lgan holati  $2^n$ , hisoblash moduli  $K_C$  ham shuningdek  $2^n$  bo‘ladi. Hisoblagichning har bir holatiga hisoblash ketma-ketligi da 0 dan  $2^n - 1$  gacha son mos keladi. Summalovchi 3 razryadli ikkilik hisoblagichini ko‘rib chiqaylik. Bunday hisoblagichda 0 dan  $2^3 - 1 = 7$  gacha ketma-ketlikni amalga oshirish mumkin.

Raqamlar ketma-ketligi 3-razryadli ikkilik soni  $b_3b_2b_1$ : 000, 001, 010, 011, 100, 101, 110, 111 ikkilik sonlari bilan berilishi mumkin. Har bir razryad  $b_1$  ga trigger chiqish soni  $Q_i$  ni qo'yamiz. 3-razryadli  $Q_3Q_2Q_1$  chiqishlari bilan hisoblagichda 0 dan 7 gacha raqam ketma-ketligi amalga oshiriladi.

Hisoblagich ikki pog'onali hisoblash kirishiga ega bo'lgan T triggerlarda tuziladi. Summalovchi 3-razryadli ikkilik hisoblagichning sxemasi 10.22-rasmida keltirilgan. Ushbu sxemada hisoblagichning boshlang'ich holati, shinaga boshqaruvchi signal berilib o'tkaziladi.



11.23-rasm.



11.22-rasm.

Kirish signali  $C_0$  shinadan tugashi bilan, trigger 1 ning hisoblash kirish qismiga beriladi. Hisoblagichning ishslash prinsipi 11.22,b-rasmdagi vaqt diagrammasini orqali tushunish mumkin.

Birinchi signal kelguniga qadar, hisoblagich nolinchi holatda bo‘ladi. Bu holatda  $Q_3Q_2Q_1$  chiqish qismlarida 0 birlikka mos ke-ladi. Shinadan  $C_0$  kirish signali birinchi triggerga kelishi bilan hisoblagich ishlay boshlaydi. Birinchi signal kelishi bilan 1-trigger 1 holatiga o‘tadi va uning chiqish qismida  $Q_{q1}$  sath belgi-lanadi.

Triggerlar 2 va 3 larni hisoblash kirish qismlarida 1ni 0 ga o‘zgarishi kutilmaydi. Shuning uchun triggerlarda  $Q_{2q0}$ ,  $Q_{3q0}$  holatlar saqlanadi. Ikkinci signal kelishi bilan 1-trigger 0-holatga o‘tadi. Uning chiqish qismida sathning o‘zgarish vaqtি  $Q_{1q1}$ ,  $Q_{1q0}$  ga 2-trigger 1-holatga o‘tadi va uning chiqish qis-mida  $Q_{2q1}$  sath o‘rnataladi. 3-triggerning holati o‘zgarmaydi. 3-trigger, 1-triggerning hisoblash kirish qismiga tartib bo‘yicha 4-hisob signali kelganidagina 1-holatga o‘tadi. Bunda 1-trigger 1-holatdan 0-holatga o‘tadi. 1-holatdan 0-holatga o‘tishda, ik-kinchi kirish qismida sath birdan nolga o‘zgarishiga olib keladi. Natijada 2-trigger 1-dan 0 holatiga o‘tadi. Bunday o‘tish sathni 1 dan 0 ga 3-hisoblash kirish qismida o‘zgarishga olib kela-di. Natijada 3-triggerni  $Q_3$  chiqish qismlida 1 sath o‘rnataladi. Bunda 1- va 2-triggerlarning chiqish qismlarida 0 sath bo‘ladi. Natijada, hisoblagichda to‘rt (4) raqami ikkilik ko‘rinishida belgilanadi. Bu esa, to‘rtinchı signal kelishi vaqtiga mos ke-lishini belgilaydi.

Sakkizinchı signal kelish vaqtida triggerlar  $Q_3Q_2Q_1$  chiqish qismlarini 1 birlik sath o‘rnataladi. 1-triggerning hisoblash kirish qismiga sakkizinchı signal kelishi bilan uning holati 1 dan 0 ga o‘tadi. O‘z navbatida, 1-trigger holati o‘zgarishi 2-trigger holatining o‘zgarishiga olib keladi. 2-trigger holatining o‘zgarishi esa, 3-trigger holati o‘zgarishiga olib keladi.

Natijada hamma tırgerlar 0 holatga o‘tadi. Hisoblagich sak-kiz signaldan iborat yangi ketma-ketligi tayyor bo‘ladi. Hisoblagichni ishlash qonuniyati 11.7-jadval ko‘rinishida, shartli belgi-lanishi esa, 11.23-rasmdagidek tasvirlash mumkin.

Hisoblagichning ishlashini uning avvalgi raqamiga bir birlikni qo‘sish jarayonidek tasavvur etish ham mumkin.

Bunday qo'shish ikkilik tizimida, sonlarni qo'shish operatsiyasi qoidasi bo'yicha bajariladi. Bunda quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1) agarda, hisoblagichning avvalgi qiymati kichik razryadida 0 bo'lsa, qo'shishda faqat kichik razryad 1 ga o'zgaradi;

2) agarda m-kichik razryadlarda 1 birlik bo'lsa, hamda mql—razryadda 0 bo'lsa, m-raqami kichik razryadlarda 0 qiymatiga o'zgaradi, (mql)—razryadda esa 1 qiymatiga o'zgaradi.

Masalan,

1)  $\begin{array}{r} \text{q110} \\ \hline 1 \\ \hline 100 \end{array}$

2)  $\begin{array}{r} \text{q011} \\ \hline 1 \\ \hline 100 \end{array}$

*11.7-jadval*

Kombinatsiya tartibi	$C_0$	Triggerlar holati					
		$Q'_3$	$Q'_2$	$Q'_1$	$Q'^{+1}_3$	$Q'^{+1}_2$	$Q'^{+1}_1$
1	1	0	0	0	0	0	1
2	1	0	0	1	0	1	0
3	1	0	1	0	0	1	1
4	1	0	1	1	1	0	0
5	1	1	0	0	1	0	1
6	1	1	0	1	1	1	0
7	1	1	1	0	1	1	1
8	1	1	1	1	0	0	0

*11.8-jadval*


$b_i$	$\Pi_i$	$C_i$	$\Pi_{ih}$
0	0	0	0
0	1	1	0
1	0	1	0
1	1	0	1

$b_1, \dots, b_n$ —qo'shishdan avvalgi razryad raqamlari soni,  $C_1, \dots, C_n$  – bir birlikka qo'shilganda so'nggi razryad raqamlari soni. ( $i-1$ )-

razryadda qo'shishda shakllangan sonni o'tkazishni  $\Pi$ -deb belgilasak. Bundan, i-razryadda shakllanuvchi o'tkazish  $\Pi_{iq1}$  bo'ladi. Bir birlik bilan, i-razryad sonini qo'shish qonuniyati 11.8-jadval ko'rinishida berilishi mumkin. Hisoblagichning birinchi razryadining kirish qismiga 1 birlik kelishini  $\Pi$  o'tkazish ko'rinishida tasvirlash mumkin. 11.8-jadvaldan  $C_i = b_i \bar{\Pi}_i \vee \bar{b}_i \Pi_i$  qiymat  $\Pi$  o'tkazish i-razryadning hisoblash kirishiga berilganida,  $b_i$  saqlagan qiymatda o'rinni bo'ladi. (iq1)-razryadni o'tkazish  $\Pi_{i+1} = b_i \Pi_i$  tenglama orqali aniqlanadi.

Ko'rib o'tilgan hisoblagich, ketma-ket ulangan T triggerlarda qurilgan. Hisoblagichning har bir keyingi razryadi avvalgi razryad chiqish qismida shakllangan signal bilan bog'liq bo'ladi. Signal lar hisoblash uchun, triggerni eng kichik razryadi kirish qismiga beriladi. Bunday tuzilgan hisoblagichni, ketma-ket uzatuvchi hisoblagich deb ataladi. 11.22, b-rasmdagi vaqt diagrammalari dan ko'rindiki, n-razryadli hisoblagichda yangi holati  $nt_{\Pi}$  kechikish bilan shakllanadi, bu yerda  $t_{\Pi}$  - triggerni bir holatidan ikkinchi holatiga o'tish vaqt.

11.24-rasmida  $C_i$  va  $\Pi_{iq1}$  ifodani amalga oshiruvchi hisoblagichning sxemasi keltirilgan. J va K kirish qismlari o'zaro ulangan va birlgilidagi kirish qismiga o'tkazish beriladi.




**11.24-rasm.**

Hisoblash lozim bo‘lgan signallar triggerlarning sinxronlovchi kirish qismiga beriladi. O‘tkazishni shakllantirish uchun «I» sxe-masi qo‘llanilgan.

Hisoblagichning «0 ga qo‘yish» zanjiriga signal berilib, 0-holatiga keltirish mumkin. Har bir kirish signali bilan hisoblagichda-gi raqam qiymati bir birlikka ortadi. Hisoblagichda nolinchi holat (boshlang‘ich)  $2^3$  signal kelishi bilan sodir bo‘ladi. Ko‘rilayotgan hisoblagichda o‘tkazish ketma-ket o‘tkazishdir. Hisoblagichda razryadlar soni ortishi bilan, tutilib o‘tish vaqtini ortadi. Bunday tutilib o‘tish vaqtini, kirish qismiga berilayotgan signalning maksimal chastotasini chegaralaydi va shuning natijasida hisoblagichning tezkorligini ham chegaralaydi. Tutilib o‘tish vaqtini kamaytirish uchun parallel o‘tkazish hisoblagichi qo‘llanilishi mumkin (11.25, a-rasm). Hisoblagichning shartli belgisi 11.25, b-rasmida keltirilgan. Ushbu sxema uchun mantiqiy o‘tkazish ifodasi quyidagicha bo‘ladi:


$$\Pi_1 = I; \Pi_2 = b_1; \Pi_3 = b_1 b_2; \dots \dots \dots \Pi_n = b_1 b_2 \dots b_{n-1}$$



11.25-rasm.

Bu yerda tutilib qolish faqatgina «I» sxemaga bog'liq bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, bunday uslubda, hisoblagich sxemasi, ko'p kirish qismiga ega bo'ladi. «I» sxemalarni qo'llanilishidan murakkablashadi. Bundan tashqari, hisoblagich sxemasiga, razryaddan razryadga ortishida «I» sxema qo'llanilishi bilan, uning struktura sxemasidagi bir turlilik o'zgaradi. Shuning uchun ko'p razryadli hisoblagichlarni qurishda parallel-ketma-ket o'tkazuvchanlikli sxemalar qo'llaniladi.

Parallel-ketma-ket o'tkazuvchanlikli hisoblagich sxemasi triggerlar guruhidan iborat bo'lib, har birini ichida parallel, guruhlararo esa, ketma-ket o'tkazuvchanlikni tashkil etadi. 11.26-rasmda parallel o'tkazuvchanli hisoblagichlardan tuzilgan.



**11.26-rasm.**

Bunday hisoblagichning har bir kirish qismiga beshta kirishli «I» elementi ulangan. Avvalgi guruh triggerlari bir birliklar bilan to'lganida, unda keyingi guruhga o'tkazish signali shakllanadi. Ko'p razryadli hisoblagichda kechikish hisoblagich guruh soniga proporsional bo'ladi.

### 11.3.3. Ayiruvchi va reversiv ikkilik hisoblagichi

Ayiruvchi hisoblagichlarda navbatdagi hisoblash signali keliishi bilan, avvalgi natija bir birlikka kamayadi. Ayiruvchi ikkilamchi n-razryadli hisoblagichda,  $2^n - 1$  dan boshlab 0 gacha raqamni ketma-ket hisoblash amalga oshiriladi. Bu ketma-ketlikda, navbatdagi raqam, avvalgi raqamdan bir birlikni ayirish bilan hosil bo'ladi. Qiymat 0 hosil bo'lganidan so'ng, ketma-ketlik takrorlanadi. Ayiruvchi hisoblagich holatini o'zgarish taribi 11.9-jadvaldagidek yozilishi mumkin. Jadvaldan ko'rindaniki,


summalovchidan ayiruvchi hisoblagichning yana bir farqi: har bir navbatdagi trigger signal kelganida, summalovchi hisoblagichda teskari signal o'tkazilishi bilan boshqa holatga o'tadi.

11.9-jadval

Kombinatsiya tartibi	$C_0$	Triggerlar holati					
		$Q'_3$	$Q'_2$	$Q'_1$	$Q'^{+1}_3$	$Q'^{+1}_2$	$Q'^{+1}_1$
1	1	1	1	1	1	1	0
2	1	1	1	0	1	0	1
3	1	1	0	1	1	0	0
4	1	1	0	0	0	1	1
5	1	0	1	1	0	1	0
6	1	0	1	0	0	0	1
7	1	0	0	1	0	0	0
8	1	0	0	0	1	1	1

11.10-jadval

$b_i$	$P_i$	$C_i$	$P_{iq1}$
0	0	0	0
0	1	1	1
1	0	1	0
1	1	0	0



11.27-rasm.

Shuning uchun ham ayiruvchi hisoblagichlarda, summalovchidan farqli, har bir navbatdagi triggerlarning kirish qismi

bilan avvalgisining inversli chiqish qismi ulanadi. 11.27-rasmda ketma-ket o'tkazuvchi ayiruvchi hisoblagichning sxemasi keltirilgan.

Ayiruvchi hisoblagichni, i-razryadini ishslash prinsipini, mantiqiy o'tkazish  $\Pi_{i_0} 1$  va ayirma  $C_1$  bilan 11.9-jadvaldagidek yozish mumkin. Jadval ikkilik raqamidan bir birlikni ayirish xususiyati analizi asosida hosil bo'ladi. 11.10-jadvaldan mantiqiy ifodani yozish mumkin

$$C_i = \bar{b}_i \Pi_i \vee b_i \bar{\Pi}_i \quad \Pi_{i+1} = \bar{b}_i \Pi_i.$$

Ayirma  $C_i$ , yig'indi hisoblagichdagidek ifodadan aniqlanadi, shuning uchun T triggerning hisoblash kirish qismiga o'tkazish uzatilishi kerak. Summalovchi hisoblagichdan farqli o'laroq, ifodada  $\Pi_{i_0 1}$  uchun  $b_i$  o'rniiga  $\bar{b}_i$  ishlatiladi. Demak, o'tkazishni shakllantiruvchi «I» elementlarga triggerlarning inversli chiqish qismidan signal uzatiladi. Ayiruvchi ikkilik hisoblagichlarning ishslashini tezlashtirish maqsadida, parallel va parallel—ketma-ket uzatuvchilik sxemalar qo'llanilishi mumkin.



Reversiv hisoblagichda, summalovchi va ayiruvchi hisoblagichlar sxemalari umumlashtiriladi. Bundan tashqari, hisoblagich yo'nalishini boshqarish imkoniyati mavjud, buning uchun qo'shimcha KSU ko'zda tutiladi. T triggerli reversiv hisoblagichda (11.28, a-rasm), hisoblash signallari T triggerni kirish qismiga, agarda ular birlik signali orqali ochilgan bo'lsa, mantiqiy element orqali keladi. Hisoblash signallari uchun, ikkita kirish ko'zda tutilgan. Agarda hisoblagich summalovchi bo'lib yig'ilsa, hisoblash signallarining kirish qismiga  $q_1$  uzatiladi. Ayirish hisoblagichi uchun esa kirish qismiga -1 birlik uzatiladi. Hisoblagichning chiqish qismida belgilangan  $>15$ -bo'lsa, hisoblagichda 15-nomerli o'tishda signal paydo bo'ladi va hamma triggerlar 1 birlikka ega.

Bu chiqish qismida navbatdagi hisoblagichga o'tish signali shakllanadi. Chiqish qismida,  $<0$  hisoblagich nollar bilan to'lganida signal paydo bo'ladi.


Ikki kirishli reversiv hisoblagichning shartli belgisi 11.28-rasmda keltirilgan.

Agarda reversiv hisoblagichni, bir signal manbasini tuzish tabab etilsa, summalovchi q1 yoki ayiruvchi – kirish qismlarini ulab-uzish uchun maxsus PSU ko'zda tutiladi (11.29-rasm).


Signalni  $C_c$  kirish qismiga berilganida RS trigger bir birlik holatida bo'ladi. Hisoblash  $C_0$  signallari reversiv hisoblagichlarning kirishiga keladi, bunda u summalovchi bo'lib ishlaydi. Signalni  $C_B$  kirish qismiga berilganda RS trigger nol holatida bo'ladi. Hisoblash signallari  $C_0$  kirishdan 1 kirishga keladi va hisoblagich ayirish rejimida ishlaydi.



11.28-rasm.



**11.29-rasm**




**11.30-rasm.**

### 11.3.4. Sinxron va asinxron ikkilik hisoblagichlar

Triggerlar holati bir vaqtida hamma triggerlar kirish qismida sinxronlashtiruvchi signal ta'sirida o'zgaruvchi ikkilik hisoblagichlari sinxron nomi bilan ataladi. 11.31, a-rasmda esa uning shartli belgisi keltirilgan.

Sinxron hisoblagichlar, sinxron raqamli tizimlarda qo'llaniladi. Ketma-ket raqamli qurilma bunday tizimlarda bir-biriga bog'liq bo'ladi va umumiy sinxronlashtiruvchi signal orqali boshqariladi. Bunday sharoitda hamma PSU lardagi hamma triggerlar o'z holatini, sinxronlashtiruvchi signal bo'yicha bir vaqtida o'zgartirishi,

triggerlarning navbatdagi holatini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu yerda qo'llaniladigan to'g'ri o'tuvchi sxema, oddiy ikki kirishli «I» sxemaning qo'shilishi bilan sodir bo'ladi. Lekin n-razryadli hisoblagichning o'ng tomoni T kirish qismi qiymatini aniqlash uchun, bitta I-sxemasi orqali signal tarqalish vaqtiga mos bo'lgan vaqtini a-1 ko'paytiriladi. Sinxron hisoblagichlar turli sxemalar, summalovchi va ayiruvchi hisoblagichlarni (11.24, 11.25, 11.28-rasmlarga qarang) ko'rganimizda foydalanylган edi.




11.31-rasm.

Asinxron hisoblagichlarda triggerlarning sinxronlovchi kirish qismlari qo'shni triggerlarning kirish qismlari bilan ulanadi. Shuning uchun trigger holati, tashqi sinxronlashtiruvchi signal ta'siriga javoban emas, balki qo'shni trigger holati o'zgarishiga javoban o'zgaradi. D triggerli, dinamik boshqaruqli asinxron hisoblagich sxemasi 11.32, a-rasmda keltirilgan, 11.32, b-rasmda esa uning shartli belgilanishi keltirilgan.

To‘g‘ri dinamik kirishli triggerlar holatini o‘zgartirish, 0 sathni 1 sathga o‘zgarish orqali amalga oshiriladi.

Ketma-ket o‘tkazuvchi asinxron hisoblagichlarda har bir navbatdagi triggerlarni kirish qismlari, avvalgisining inversli chiqish qismi bilan ulanadi. Hisoblash signallari  $C_0$  kirishga keladi. «0» ga o‘tkazish kirishga keladigan signal yordamida hisoblagichni boshlang‘ich holatga o‘tkazish mumkin. Asinxron hisoblagichlar katta tezlikda hisoblash imkoniyatini ta’minlaydi. Buni quyidagicha tushunish mumkin, hisoblagichni birinchi triggerini ulab-uzganidan so‘ng, unga navbatdagi signalni hamma hisoblagichdan o‘tgan signalni kutmasdanoq berilishi mumkin. Aytib o‘tilganlarni hisobga olib, ta’kidlash mumkinki, summalovchi, ayiruvchi, reversiv hisoblagichlar, asinxron va sinxron hisoblagichlar tarzida bajarilishi mumkin.



11.32-rasm.

### 11.3.5. O‘nlik hisoblagichlar


Amalda hisoblagichlarni ikkilik razryad sonli tarzda tuzishda ixtiyoriy  $K_C$  moduli bo‘yicha quyidagi shart bo‘yicha tuzish tablab etiladi:

$$2^n \leq K_c \leq 2^{n+1}$$

Bunda hisoblagichda ortiqcha holatlar bo‘lmasligini ta’minlaydi. Bunday hisoblagichlar tuzilishining xususiyatini o‘nlik hisoblagich misolida ko‘ramiz. Hisoblagichni  $K_{sq} = 10$ -lisini qurish uchun 4-razryadli ikkilik hisoblagichda, holatini 16 dan 10 ga kamaytiriladi. O‘nli hisoblagichda hisoblash ketma-ketligi ikkilik-kodlangan o‘nli kod ( $Q_4, Q_3, Q_2, Q_1 - 8421$ ) ko‘rinishida

berilishi mumkin. Bunda har bir o‘nli raqam 4-razryadli ikkilik soni bilan kodlanadi.

Summalovchi o‘nli hisoblagichda, hisoblash ketma-ketligi, ikkilik ketma-ketligi 0000 dan 1001 gacha mos keladi, so‘ng esa 0 keladi va ketma-ketlik takrorlanadi. 11.33-rasmida JK triggerli, mantiqiy kirishli o‘nli hisoblagich sxemasi keltirilgan.



11.33-rasm.

O‘nli hisoblagich 4-razryadli ikkilik summalovchi hisoblagich  $\bar{Q}_4$  parallel o‘tuvchi, 2-J-triggerni kirish qismiga ulanadi. Hisoblagichda sakkizta signalni qabul qilganidan so‘ng, uning chiqish  $Q_1Q_2Q_3Q_4$  qismlarida 0001 sathlar o‘rnataladi. Bunda J trigger 2 ning kirish qismiga nolinchi sathli  $\bar{Q}_4$  ga beriladi. To‘qqizinchi signaling kelishi bilan Q trigger chiqish qismida 1 birlik sath belgilanadi. O‘ninchi signaling kelishi bilan 1-trigger va 4-triggerlar nolinchi holatga o‘tadi. 2- va 3-triggerlar esa nolinchi holatida qolaveradi. O‘ninchi signal bilan hisoblagich boshlang‘ich holatga qaytadi va jarayon takrorlanadi. O‘nli hisoblagichni ish-lash funksiyasi 11.10-jadvalda keltirilgan.

Umumiy holda,  $K_C$  moduli bo‘yicha hisoblagichni qurish uchun, ikkilik hisoblagich ortiqcha holat bo‘lmasligini ta’minlash maqsadida unga teskari aloqa kiritiladi.

Ikkilik summalovchi yoki ayiruvchi hisoblagich, qandaydir  $K_C$  qiymatgacha ulab-uziladi. Bu holati maxsus sxema orqali aniqlanib, uning chiqish qismida hisoblagichni nol holatiga keltirish uchun signal shakllanadi. Hisoblagichlarni  $K_C$  moduli bo‘yicha


sxemalari, ikkilik hisoblagichni ketma-ket o'tkazish bo'yicha qo'llanilganida nisbatan oddiy bo'ladi. Shu uslubda o'nli hisoblagich qurilishini ko'raylik (11.34-rasm).

Hisoblagichning ishlash prinsipi quyidagicha:

Hisoblagich boshlang'ich nol holatidan boshlab, hisoblash signalari ketma-ketligini qabul qiladi. 5-trigger 0 holatida bo'ladi. «I» elementi o'ninchi signal kelganidan boshlab ishga tushadi ( $Q_4 Q_3 Q_2 Q_1$  1010 triggerlarni chiqish qismlaridagi kombinatsiyalari) va 5-triggerni 1 holatiga o'tkazadi. O'n birinchi signal kelguniga qadar hisoblagichni hamma razryadlari  $\bar{Q}_5$  o'tkazish signali orqali nol holiga o'tkaziladi. Hisoblagichga o'nta signal kelishi bilan u avvalgi boshlang'ich holatiga qaytadi. O'n birinchi musbat signal 5-triggerni boshlang'ich 0 holatiga qaytaradi. Hisoblagichni ishidagi xavfli holatli buzilishni oldini olish maqsadida, 5-, RS triggerda I elementining kirish qismiga ulangan. 5-trigger, ulab-uzib, chiqish qismida birlik darajani navbatdagi hisoblash signali kelguniga qadar saqlaydi.

### 11.10-jadval

Kombinatsiya nomeri	Kirish	Triggerlar holati							
		$Q'_4$	$Q'_3$	$Q'_2$	$Q'_1$	$Q'^{+1}_4$	$Q'^{+1}_3$	$Q'^{+1}_2$	$Q'^{+1}_1$
1	1	0	0	0	0	0	0	0	1
2	1	0	0	0	1	0	0	1	0
3	1	0	0	1	0	0	0	1	1
4	1	0	0	1	1	0	1	0	0
5	1	0	1	0	0	0	1	0	1
6	1	0	1	0	1	0	1	1	0
7	1	0	1	1	0	0	1	1	1
8	1	0	1	1	1	1	0	0	0
9	1	0	0	0	0	1	0	0	1
10	1	0	0	0	1	0	0	1	0




11.34-rasm.

### 11.3.6. Chastota bo‘luvchilar

Chastota bo‘luvchilarida kirish signallarini davriy ketma-ketligi uning chiqish qismida N marta kichik bo‘lgan davriy ketma-ketlik signallarini shakllantiradi.

### 11.3.7. Taqsimlagichlar


Bunday qurilmalarda biror kirish qismiga kelayotgan signallar, N chiqishlarga shunday taqsimlanadiki, har bir takt navbati bilan N chiqishlarning birida nomerlanish tartibi bilan bittadan signal chiqadi. Taqsimlagichlar raqamli sistemalarning boshqaruvchi qurilmasi bo‘lib, u berilgan dastur bo‘yicha ishlaydi. 11.35-rasmda halqali hisoblagichning sxemasi keltirilgan. Boshlang‘ich holida 1-trigger birlik holatida bo‘lib, boshqa triggerlar esa nol holatida bo‘ladi.



11.35-rasm,

Hisoblagichning kirish qismiga kelayotgan signallar, uni bir holatidan ikkinchisiga davri uchgaga teng bo‘lgan holatda o’tkazadi. Mos ravishda chiqish qismiga  $Q_1$ ,  $Q_2$  va  $Q_3$  navbatma-navbat chi-

qish signallari paydo bo‘ladi. Har bir berilgan vaqtida chiqish signalni, faqatgina birorta chiqishidagina mavjud bo‘ladi.



11.36-rasm.

Taqsimlagichlarni ikkilik hisoblagichlaridan foydalanib qurish mumkin. Bunday chiqish zanjirini boshqarish va ajratish uchun deshifrator talab etiladi. 11.36-rasmda (F-shakllantirgich) ikkilik hisoblagichida deshifratorni foydalanish sxemasi keltirilgan. Ushbu sxemada chiqish signallari davriy ( $2^k$  davrli) ravishda chiqish  $Y_0$ ,  $Y_1$ , ...,  $Y_2$  k zanjirlarida paydo bo‘ladi. Bunda har bir momentda siqish signalni faqatgina birortasida  $Y_0$ ,  $Y_1$ , ...,  $Y_2$  k paydo bo‘ladi.


### 11.3.8. Summatorlar

Algebraik qo‘sishish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish operatsiyasini bajarishda, qo‘sishish, siljish, invertorlash mitti operatsiyalarini ketma-ket bajarishga asoslanadi. Ushbu operatsiyalarni bajarish uchun, o‘z tarkibida registrlari bo‘lgan summatorlardan foydalaniadi. Bunday summatorlar yig‘uvchi summatorlar deb ataladi. Yig‘uvchi summator o‘z tarkibida registrga ega. Mitti operatsiyadan avval yig‘indi saqlanadi, mitti operatsiyadan so‘ng C:qCqY – summa bo‘ladi. Kodlarning kiritilishiga qarab, yig‘uvchi summatorlar ketma-ket va parallel ta’sirli turlariga bo‘linadi. Ketma-ket ta’sirli (11.37-rasm) summator, bir razryadli summatoridan iborat bo‘lib, uning chiqish qismi kirish qismiga D-trigger va siljish

registri orqali ( $R_{G1}$  va  $R_{G2}$ ) qo'shiluvchilar razryadlari va ( $R_{G3}$ ) qabul razryadi yig'indilari orqali ularadi. Summatorda kodlar so-ni ketma-ketlikda avval kichik razryadi kiritiladi. Birinchi taktli signal bilan summatorga  $R_{G1}$  va  $R_{G2}$  registrlardan  $X_1$  va  $Y_1$  tashkil etuvchilarning birinchi razryadli raqamlari beriladi. D triggerni o'tishidan  $\Pi_i$  kirishga 0-signal o'tishi beriladi. Summator  $\Sigma$ -da  $R_{G3}$  registrga keluvchi  $S_1$  birinchi razryad summasi shakllanadi. Keyingi  $\Pi_{iq1}$  razryadda shakllangan o'tish triggerni kirish qismiga keladi. Keyingi taktda hamma registrlarda bir razryadga o'ngga siljish amalgaga oshiriladi.

Sxema navbatdagi razryadli  $X_2$  va  $Y_2$  sonlarni summalash uchun tayyorlangan bo'ladi. Jarayon X va Y raqamlar razryadlari ni qo'shish uchun siklik (davriy) takrorlanadi.


Parallel summatorдан boshlang'ich signalni berish uchun, avval  $S:q0$  mitti operatsiya bajariladi. Yig'uvchi summator, registrda saqlash va kombinatsiyalash uchun  $C:qXqY$  yordamida summa hisoblashdan iborat bo'ladi.



**11.37-rasm.**

Bir razryadli yig'uvchi elementda summator sifatida hisoblagichli kirish qismiga ega bo'lgan trigger qo'llanilishi mumkin.

Agar  $T_i$  triggerni avvaldan belgilangan 0 holatida hisoblash kirish qismiga,  $X_i$  va  $Y_i$  hamda  $\Pi_i$  o'tkazishni ketma-ketlik bir razryadli signallar sifatida berilsa, bu jarayon tugatiladi, trigger bir razryadli summa qiymatini aniqlovchi holatiga o'tadi. Keyingi razryadga o'tkazish signali  $P_{iql}$ , agarda signaldan  $Y_i$  yoki  $\Pi_i$  trigger birlik holatidan nolinchisiga o'tadi.



11.38-rasm.

Oddiy ikkilik hisoblagichli kirishga ega bo'lgan triggerli o'tkazuvchanli sxemasi 11.38-rasmdagidek tuziladi. Ikkilik soni  $X_q X_n X_{n-1} \dots X_1$  va  $Y_q Y_n Y_{n-1} \dots Y_1$  ikkilik sonlarni qo'shish uch taktda bajariladi. Birinchi taktda  $C:q0$  mitti operatsiya 0 bajariladi. Ikkinci taktda, summatorga birinchi  $C:qX$  yig'indi kiritiladi. Bunday mos holdagi summator triggerlari birlik holatiga o'tadi. Uchinchi taktda, triggerni hisoblash kirishiga  $Y$  yig'indi kodi keladi. Agarda triggreni i-razryadi 1 holatda bo'lib, uning kirishiga  $Y_{iql}$  signali keladi va trigger 0 holatiga o'tadi. Bunday triggerning nolinchini kirish qismida keyingi razryadga o'tkazish signali shakllanadi. Agarda triggerni ( $iq_l$ ) keyingi razryadi 1 holatida bo'lsa, bu triggerni o'tkazish signali 0 holatiga o'tkazadi. O'tkazish tugaganidan so'ng, triggerlar summatorlari,  $C:qXqY$  summa kodi ga mos holatiga o'tkaziladi. O'tkazish signali, summatorni katta razryadidan summatorni to'ldirilganiga mos keladi.

Yig'uvchi summator, arifmetik va mantiqiy ko'p razryadli ikkilik sonlarining operatsiyalarini bajarish uchun, asosiy registr

bo‘lib xizmat qiladi. U, shuningdek, nisbatan murakkab PSU lar axborotni qayta ishlashda, ya’ni arifmetika-mantiqiy qurilmalar-da ham qo‘llaniladi.

## 11.4. Xotirada saqllovchi qurilmalar

### 11.4.1. Vazifasi, turlari. Ularning asosiy tasniflari, klassifikatsiyasi

Zamonaviy raqamli texnikada, xususan mitti protsessorlarda, turli xotira qurilmalari qo‘llaniladi. Ular oddiy triggerlardan va registrlardan, katta sig‘imli tashqi xotira qurilmalarigacha. Bir bit axborotni xotirada saqlash uchun, xotirada saqllovchi element (ZE), masalan, trigger bo‘lishini talab etiladi. Ko‘p razryadli, bir necha bitli, sonlarni xotirada saqlash uchun esa, xotira bo‘lagi, bir necha xotirada saqllovchi element (ZE) talab etiladi.

Hozirgi vaqtida axborotni adresli prinsipda saqlash qo‘llaniladi. Har bir xotira bo‘lagida (adresida), qaysiki aniq yoki noaniq ko‘rinishida xotiraga har bir murojaatida ko‘rsatilishi lozim. Adresli xotira qurilmasidan tashqari assotsiativ xotira qurilmalari ham cheklangan holda qo‘llaniladi.

Hotira qurilmalarini klassifikatsiyalashda quyidagilarni ajratish mumkin: oraliq ma’lumotlarni o‘ta tezkor xotirada saqlash; katta hajmdagi ma’lumotlar va dasturlarni tashqi xotira qurilmasida saqlash. Tashqi xotirani tashkil etuvchi ushbu xotira qurilmalari odatda, alohida periferiyali qurilma sifatida MP tizimiga (interfeys) orqali ulangan. Bundan tashqari katta sonli buferli xotira qurilmalari qurilmalar bilan axborotni o‘zaro almashtirish jarayonida vaqtiy parametrlarni moslashtirish uchun qo‘llaniladi.

O‘ta tezkor va tezkor xotiralarni tezligiga va buferli xotira qurilmalariga yuqori darajali talablar qo‘yiladi. Hozirgi vaqtida ular yarim o‘tkazgichli bipolyar va MOP tranzistorlarda integral mittixemalarda bajariladi. Tashqi xotira qurilmalarining tezkorligiga talab pastroq, lekin ular katta sig‘imda va axborotni birlik saqlashda past tannarxida bo‘lishi talab etiladi. Bunday xotira qurilmalarini tayyorlashda keng ko‘lamda turli tipdagi magnitli xotira elementlari qo‘llaniladi. Ular asosida axborot massivlarini

saqlashga imkoniyat yaratadigan yig‘uvchilar shakllanadi. Bulardan eng ko‘p tarqalganlari, magnit diskli (NML) va magnit lentali (NML) yig‘uvchilardir.

Axborotlarni saqlash uslubi bo‘yicha xotira elementlari statik va dinamik xotira qurilmalariga bo‘linadi. Statikda bistabil xotira elementi, dinamikda esa, maxsus shakllantirilgan zaryad uchun, yarim o‘tkazgich kondensatori strukturasida qo‘llaniladi.

Axborotga kirish bo‘yicha, xotira qurilmasi ixtiyoriy kirishli va ketma-ket kirishlilarga bo‘linadi.

Ixtiyoriy kirishlida, alohida xotira elementiga yozib olish yoki o‘qish uchun, har qanday talab etilgan konkret sharoit holatida kirish mumkin. Ketma-ket kirishda alohida xotira elementiga, faqatgina ular nomeri (adreslari) ortuvchi yoki kamayuvchi bo‘lganida murojaat etish nazarda tutiladi. Bunday kirish tashqi xotira uchun xarakterlidir.

Tezkor xotiraga kiruvchi xotira qurilmalari, operativ (qisqa-chi OZU yoki RAM) va doimiy larga bo‘linadi. Operativ xotira qurilmalari qisqa vaqtarda axborotlarni saqlab turish uchun, doimiysi esa o‘qish uchun uzoq vaqt saqlanishi mumkinligiga bag‘ishlangan bo‘ladi. Agar operativ xotira (OZU) ta’minlovchi kuchlanish o‘chib qolganida axborot yo‘qolib qolsa, doimiy xotira qurilmasida axborot yo‘qolmaydi va saqlanadi.

Doimiy xotira qurilmalari bir necha guruhlarga bo‘linadi. Xotira qurilmasining bir qismiga axborot ularni tayyorlanishida yoziladi. Buning uchun individual maskalar, yarim o‘tkazuvchi kristallarda, elementlarni ulanish ketma-ketligi berilgan holda bo‘lganligidan, ularni maskali xotira qurilmasi deb ham atashadi. Qisqacha ular PZU yoki ROM deb belgilanadi. Boshqa guruha doimiy xotira qurilmalari, axborotlarni bir marotabali (dasturlash) yozishni ta’minlaydi. Buning uchun har bir xotira elementga dasturlashda kerak joylarni o‘zgartirish mumkin bo‘ladigan eruvchi ulab uzgich kiritiladi. Qisqacha ular PPZU yoki PROM deb belgilanadi. Oxirgisi doimiy xotira mayjud bo‘lib takroran dasturlash (qayta dasturlash) imkoniyatiga ega. Ularda axborotlarni elektr o‘chirish mumkin va RPZU yoki EEPROM deb belgilanadi. Boshqa turida axborotlarni ultrabinafsha turlash bilan RPZUUF yoki EPROM deb belgilanadi.

Xotira qurilmalari texnologik tayyorlanishi va mittixemaning sxemotexnik xususiyatlari bo'yicha ham klassifikatsiyalanadi. Bipolar tranzistorlar asosida ESL, TTL, I2L, MOP tranzistorlari da esa, R-MOP, n-MOP, KMOP va ularning turlari qo'llaniladi. Chiqish zanjirlari ko'pincha uch holatli, yoki ochiq kollektorli bo'ladi.

Xotirani loyihalashda xotira qurilmasi mittixemalarni quyidagi asosiy tasniflari bo'yicha tanlanadi:


- xotira qurilmasining tipi va struktura xususiyatlari (axborotni saqlash xarakteri, kirish ko'rinishi, tashqi muhit bilan elementlarni moslashtirish xususiyatlari);
- xotira qurilmasining umumiy sig'imi bitlarda yoki Kbitlarda (1 Kbit q 1024 bit);
- vaqt parametrlari, murojaat vaqt, xotira qurilmasining keyingi murojaati uchun tayyorlash;
- xotira qurilmasi ish rejimini boshqarish;
- elektr parametrlari, kuchlanishi, toklar turli rejimlarda, quvvat sarfi (gohida nisbiy quvvati, 1 bit axborotni saqlash uchun);
- texnologik va konstruktiv bajarilishi, korpus tipi, chiqish soni va belgilanishi va h.k.

Xotira qurilmasining iqtisodiy ko'rsatkichini baholash uchun, gohida nisbiy tannarxdan foydalaniladi (1 bit axborotni saqlash uchun sarf xarajat). Puxtalik parametrlari ham berilishi mumkin (mittixemalarning o'rtacha ishga layoqatliligi va ishdan chiqmay ishlashi).

#### **11.4.2. Katta sig'imli tipik tezkor xotira qurilmasining asosiy parametrlari va ularni qurishdagi xususiyatlari**

Mitti protsessorli tizimlarning tezkor xotirasini qurishda katta sig'imli mittixemali xotira qurilmasi (ZU) (10 lab Kbit) qo'llaniladi. Bunda axborotni saqlashning dinamik uslubi keng qo'llanilib, nisbatan oddiy xotira elementi ishlataladi.

Chiqish qismi chegaralanganligi uchun axborot adresini uzatish amalda bo'laklanib (odatda, avval qator adresi, so'ng ustun adresi) uzatiladi.



11.39-rasm.

11.39-rasmda dinamik operativ xotira qurilmasi (OZU) mit-tisxemasining tipik struktura sxemasi keltirilgan. Bunda MN bir razryadli sonni xotirada saqlash uchun mo'ljallangan.

Sonlar adreslari ( $mqn$ )-razryadli kod bilan berilib, bir qismi satrni adreslaydi, boshqasi esa yig'uvchi ustunlarni. Satrlar va ustunlar adreslari mitti sxemaning bir xildagi chiqish qismlarida ikki qabulda uzatiladi. Ish rejimlari CAS,RAS,WR/RD, signallar kombinatsiyasi bilan qurilmaga beriladi. Ulardan birinchi ikkitasi, yozish, qo'shish va regeneratsiyalash uchun mitti sxemaga murojaat qilishni aniqlaydi. Shinaga (A)-ga  $m$  razryadli kodni satr bo'yicha registr  $p_r A$  adresida signal RAS (mantiqiy nol) ruxsat etilgan qiymati bo'yicha belgilanadi. Bunda (Dsh X) deshiffrator yordamida biror M satrni tanlab yig'ish ta'minlanadi. Ruxsat etilgan CAS (mantiqiy nol) signal qiymati belgilanadi, yetarli

qisqa vaqtida satr regeneratsiyalanadi. U axborotni hamma xotira elementi satri adreslangan N ikki yo‘nalishli (U) kuchaytirgichda, axborotni o‘sha xotira elementida yoziladi.

Shunday qilib, adres shinasida satr adresi ketma-ketligini shakllantirib va RASq0 signali yordamida ushbu adresni xotira qurilmasiga uzatib, M taktda to‘lib regeneratsiyani ta’minalash mumkin. Ushbu vaqt 2ms dan ortmasligi lozim. Xotira elementiga murojaat qilish uchun axborotni yozish yoki o‘qish maqsadida, satrni adreslagandan so‘ng, A shinada n-razryadli ustun adresini shakllantirish kerak. Ushbu kod CASq0 signali bo‘yicha (Dsh U) deshifrator ustuni yordamida, N ikki yo‘nalishli kuchaytirgichdan birini tanlashni ta’minalaydi. Bunda ish rejimi (yozish yoki o‘qish) WR/RD, signal qiymati bilan aniqlanadi, qaysiki CASq0 qiymat shakllanish momentiga mos keladi. Agarda WR/RDql bo‘lsa, axborotni xotira elementining chiqish buferi kuchaytirgichdan D0 chiqishida o‘qiladi. WR/RDq0 bo‘lsa, DI kirish qis-mida mavjudligidan axborot yoziladi.

11.11-jadvalda katta sig‘imli mittixema tezkor xotira qurilmasi (OZU) ning ba’zi birlarining asosiy parametrlari keltirilgan (OZUni RU harflari bilan belgilash qabul qilingan).

*11.11-jadval*

OZU mittixemasining belgisi	Sig‘imi Kbit	Tashkilot	Sikl vaqtி	Nisbiy sarfi quvvati (mVt/bit)	Tex-nolo-giyasi
K500RU415	1	1Kx1	25	0.8	ESL
K541RU3	16	16Kx1	150	0.03	I2L
K523RU9A	16	2Kx8	400	0.005	KMOP
K565RU5B	64	64Kx1	230	0.0003/ 0.003*	n-MOP

\* Ilova. Nisbiy sarfi quvvati suratidagisi saqlash rejimi uchun, maxrajidagisi esa, murojaat rejimidagisi.


#### **11.4.3. Qayta dasturlovchi xotira qurilmasini (PPZU) qayta dasturlash vositasi va uslublari**

Kam seriyali sharoitda tayyorlanadigan PPZUlar (mittixemalarda RT harflari bilan belgilanadi) hisoblash texnikasida keng

qo'llaniladi. Ularni dasturlashni foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ular PZU ga nisbatan murakkab struktura-ga ega. Chunki birinchidan, eruvchi har bir ZEda ulab-uzgich kiritilganligi, ikkinchidan, qo'shimcha elementlari mavjudlidir. Maxsus dasturiy ta'minotni dasturlash hisobiga qo'shilgan sarf-xarajat bo'ladi.

Korpusdan chiqish qismlar sonini kamaytirish maqsadida, dasturlash uchun axborotni PPZU dan o'qish uchun xizmat qiluvchi qismidan foydalaniлади. Ushbu chiqish qismlariga mittsxemaning ichidan dasturlash elementlari ulanadi.

11.40-rasmda dasturlash elementi (Pr)-ni PPZU tarkibidagi biror varianti struktura sxemasi tasvirlangan. Tashqi dasturlovchi DO mittsxemaning PPZU chiqish qismiga ulangan va u kerakli kenglikdagi impulsni berishni ta'minlaydi. Natijada dasturlash elementlari ishoratini ta'minlaydi va mos ravishda eruvchi ulab-uzgich buziladi. Adres A shinasi dasturlashda berilgan xotira elementini tanlash uchun qo'llaniladi. Keltirilgan struktura sxemasiда  $\bar{CS}$  ikkita boshqaruв signali ko'rsatilgan.



**11.40-rasm.**

11.12-jadvalda ba’zi bir keng qo‘llaniladigan PPZU mittisxe-malari keltirilgan.

*11.12-jadval*

PPZU mittisxemasining belgilanishi	Sig‘imi Kbit	Tashkilot	Adres tanlov vaqtি	Nisbiy sarf quv- vati (mVt/bit)	Tex- nolo- giyasi
K1500RT416	1024	256x4	20	0.65	ESL
K541RT1	1024	256x4	80	0.26	I2L
K556RT18	16384	2048x8	60	0.06	TTLSh
K556RT16	65636	8192x8	85	0.015	TTLSh

Ularda asosiy vaqtli parametri, tanlov vaqtি bo‘lib, A shinaga navbatdagi adresning berilish momentidan, DO chiqishida adres-langan yacheykadagi sonni hisoblash uchun ketgan vaqtadir.

*11.13-jadval*

PPZU mittisxema- sining belgi- lanishi	Sig‘i- mi Kbit	Tashki- lot	Adres tanlov vaqtি	Axborotni saqlash vaqtি (soat)	Qayta dastur- lash sikl so- ni	Nisbiy sarf quvvati mVt/bit
KR558RR2A	16	2Kx8	350	5000	104	0.03
K523RR2	16	2Kx8	350	15000	104	0.02/0.04*
K573RF2	16	2Kx8	450	25000	100	0.012/0.035*
K573RFA	64	8Kx8	300	5 yil	25	0.004/0.013*

\* Ilova: Nisbiy sarf quvvat (suratida saqlash rejimi, maxrajida – o‘qish)

Xotira elementining struktura sxemasi murakkabligidan, qayta dasturlash elementlarini kiritishidan RPZU tannarxi boshqa PZU larga nisbatan ortadi. Shuning uchun ular qayta dasturlash lozim bo‘lgan joylarda birinchi navbatda qo‘llaniladi. Hamda RPZU larda axborotni kiritish foydalanuvchi tomonidan 20–30 V amplitudali impuls va kengligi birdan o‘nlarcha millisekundli impulslardan foydalaniladi. Axborotni RPZU da o‘chirishni turlaridan biri elektr yordamida o‘chirishdir. Bunda nafaqat umuman o‘chirish va tanlab o‘chirish, keyinchalik baytli yozishni tashkil etish ham mumkin bo‘ladi. O‘chirishning ikkinchi tu-

ri, axborotni ultrabinafsha nur yordamida mittixemani bir necha minut nurlatib o'chirishdir. Bunda axborot mittixemada to'lib o'chiriladi. Ko'pchilik doimiy ZU larda mittixemani qayta das-turlash ko'p razryadli sonlarni saqlab qolishni ta'minlaydi.

11.13-jadvalda ba'zi bir keng qo'llaniladigan RPZU mittisxe-malarning asosiy parametrlari keltirilgan.

## 11.5. Mikroprotsessorli qurilmalar

### 11.5.1. Mikroprotsessorlar va mikroprotsessorli komplektlar

Mikroprotsessor (MP), protsessor kabi hisoblash mashinalari-ning murakkab universal dasturiy boshqariluvchi qurilmasidir. Fizik jihatdan MP integral yuqori integratsiya darajali mittisxe-malar ko'rinishida tayyorlanib, puxtaligi katta, o'chamlari ki-chik, narxi nisbatan arzon bo'ladi. Universal buyruq majmuasi mavjudligi MP strukturasini o'zgartirmay turib xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilishini ta'minlaydi.

Mikroprotsessorlarning yaratilishi hisoblash texnikasida yangi erani ochdi va axborot vositalarini qayta ishlov berishga olib keldi. Birinchi mikroprotsessor 1971-yilda amerikaning Intel firmasi xodimi M.Xoff tomonidan yaratildi. Integral mittisxema yig'imini yaratish o'rniga M.Xoff universal EHM ni bitta murak-kab integral mantiqiy sxemani taklif etdi.

Birinchi mikroprotsessorlarning ishlab chiqilishi, hisoblash texnikasidagi loyiha texnologiyasini nisbatan o'zgartirishga olib keldi. Endi har bir yangi texnika uchun, o'zini yangi integral mittisxemasini ishlab chiqarish shart bo'lmay qoldi. Buning o'rniga, talab etiladigan funksiya uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqish kerak bo'ladi. Birinchi mikroprotsessorlar 4-razryadli ikkilik sonlar uchun yaratildi. Integratsiya darajasi ortishi bilan 8,16-razryadli va hozirgi vaqtida 32-razryadli MP lar chiqarila boshlandi. Razryad soni ortishi bilan xotiraga adreslanadigan sig'imi ham ortadi. O'zining imkoniyatlari bilan zamonaviy MP o'rta EHM va mini EHM protsessorlariga yaqinlashadi.

Mikroprotsessorlarning qo'llanilishi, universal hisoblash mashinalari strukturasini bir qancha soddalashtirishga olib kela-di va bu mittikompyuter deb ataladi.

Mittikompyuter modullar (bloklar) majmuasidan iborat bo‘lib, tizimli shinaga ulangan katta integral sxema (BIS) ko‘rinishida bajariladi.

Tizimli shina deb, ulardan signallarni uzatuvchi elektr o‘tkazgichlar majmuasi tushuniladi. Ular funksional vazifalari bo‘yicha guruhlanadilar.

Mikroprotsessorda axborotga ishlov berish, oqimni boshqarish, buyruqlarni interpretatsiya qilish, shuningdek, shina ishini boshqarish MP yordamida amalga oshiriladi. Axborotni saqlash funksiyasini xotira qurilmasi bajariladi; unga doimiy va tezkor xotira kiritiladi. Tashqi qurilmalar bilan aloqani, kiritish va chiqarish «PORT» deb ataluvchi modul orqali amalga oshiriladi. Port MP bilan qandaydir tashqi qurilma uchun oraliq interfeys bo‘lib: katta hajmdagi axborotni tashqi xotirada saqlash, aloqa liniyasi printer, klaviatura bilan amalga oshiriladi. Interfeys — bu tashqi qurilmalar bilan mikrokompyuterni o‘zaro bog‘lovchidir.


Tashkiliy shinali mikrokompyuterning struktura sxemasi 11.41-rasmda keltirilgan.

Modullar o‘zaro bog‘lanishi adres shinasi berilganlar va boshqaruv yordamida amalga oshiriladi. Bunday sxema ko‘pchilik zamonaviy mikrokompyuterlar uchun xarakterli, hamma tipdagi mashina operatsiyalarini yozish imkoniyatini beradi.

Berilganlarni MPdan xotiraga yozish; xotiradan berilganlarni mikroprotsessor yordamida o‘qish; MPdan berilganlarni berilganlar kirishi qurilmasiga yozish; berilgan chiqishdan, berilganlarni mikroprotsessor yordamida o‘qish; MPdagi uzilishlarni qayta ishlash; xotiraga to‘g‘ridan to‘g‘ri MP nazoratida kirish; MP ichki registrlari ishi. Har qanday mikrokompyuter ishini yuqorida bayon etilgan operatsiyalar yordamida tasavvur etish mumkin.

Mikrokompyuterlarning tuzilish prinsiplarini quyidagicha ta’kidlash mumkin:

Modulli tashkil etish prinsipida, mikrokompyuter modullar yig‘indisidan quriladi. Modul, konstruktiv, funksional, elektr jihatidan tugallangan hisoblash qurilmasi. U, mustaqil yoki boshqa modullar bilan, ushbu sinf masalasini yechish imkoniyatiga ega.



**11.41-rasm.**

Axborot almashishning magistral prinsipida, modullar orasidagi ularning kirish va chiqishlarini bog'lovchi aloqa doimiy tashkil etiladi. Quyidagi magistral shinalarga ajratiladi: adreslar, berilganlar, boshqaruvchi. Magistral almashuvni qo'llanilishi interfeyslarni standartlashni ta'minlab, modullar bilan aloqa sonini minimallaشتiradi.


Mittidasturlash boshqaruvi prinsipi, dasturiy boshqaruvni ko'p sathli tashkil etishdan kelib chiqadi. MP ning har bir buyrug'i, mittidastur deb nomlangan mitti buyruqlar ketma-ketligi ko'rinishida bo'ladi. Mittidasturlar xotirada saqlanishi mumkin. Mittidasturli boshqaruvi prinsipi, mikroprotessorli modullarning ko'p funksiyalilagini tashkil etib, qurilma puxtaligini oshiradi.

Bunday tipik MP ning struktura sxemasi 11.42-rasmda keltirilgan.

Buni ko'rish uchun avval keltirilgan kombinatsion qurilmalar (shiffratorlar, deshiffratorlar, multipleksorlar, demultipleksorlar va h.k.), ketma-ketlik (registrler, hisoblagichlar) turli signallarni uzatish uchun shinalar qo'llaniladi. Konkret MP lar bir-birlaridan farqlanadi, lekin har biri quyidagi asosiy bo'laklari va qurilmalariga ega: arifmetik-mantiqiy qurilma (ALU); boshqarish qurilmasi (UU); registrlar (R<sub>g</sub>); interfeys.

Arifmetik mantiqiy qurilmada (ALU) bir necha oddiy operatsiyalar bajariladi: qo'shish, ayirish, uzatish, mantiqiy I, manti-

qiy ILI, 2 modul bo'yicha qo'shish, siljitish. ALU belgisi, hamda MP holati registr holati (RgS)ning har bir momentida belgilana-di. Registr tarkibi (flag), dastur ichida o'tishni ta'minlash uchun qo'llaniladi. Biror so'zni saqlash uchun, yig'uvchi registr, akku-mulator (A) deb ataluvchi, oraliq natijadan foydalaniladi. UU-da komanda hisoblagich (Sk) xotira qurilmasi (ZU) dasturda nav-batdagi buyruq adresini aniqlash uchun qo'llaniladi.



**11.42-rasm.**

ZU dan buyruq, buyruq registri (RgK) ga keladi. Hisoblash ja-rayonini boshqarish uchun UU da buyruqdan foydalaniladi. RK da bo'lgan UU operatsiya kodi, MP ishini ichki signalini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Buyruqning adres qismi, adres uchun qo'llaniladi. Adresni shakllantirish uchun xotira qurilmasi (ZU) da, indeksli registr (IA) lar ajratiladi.

Maxsus registrlar (RON), MP ning ichki xotirasini tashkil etib, registr bo'lagi ko'rinishida bo'ladi. Registr bo'lagini, MP ning ichki bo'lagi shina orqali bog'lanadi. Maxsus registrlar (RON) ishlov beriluvchi axborotlarni saqlash uchun ham qo'llaniladi. Bunda ularni o'ta tezkor xotira deb qarash mumkin.

Tashqi port qurilmasi va xotira qurilmasi MP ga standartli ulash uchun interfeys xizmat qiladi. Uning tarkibiga adres buferi (BA), berilganlar buferi (BD), shinalar kiradi. Berilganlar shini-sasi (ShD), MP birlashishida buyruq va sonlarni uzatish uchun

mo‘ljallanadi. Adres shinasi (ShA) tashqi qurilma va xotirani adreslash uchun qo‘llaniladi. Boshqarish shinasi (ShU) dan tashqi qurilmadan MP ga va aksincha boshqaruvchi signallar uzatiladi.

### **11.5.2. Mikroprotsessorlar haqida umumiy ma’lumotlar, tasnifi**

Mikroprotsessorlar ko‘pincha parametrlari va xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Mikroprotsessor integral mittisxema sifatida quyidagilar bilan xarakterlanadi: korpus tipi; chiqish qismi soni; taktli signal manbai mavjudligi; tok manbai soni va tipi; quvvati; harorat diapazoni; xalaqitlarga qarashi bardoshliligi; puxtaligi; yuklamaga chidamliligi; razryadini kengaytirish imkoniyati va h.k.

MP ning xarakteristikasiga dasturlashdagi talablar quyidagilari: (so‘zlar uzunligi, buyruq yig‘indisi, xotirani adreslash uslubi, MP dagi, registrlar soni), mittidasturlash va berilganlarni qayta ishslash uslublari, tezkorligi, xotira sig‘imini maksimal adreslash, o‘ta tezkor xotira sig‘imi, dasturlash tili va h.k. Keltirilgan xarakteristikalardan MP ni tasniflash mumkin. Biror tasnif variantini ko‘raylik.

Belgilanishi bo‘yicha universal va maxsus mikroprotsessorlaraga bo‘linadi.

Universal MP buyruq majmuasi universal yig‘indisi bilan xarakterlanadi. Bunda, ixtiyoriy berilgan algoritmda axborotni o‘zgartirish mumkin. Bunday MP keng masalalarni ochish uchun qo‘llanishi mumkin.

Maxsus MP aniq sinfga mansub masalani yechishga qaratilgan bo‘lib, biror konkret masalani yechish uchun mo‘ljallanadi. Bunday MP asosiy xususiyatlari: nisbatan arzonligi, kam quvvatligi, kompaktliligi, boshqarishda oddiyligidir. Maxsus MP lar qatorida texnologik jarayonlarni boshqarishda qo‘llaniluvchi mikrokontrollerlarni, o‘lchash texnikasida, ilmiy tekshirish ishlari-da qo‘llaniluvchilarni aytish mumkin. Shuningdek, MP yuqori ko‘rsatkichli, berilganlarni parallel ishlov berib, arifmetik operatsiyalarni bajarilishi mayjud. Signallarni murakkab matematik ishlov berish uchun, hamda kollektiv hisoblash modeli asosida maxsus MP quriladi. Bunda real vaqt birligida foydali signallarni shovqindan ajratib olish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday MP obrazlarni tanish, ajratish uchun qo‘llaniladi.

BIS soni bo'yicha bir kristalli, ko'p kristalli va seksiyali-ko'p kristalli MP larga bo'linadi.

Bir kristalli MP bitta BIS yoki SBIS ko'rinishida amalga oshiriladi. Bir kristalli MP aktiv elementlarnining kristalldagi soni chegaralanganligi bilan, elementlariaro aloqani tarmoqlanishining murakkabligi, ruxsat etilgan chiqish qismlar soni chegaralangan.

Ko'p kristalli MP mantiqiy strukturasi funksional tugallangan qismga bo'linadi va har biri BIS ko'rinishida amalga oshiriladi. BIS ni funksional tugallanganligi, ko'p kristalli MP aniq funksiyani avtonom holda, minimal aloqada MP ning to'liq sxemasini qurishda ishlay olishdir.

Seksiyali ko'p kristalli (razryadli-modulli) MP mikroprotsessor sekxiyalarini o'zaro parallel ulab ko'prazryadli mikroprotsessorlarni qurish uchun qo'llaniladi. Mikroprotsessorli sekxiya BIS, berilgan bir nechta razryadlarda ishlov berish uchundir. Seksiyali ko'p kristalli MP 2...16 bit razryadiga ega.

MP razryadliligi bo'yicha, belgilangan va o'stiriladigan so'z razryadiga bo'linadi. Belgilangan razryadlida ko'p tarqalgani 8 va 16 razryadli MP. Oxirgi vaqtda 32-razryadli MP lar qo'llanilmoqda.

Boshqarish bo'yicha MP lar mittidasturli va qattiq (apparatli) boshqaruvlarga bo'linadi. Mitti boshqaruvli razryadini o'zgartirishli mittiprotsessorli sekxiyalar uchun xarakterlidir. Bunda ba'zi bir konkret masalalarni hal etish uchun buyruq majmuasini joylab qo'yish imkoniyati bo'ladi. Qattiq (apparatli) boshqaruv, odatda bir kristalli va ko'p kristalli MP larda qo'llaniladi.

Sanoatda uch sinfga mansub BIS lar ishlab chiqarilmoqda:

1) seksiyali MP, mittidasturli boshqaruvli, razryadini orttiruvchi;

2) bir kristalli MP qat'iy razryadli va qattiq (apparatli) boshqaruvli;

3) bir kristalli mitti EHM, MP dan tashqari ularda katta sig'imli bo'limgan xotira qurilmali.

### **11.5.3. Asosiy tipdag'i MP larning arxitekturaviy tuzilishi**

MP ning arxitekturasi deganimizda, uning komponentlari tarkibi, ichki axborot almashinuvining tashkil etilishi va tashqi

muhit bilan ham, shuningdek, buyruq tizimi yordamidagi funk-sional imkoniyatlari tushuniladi.

Mitti elektronikaning rivojlanishi bir kristalli mikropotses-sorlarning (OMP) keng ko‘lamda tarqalishiga olib keldi. Ularda hamma komponentlari bitta BIS ko‘rinishida ishlangan. Bunday MP arxitekturasiga va ularning xarakteristikasiga quyidagi omil-lar ta’sir etadi:

- 1) BIS integratsiyasi darajasiga mos keluvchi OMP;
- 2) mittisxemalar chiqish qismlarining chegaralanganligi.

Integratsiya darajasi juda katta bo‘lib, korpusdagi elementlar soni bir necha mingdan, yuzlab ming va millionga yaqin. Chiqish qismlari (oyoqchalar) unchalik ko‘p emas, odatda bir necha o‘nlarga to‘g‘ri keladi. Mikroprotessor texnikasining rivojlanishi 4-razryadli OMP dan boshlanadi. Bunda sonlarni va kod-larni har doim bo‘laklab ishlov berilar edi. So‘ng esa integratsiya darajasi ortib, hozirgi kungacha keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan 8-razryadli OMP yaratildi. Keyinchalik 16-razryadli OMP paydo bo‘ldi, natijada faoliyati ortdi.


#### **11.5.4. 8-razryadli OMP strukturasi va xarakteristikasi**

Eng ko‘p tarqalgan 8-razryadli OMP KR 580 VM80 (av-valgi belgilanishi KR580IK80), struktura sxemasi 11.43-rasmida keltirilgan.

U uchun universal OMP ning hamma xarakteri o‘rinlidir: ALU ning mavjudligi registlar yig‘indisi bilan ( $Rg1$ ,  $Rg2$ ,  $Ak$ ,  $RgF$ ); boshqaruv qurilmasi, registr komandasi tarkibidagi ( $RgK$ ); buyruq deshifratori va mashina sikli shifratori; boshqaruv va sinxronizatsiya sxemasi; uch shinali tizimlar, tashqi muhit bilan bog‘lovchi, shuningdek, ikki yo‘nalishli 8-razryadli shinalar, bir yo‘nalishli 16-razryadli adres shinalari va ikki yo‘nalishli 10-razryadli boshqaruv shinalari. OMP da uzilishni tashkil etuv-chi vosita ko‘zda tutilgan bo‘lib, axborotni asinxron almashinu-vida xotiraga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat etish mumkin. Berilgan 8-razryadli ALU mavjud bo‘lib, arifmetik apparatli (qo‘sish, ayrish) va mantiqiy (ko‘paytirish, qo‘sish, inversiya, 2-moduli bo‘yicha qo‘sish, kodlarni taqqoslash) operatsiyalari ikkilik ko-dida 8-razryadlida amalga oshiriladi. ALU operatsiyasi natijalari

odatda yig‘uvchi registr (Ak) akkumulatorda joylashtiriladi. Registrdagи ma'lumot odatda biror operatororda ALU ning ko'pchilik operatsiyalarida foydalaniladi.

ALU operatsiyasi natijasini hisoblashda aniq belgilarning shakllanishiga olib keladi. Natija SU katta razryadini o'tkazish (agarda o'tish joyi bo'lsa,  $SUq_1$ ; Z natijani nol qiymat belgisi (agarda natija nol bo'lsa,  $zq_1$ ); S natija manfiy (manfiy natijada  $sq_1$ ); baytda natija R juft son (juft son birligida  $pq_1$ ) AS natijasi yarim bayt oralig‘ida qo'shimcha o'tkazish (agarda o'tkazish bo'lsa,  $ASq_1$ ).



11.43-rasm.

Oxirgi belgisi o'nli korreksiya sxemasida sonlarni ikkilik-o'nlik ishlov berishda axborotlarni kodlashda qo'llaniladi. Boshqa belgilari shartli o'tishni dasturlarda tashkil etish uchun, MP da bajarilishida qo'llaniladi. Belgilari (bayroqlar) mos hol-

dagi (PgF) registrda joylashtiriladi va yangi belgi shakllanguni-ga qadar saqlanadi.

MP tarkibida ko‘p sonli registrlar qo‘llaniladi. Ularning bir qisimi bufer elementlari funksiyalarini bajarib, axborotni MP ichida uzatishda vaqtli xarakteristikalarini moslashtirish uchun va tashqi muhit bilan almashinuvi uchun (Rg1, Rg2, RgK, RgA, bufer registri berilganlar shinalari tarkibida) bajaradi. Bu blokda o‘ta operativ MP xotira funksiyasini bajaruvchi 8-razryadli umumiy belgilangan registrlar (RON) V, S, D, E, H, L. RON (V va S, D) paralariga murojaat etish, 16-razryadli sonlarga ishlov berishda imkoniyati mavjud. Registrlar W va Z qandaydir operatsiyani bajarishda bufer sifatida qo‘llaniladi, unga dasturiy ta’minot ko‘zda tutilmaydi. Registr blokida ba’zi bir elementlar maxsus funksiyani bajaradi. Ular ichida 16-razryadli dasturli hisoblagich (RS), xotiradan hisoblab chiqaruvchi, navbatdagi buyruq baytini shakllantirish uchun xizmat qiladi.


RS tarkibi q sxema yordamida modifikatsiyalanishida, dastur bajaruvchi buyruqlarning hamma baytlarini adreslarini hosil qilish mumkin. Boshqa maxsuslangan element 16-razryadli registr bo‘lib, SP stek ko‘rsatuvchisi deyiladi. Uning yordamida MP tizimida stekli xotira tashkil etiladi.

### **11.5.5. 16-razryadli OMP strukturasi va xarakteristikasi**

Mikroelektronikaning rivojlanish bosqichida, BIS ning integratsiya darajasi bir necha o‘n minglab elementga yetgani-da, 16-razryadli OMP ni tashkil etish imkoniyati paydo bo‘ldi. Axborotni tashqi muhit bilan 16-razryadli formatda almashinuvi, 8-razryadliga nisbatan, tabiiyki qo‘srimcha chiqish qismalari yoki shinalarni multipleksorlash hisobiga mumkin bo‘ladi. OMP strukturasini murakkablashtirilishi ko‘pincha, qo‘srimcha boshqaruvchi zanjirlarni va chiqish qismlarini qo‘llashni talab etadi. 16-razryadli OMP lar uchun ko‘pchilik hollarda, operatsiyalar yig‘indisini kengaytirish xarakterlidir.

16-razryadli OMP-K1810VM86, n-MOP texnologiyada yarim kreminiyligi zatvorli tranzistorlarda tayyorlangandir. U, taxminan KR580VM80ga nisbatan 6 barobar ko‘p elementlardan iborat.

OMP K1810VM86 (11.44-rasm) struktura sxemasining asosiy xususiyatlarini ko‘raylik. Unda uchta tashkiliy qismni ajratish mumkin: operatsion qurilma, uning yordamida MP da berilganlarni qayta ishlov bajariladi; shina bilan moslashtiruvchi qurilma (USSH), uning yordamida adreslash va buyruqni tanlash, adreslash, belgilarni qabul qilish va uzatish; boshqaruvchi va sinxronlashtiruvchi qurilma, komanda kodi asosida MP va MP tizimi bo‘lagi uchun boshqaruv signalini va tashqi signallarni shakllantiradi. OU tarkibida 16-razryadli ALU bo‘lib, arifmetik va mantiqiy amallar bajariladi.



11.44-rasm.

Registr F ni kichik baytida ZF natijaning nolinchi qiymati CF o'tkazish belgisi, SF manfiy qiymat natijasi, PF juftligi va AF natijasining qo'shimcha yarim bayt o'tkazishi yoziladi, qaysiki MP KR580VM80 ning belgilariga to'liq mos keladi. F ning katta baytida yana to'rtta xususiyat belgilanadi: razryad turining OF natija uchun ajratilgan to'lish belgisi, massivni skanerlash belgisi DF zanjiri bilan operatsiyada, uzilish belgisi maskirovkalash yoki uzilishni so'rov uchun ruxsatni aniqlovchi IF, qadamma-qadam TF ni ishlov berib kuzatish.

OU da RON bloki qo'llaniladi. Unda 16-razryadli AX, BX, CX, DX registrlar mavjud. Ularda yarim razryadlar (katta H, kichik L) 8-razryadli sonlar ham qo'llanilishi mumkin. AX-registri akkumulator funksiyasini bajaradi, uning kichik MP KR580VM80 akkumulatorga mos keladi. BX, CX va DX-registrlar, oddiy RON sifatida qo'llanilishi mumkin. Ba'zan esa, ular maxsus funksiyalarni bajarishi mumkin: BX bazaviy adres manbai bo'lishi mumkin, CX-hisoblagich, DX-ko'paytirish va bo'lish buyruqlarida berilganlar yoki kirish-chiqish buyruqlarida ba'zi bir adres manbai bo'lishi mumkin. Qolgan to'rtta 16-razryadli registrlar kodlarni saqlash uchun, buyruqlar va berilganlarni adreslash jarayonida, xotirani segmentli tashkil etishda qo'llaniladi. Ular shuningdek, oddiy RON kabi qandaydir arifmetik va mantiqiy operatsiyalarni bajarishda qo'llaniladi.

USSH tarkibida ikkita blok mavjud: buyruqlar (OK) navbatli blok va segmentli registrlar (SRg) SM-summator bilan bloki. OK bloki oltita 8-razryadli registrlardan tashkil topib, navbatdagi buyruq baytlarini saqlashni MP da ta'minlaydi. U stek bo'lib, quyidagi prinsipda ishlaydi: birinchi bo'lib yozilgan raqam, birinchi bo'lib ajratib olinadi (bunday tashkil etishni ba'zan FIFO deb belgilanadi). Navbatdagi ikkita bayt buyruqni pastga uzatilganda, qolgan yangi ikki baytni xotiradan avtomatik tanlov pastga surib berishni ta'minlaydi. MP da xotirani adreslash sig'imi 1 Mbaytni ta'minlaydi. Demak, 20-razryadli adres talab etiladi. Lekin bunday format, buyruq strukturada tasvirlash va xotirada saqlash uchun noqulay. Shuning uchun 16-razryadli kodlarni buyruqlarda keyinchalik shakllantirib, ular asosida 20-razryadli fizik adreslar qo'llaniladi. Bu segment sig'imi har bir 256 bay-

tdan 64 Kbaytgacha adres kengligi bo'linishini ta'minlaydi. Segmentlarni boshlang'ich adreslarida, 20-razryadli bajaruvchi adreslarda, to'rtta kichik razryadlarda nolinchı qiymatni nazarda tutadi. Ushbu boshlang'ich adreslar 16-razryadli kodlarda berilishi mumkin (kichik to'rt razryad, nol qiyatlar nazarda tutiladi). Segment registri MP blokida to'rtta 16-razryadli registr bo'lib, bir vaqtning o'zida to'rtta segmentni dasturda foydalanish mumkin. CS registri segment dasturlarini boshlang'ich adresini saqlash uchun, DS registri esa segment boshlang'ich adresini saqlash uchun, SS registri stekni boshlang'ich segment adresini beradi, ES registri segmentni boshlang'ich qo'shimcha berilishi adresi, ko'zda tutilgan. Buyruq kodlarida adreslar 16-razryadli, boshlang'ich adreslarga nisbatan mos segmentlarga surilgan holda beriladi. Manzilli (adresli) axborotlarni va berilganlarni uzatish uchun va bitta 16-razryadli ikki yo'naliqli A/D shina qo'llaniladi. MP ni sinxron rejimda ishlashini tashqi sinxroimpulslar ketma-ketligi, CLK kirishiga 200 NS davrli mashina takti berilib ta'minlaydi. Har bir buyruq bir necha mashina sikli M, to'rt mashina taktli bo'ladi. T1-taktda shina A/D ga adresli axborot A/D shinaga berilib, berilganlarni uzatish T3 va T4 taktlarda ta'minlanadi.

OMP K181VM86 ning asosiy xarakteristikasi: axborot so'z uzunligi 16 bit; asosiy buyruqlar soni 135 (bir necha yuz modifikatsiyalari bilan); buyruqlarni bajarish minimal vaqt 0,8 mks (takt kengligi  $T_q=0,2$  mks bo'lganida); RON soni 12 (16-razryadli); xotira adres sig'imi 1 Mbayt.

Elektr parametrлari: bitta kuchlanish manbai q5V, sarf quvvati 1,75 Vt, hamma signallar uchun standart TTL darajada. Metall keramikali 40 ta chiqish qismli korpus qo'llaniladi.

Strukturaviy xususiyatlari: uzlukliligini tashkil etish ko'zda tutilgan, PDP rejimli, axborotlarni asinxron almashinuvli, minimal va maksimal MP tizimli konfiguratsiyali.

K1810 mikroprotsessori komplekt, tarkibiga OMP K1810VM86 kiruvchi  $\approx 10$  ta mikrosxemadan iborat. MPKKR-580 mikrosxemani ham qo'llash mumkin.

Mp tizimni va mitti EHM MPK 1810VM86 bazasida dasturiy ta'minotda bir nechta diskli operatsion tizimni yuqori darajadagi algoritmik tildan foydalaniladi.

### **11.5.6. Mikroprotsessorlarning arxitekturasi, strukturasi**

Operatsion qurilmalarning strukturasini ishlab chiqish jara-yoniga ikki xil yondashiladi. Birinchisida, amalda ko‘p uchray-digan, mikroprotsessorli seksiyalarning qo‘llanilishi nazarda tu-tilladi (ba’zan markaziy protsessorli elementlar ham deb ataladi). Bunday operatsion qurilmaning hamma (komponentlari) tarkibiy qismlari har bir seksiyada mavjud bo‘lib, ular ikkilik kodini bir necha razryadli ikki, to‘rt, sakkiz ishlov uchun zarurdir. Ker-ak razryadli kodlar operatsiyasini bajarish uchun, alohida seksiyalari minimal qo‘srimcha MP elementlaridan foydalanilganida, ko‘pincha ularni razryad – modulli deyiladi.

Boshqacha yondashuvda, chekli tarqalgan, mittixema ni qo‘llab, har biri operatsion qurilma biror funksiya tezligiga bajariladi: ALU, RON bloki, arifmetik kengaytirgich, apparatli ko‘paytirgich. Amalda kombinatsion varianti ham uchraydi. Operatsion qurilma (ALU, RON, axborot almashinuvi elementlari) asosiy qism razryadli—modulli strukturali, qo‘srimcha mittixema ulanib, qandaydir maxsus operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallanadi.

Modulli MP boshqaruv qurilmasi mittidasturli avtomat ko‘rinishida quriladi va mittibuyruqlar maxsus xotirali (PZU mittibuyruq) saqlanadi. Buyruqni tashkil etishda qandaydir mittibuyruqlar ketma-ketligi bajarilishi tushuniladi va u mittidastur-ni tashkil etadi. Mittibuyruqning hamma yig‘indisi MP bo‘lagi ishini boshqarish uchun kerak bo‘lib, PZU mittibuyruqqa yoziladi. KOP ga mos ravishda har bir buyruqni ushbu xotiradan tan-lab olishni tashkil etadi.

MPk K1804 tarkibida bir necha mittixema mavjud bo‘lib, ular turli murakkabliklardagi mittidasturlash qurilmasini qurish uchun xizmat qiladi. Mittixema K1804 VU1 (11.45-rasm) struk-turasini ko‘raylik. U mittibuyruq adresini boshqarish seksiyasi deb ataladi va har qanday razryadli, to‘rtga karrali bo‘lgan ortti-rishni ta’minlaydi. Navbatdagi Y mittibuyruq adresi, multiplek-sor yordamida to‘rttadan birorta manba orqali berishi mumkin: R shinalar 4-razryadli kodi beriladigan adres (R2A) registri bi-lan; adresni to‘g‘ri kodi berilishi mumkin bo‘lgan D shina bilan;

to‘rtta yacheykadan iborat bo‘lgan stek xotirasi bilan; mittibuyruq (RgSMK) hisoblagichining registri bilan. Manbani birortasini S kodli 2-razryadli 11.14-jadvaldan tanlanadi.


*11.14-jadval*

S1	S2	F
0	0	P <sub>g</sub> SMK
0	1	P <sub>g</sub> A
1	0	Stek
1	1	D

Lozim bo‘lganida, ILI sxemasi yordamida, tanlangan 4-razryadli OR kodi bilan, qo‘srimcha ishlov berish mumkin. Bunda, tanlangan adres manbaining har qanday razryadida birlik qiymatlarni shakllantirish imkoniyatini tug‘diradi. Nol adresni shakllantirish uchun I elementi bufer ventili bilan qo‘llaniladi va u, tashqi  $\overline{ZA}$  signali bilan boshqariladi. Ushbu signalning nol qiymatida buferning chiqish qismida nol adresi shakllanadi.  $\overline{OE}$  signali adresni uch holatni chiqish shinasini boshqaradi: ushbu signalning nol qiymati adres berishga ruxsat beradi, birlik qiymatida esa, shinani «Uziq» holicha o‘tkazadi. Shakllangan adres, shinaga adres berilishi bilan inkrementor va RgSMK dan tashkil topgan hisoblagich mittibuyrug‘iga uzatiladi.

Ushbu adres C<sub>0</sub>q0 da R<sub>g</sub>SMK ga yoziladi, S<sub>0</sub>q1 da yozilishidan avval bir birlikka ortadi. Shuning uchun mittibuyruq adresining ketma-ketlik ortishini tashkil etish mumkin. RgSMK dagini keyin navbatdagi mittibuyruq adresini shakllantirish uchun tanlab multipleksor yordamida foydalanish mumkin. Stekdan axborot navbatdagi adresni shakllantirish uchun multipleksorga uzatilishi mumkin.  $\overline{FE} = 1$  da stek axborotni saqlash rejimida bo‘ladi. PUP signalining qiymati bunda farqsiz bo‘ladi. Axborotni nolinchi darajada  $\overline{FE} = 0$  da va  $PUP = 1$  da amalga oshiriladi. Bir vaqtning o‘zida, axborotni surilishi, navbatdagi darajadan keyingisiga o‘tishi hamda o‘chilishi oxirgi darajasidan amalga oshiriladi.  $\overline{FE} = 0$  va  $PUP = 0$  stekni siljishi, navbatdagi daraja-

ni avvalgisiga yozish bilan amalga oshiriladi. Axborotni stekdan o'qish, nol darajadan amalga oshiriladi, shuning uchun LIFO steki tashkil etiladi. Mittisxema ishining sinxronizatsiyasi T signali bilan ta'minlanadi. Ushbu signalni musbat fronti, boshqa signallarni aniqlashda, axborotni  $P_2A$ ,  $P_2$  CMKga kiritish uchun foydalilanadi va axborotni stekka siljitadi. Mittibuyruq adresining bir seksiyasini boshqarish, 4-razryadli Y adresni shakllanishini ta'minlaydi, ya'ni boshqaruv xotira sig'imini 16 yacheykasini adreslaydi. Shuning uchun ham, amalda, doimo bir necha mittisxemani birlashtirish lozim bo'ladi.  $C_4$  chiqishi, kichik sekiya  $C_0$  kirishning kattaroq seksiyasiga ulanadi. D, R va Y shinalar to'rtga karrali bo'lib ortib boradi. Boshqa signallari bir turli chiqish qismlariga parallel uzatiladi. Uchta seksiyani birlashtirish natijasida 4K hajmli boshqaruv xotirani adreslashga imkoniyat yaratadi va ko'pchilik holda yetarli bo'ladi.




11.45-rasm.

### 11.5.7. Mitti EHM ni tashkil etish

**Model xususiyatlari.** Avvaldan berilgan yechish qoidasi (algoritmi) bo'yicha, biror hisoblovchi inson tomonidan bajarilayotgan hisoblovchi modeli, hisoblash jarayonini namoyon etadi.

Modelning quyidagi asosiy prinsiplarini ko'rsatish mumkin: operatsiyalarini vaqt bo'yicha bajarilish ketma-ketligi; bir masaladan ikkinchisiga o'tishda o'zgarmaydigan mantiqiy hisoblash sxemasi; model elementlarini konstruktiv bir turli emasligi va ular orasidagi aloqalar.

Birinchi uch avlod EHM larida asosni tashkil etuvchi hisoblash modeli, zamonaviy mitti EHM larning ko'pchiligi uchun ham asos bo'lib qolgan. 11.46-rasmda mitti EHM struktura sxemasi bir hisoblagich modeli bajarilishi uchun keltirilgan.



11.46-rasm.

Mitti EHM asosiy funksional bloklarining tarkibiga quyidagilar kiradi: arifmetik-mantiqiy qurilmadan (ALU) tashkil topgan protsessor va boshqarish qurilmasi (UU), tezkor xotira qurilmasi (OZU), kiritish-chiqarish qurilmasi (UVV), mitti EHM ni turli tashqi qurilmalar bilan bog'lashni tashkil etuvchi, masalan, display bilan, tashqi xotira va h.k.

Mitti EHM doimiy foydalaniladigan dasturlar saqlanuvchi doimiy xotira qurilmasiga (PZU) ham ega. Ko'rib o'tilgan bloklar BIS asosida quriladi. Mitti EHM da alohida funksional bloklarni birlashtirish aloqa tizimi yordamida amalga oshiriladi. Aloqa tizimini shinalar yig'indisi ko'rinishida tashkil etish keng tarqalgan. Ushbu yig'indi tarkibiga quyidagilar kiradi: EHM bloklari orasida axborot almashinuvini tashkil etuvchi berilganlar shinasи; mitti EHM ning turli qurilmalariga murojaatni tashkil etuvchi va adreslarni uzatuvchi adreslar shinalari va boshqaruv signallarini uzatuvchi boshqaruv shinalari.

#### **11.5.8. Mitti EHM interfeysi**

Yuqorida bayon etilganidek, mitti EHM alohida modullardan tashkil topgan bo'lib, nisbatan oddiy va kerak bo'lgan sonida, vaqtida biriktirish mumkin. Yangi qurilmani ulanishidan mayjud mashinaga kabel ulanishi va dastur o'zgarishidan boshqa hech qanday o'zgarish kiritmasligi lozim. Buni hammasi qurilma bilan mashinani moslashtirish hisobiga erishildi. Hisoblash texnikasidan bunday moslashtirishni interfeys deb ataladi.


Interfeys deyilganida, apparatli va dasturiy unifikatsiyali vosita tushunilib, mitti EHM bloklari orasida hamda EHM va tashqi qurilmalar bilan o'zaro aloqani tashkil etish uchun kerak bo'ladi.

Interfeys funksional, elektr va konstruktiv parametrlari bilan xarakterlanib, standartlashtiriladi. Interfeysda odatda standartlashtiriladiganlari: uzatiladigan axborot formati, holati va buyruqlari, aloqa liniyasining turlari va tarkibi, signallar parametrlari, ishslash algoritmi, konstruksiyasi.

Mitti EHM da quyidagi turdag'i interfeyslarni ajratish mumkin (10.4-rasm): tezkor xotira interfeysi (OP) A, protsessorning inter-

feysi (Pr) B, kiritish-chiqarish V interfeysi va tashqi qurilma interfeysi (PU) G.

Interfeysi OP orqali protsessor va xotira oralig‘ida yoki protsessor bilan kirish-chiqish bloki oralig‘ida axborot almashinuvni amalga oshiriladi. Kirish-chiqish bloklarini kanallar yoki kirish-chiqish protsessorlari (PVV) deb ataladi. A interfeysda yetakchi qurilma almashinuvni tashkil etuvchi, protsessor yoki xotiraga to‘g‘ri kiruvchi kanal. Bajaruvchi qurilmalar OP bloklardir.



11.47-rasm.

Interfeysi protsessor bu kirish-chiqish kanallari bo‘lib, u protsessor va kirish-chiqish kanallari orasidagi axborot almashinuvni uchun qo‘llaniladi. Interfeysi B da yetakchi qurilma protsessor, boshqaruvchi esa kirish-chiqish kanallaridir.

Tashqi qurilma boshqaruv bloki yordamida mitti EHM ga ulanadi va u tashqi qurilma kontrolleri (KPU) deb ataladi. Kirish-chiqish kanali bilan KPU orasidagi axborot almashinuvi kirish-chiqish V interfeysi orqali amalga oshiriladi. Bunday boshqaruv kontrolleri tashqi xotira qurilmalari (KPU–VZU) – magnitli diskli (MD) va magnit tasmali (ML), hamda operatorning terminal kontrolleri va pulni ko‘rinishida nazarda tutiladi. Interfeys V da yetakchi bo‘lib, kirish-chiqish bloki, bajaruvchi esa – KPU.

Interfeys, tashqi G qurilma bilan, KPU bilan tashqi qurilma mexanizmlari axborot almashinuvi uchun xizmat qiladi. A, B, V interfeyslar orqali axborotlar parallel so‘zlar (8 yoki 16 razryadli) G interfeyslari orqali, tashqi qurilma tipi bilan aniqlanuvchi sonlar uzatiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. A.A. Xalikov. Raqamli sxemotexnika. – Toshkent, 2006.
2. Вайсман Г.М. Автоматика и телемеханика в метеорологии. – Ленинград, 1987.
3. B.M. Xolmatjanov, Z.N. Fatxullayeva. Meteorologik axborotni qayta ishlash va tahlil qilish usullari. – Toshkent, 2011.

# MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I. AVTOMATIKA ASOSLARI .....</b>	<b>4</b>
1.1. Avtomatika, avtomatlashtirish tarixidan qisqacha ma'lumotlar .....	4
1.2. Avtomatik nazorat haqida tushuncha .....	5
1.3. Avtomatika elementlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari .....	6
<b>II. METEOROLOGIK AXBOROTNI YIG'ISH, QAYTA ISHLASH VA SAQLASHNING ZAMONAVIY TIZIMLARI .....</b>	<b>9</b>
2.1. Meteorologik axborotning turlari va manbalari .....	9
2.2. Meteorologik axborotni yig'ish va uzatishning zamonaviy tizimlari .....	10
2.3. Gidrometeorologiya markazining avtomatlashtirilgan sistemalari haqida ma'lumot .....	14
<b>III. IMPULS TEXNIKASI ASOSLARI .....</b>	<b>17</b>
3.1. Impulslar, tasnifi, turlari va parametrlari .....	17
3.2. RC zanjirdan impuls o'tishi .....	20
<b>IV. TO'G'RI BURCHAKLI IMPULS SHAKLLANTIRGICHLARI .....</b>	<b>24</b>
4.1. Ketma-ket va parallel tipdagi diod chegaralovchilari ..	24
4.2. Katta signal rejimida tranzistorning chiziqli modeli ..	31
4.3. Tranzistorli chegaralovchi kuchaytirgich .....	36
4.4. Tranzistorli kalitlarning dinamik tasniflari.	38
<b>V. MULTIVIBRATORLAR .....</b>	<b>43</b>
5.1. Multivibratorlar haqida umumiy ma'lumotlar .....	43
5.2. Tranzistorli multivibrator. Ishlash prinsipi ossilogrammalari .....	43
5.3. Multivibratorning tebranish davrini hisoblash.	46
5.4. Multivibratorning chastotasini sozlash, termostabillash chiqish kuchlanishi shaklini yaxshilash .....	49
5.5. Tranzistorli bir vibrator, ishlash prinsipi, ossilogrammalari .....	54
<b>VI. POTENSIAL MANTIQIY ELEMENT .....</b>	<b>57</b>
6.1. Potensial mantiqiy elementlar (PME) turlari,	

tasniflari va parametrlari . . . . .	57
6.2. Diodli mantiq. Mantiq «И» . . . . .	64
6.3. Diodli-tranzistorli mantiq DTM (DTL) . . . . .	66
6.4. Tranzistor-tranzistorli mantiq (TTM) . . . . .	67
6.5. MOP va KMOP strukturali mantiqiy elementlar . . . . .	69
<b>VII. POTENSIAL MANTIQNI ELEMENTLARGA ASOSLANGAN RELAKSATSION GENERATORLAR . . . . .</b>	<b>72</b>
7.1. Potensial mantiqiy elementlar asosidagi multivibratorlar . . . . .	72
7.2. Potensial mantiqiy elementlar asosidagi bir vibratorlar . . . . .	74
<b>VIII. CHIZIQLI-O'ZGARUVCHAN KUCHLANISH GENERATORI (CHO'KG-GLIN) . . . . .</b>	<b>77</b>
8.1. CHO'KG-GLIN tuzilishi, prinsiplari va umumiy tasnifi . . . . .	77
8.2. Tranzistorli avtotebratgichli CHO'KG-GLIN . . . . .	81
8.3. Tranzistorli kutuvchi CHO'KG-GLIN . . . . .	85
8.4. O'zgarmas tok operatsion kuchaytirgichi (O'TOK-OUPT) asosida CHO'KG-GLIN . . . . .	90
<b>IX. BLOKING-GENERATORLAR . . . . .</b>	<b>93</b>
9.1. Bloking-generatorlar haqida umumiy ma'lumotlar . . . . .	93
9.2. Avtotebratgichli bloking-generator . . . . .	93
9.3. Kutuvchi bloking-generator . . . . .	98
9.4. Bloking-generatorning sinxronizatsiyasi . . . . .	101
<b>X. MIKROPROTSESSOR TIZIMLARI VA EHM XOTIRASI . . . . .</b>	<b>104</b>
10.1. Ixtiyoriy kirishli tezkor xotira qurilmalari . . . . .	104
10.2. Statik va dinamik Xq-ZU . . . . .	106
<b>XII. RAQAMLI QURILMALAR . . . . .</b>	<b>109</b>
11.1. Triggerlar . . . . .	109
11.1.1. Mantiqiy elementlardan tashkil topgan triggerlar . . . . .	109
11.1.2. To'g'ri kirishli asinxron RS trigger . . . . .	111
11.1.3. Inversli kirishga ega bo'lgan RS asinxron trigger . . . . .	113
11.1.4. Statik boshqaruvli RS trigger . . . . .	114
11.1.5. Dinamik boshqaruvli sinxron trigger . . . . .	116
11.2. Registrlar . . . . .	119
11.2.1. Xotira registri . . . . .	121

11.2.2. Siljish registrlari . . . . .	123
11.2.3. Registrlarning qo'llanilishi . . . . .	125
11.3. Hisoblagichlar. Chastota bo'luvchilar.	
Summatorlar . . . . .	126
11.3.1. Umumiy ma'lumotlar . . . . .	126
11.3.2. Summalovchi ikkilik hisoblagichlar . . . . .	127
11.3.3. Ayiruvchi va reversiv ikkilik hisoblagichi . . . . .	133
11.3.4. Sinxron va asinxron ikkilik hisoblagichlar . . . . .	137
11.3.5. O'nlik hisoblagichlar . . . . .	139
11.3.6. Chastota bo'luvchilari . . . . .	142
11.3.7. Taqsimlagichlar . . . . .	142
11.3.8. Summatorlar . . . . .	143
11.4. Xotirada saqllovchi qurilmalar . . . . .	146
11.4.1. Vazifasi, turlari. Ularning asosiy tasniflari, klassifikatsiyasi . . . . .	146
11.4.2. Katta sig'imli tipik tezkor xotira qurilmasining asosiy parametrlari va ularni qurishdagi xususiyatlari . . . . .	148
11.4.3. Qayta dasturlovchi xotira qurilmasini (PPZU) qayta dasturlash vositasi va uslublari . . . . .	150
11.5. Mikroprotsessorli qurilmalar . . . . .	153
11.5.1. Mikroprotsessorlar va mikroprotsessorli komplektlar . . . . .	153
11.5.2. Mikroprotsessorlar haqida umumiy ma'lumotlar, tasnifi . . . . .	157
11.5.3. Asosiy tipdagи MP larning arxitekturaviy tuzilishi	158
11.5.4. 8-razryadli OMP strukturasi va xarakteristikasi . . . . .	159
11.5.5. 16-razryadli OMP strukturasi va xarakteristikasi . . . . .	161
11.5.6. Mikroprotsessorlarning arxitekturasi, strukturasi . . . . .	165
11.5.7. Mitti EHM ni tashkil etish . . . . .	168
11.5.8. Mitti EHM interfeysi . . . . .	169
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR . . . . .</b>	<b>172</b>

XALIKOV ABDULXAQ ABDULXAIROVICH  
MUXAMEDOVA DILFUZA BATIROVNA

## AVTOMATIKA ASOSLARI VA IMPULS TEXNIKASI

*O‘quv qo‘llanma*

Muharrir: *M. Akbarov*

Musahhih: *H. Zakirova*

Dizayner sahifalovchi: *E. Muratov*

«Faylasuflar» nashriyoti.

100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.

Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №255, 16.11.2012.

Bosishga ruxsat etildi 13.02.2014. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Bosma tabog‘i 11,0. Nashr hisob tabog‘i 11,5. Adadi 50 nusxa. Buyurtma №\_\_\_.  
\_\_\_\_\_

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.